



TOSHKENT  
DAVLAT  
YURIDIK  
UNIVERSITETI

# FUQAROLIK HUQUQI

## DARSLIK

yuridik texnikumlar uchun



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

# **FUQAROLIK HUQUQI**

*(yuridik texnikumlar uchun darslik)*

**Toshkent – 2021**

**UO‘K: 347 (075)(575.1)**

**KBK 67.404 (50‘)**

**F 98**

**Mualliflar jamoasi:**

O. Oqyulov, N. Imomov, M. Baratov, B. Topildiyev,  
Q. Mehmonov, G. Mamaraimova, A. Tojiboyev, U. Shonazarov.

**F 98**

**Fuqarolik huquqi** (yuridik texnikumlar uchun darslik) / Mualliflar jamoasi. O. Oqyulov, N. Imomov, M. Baratov va boshqalar. – T.: TDYU, 2021. – 192 bet.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagi 654-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya etilgan.

**Mas’ul muharrirlar:**

**O. Oqyulov** – “Fuqarolik huquqi” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori;

**M. Baratov** – “Fuqarolik huquqi” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori.

**ISBN: 978-9943-6913-1-5**

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	4
<b>Glossariy</b> .....	5
<b>1-mavzu.</b> Fuqarolik huquqiga kirish.....	14
<b>2-mavzu.</b> Bitimlar. Vakillik va ishonchnoma.....	26
<b>3-mavzu.</b> Fuqarolik huquqida muddatlar va da`vo muddati.....	37
<b>4-mavzu.</b> Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar.....	43
<b>5-mavzu.</b> Majburiyat huquqi.....	52
<b>6-mavzu.</b> Shartnoma (umumiy qoidalar).....	62
<b>7-mavzu.</b> Oldi-sotdi shartnomasi va uning alohida turlari.....	67
<b>8-mavzu.</b> Ayirboshlash shartnomasi. Hadya shartnomasi Umrbod ta`minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi.....	77
<b>9-mavzu.</b> Mulk ijarasi shartnomasi va uning alohida turlari. Tekin foydalanish shartnomasi.....	86
<b>10-mavzu.</b> Pudrat shartnomasi va uning turlari.....	95
<b>11-mavzu.</b> Haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi Tashish shartnomalari.....	105
<b>12-mavzu.</b> Qarz shartnomasi. Kredit shartnomasi.....	113
<b>13-mavzu.</b> Bank xizmati shartnomalari. Hisob-kitoblar.....	122
<b>14-mavzu.</b> Topshiriq shartnomasi. Vositachilik shartnomasi. Mol-mulkni ishonchli boshqarish. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasi.....	133
<b>15-mavzu.</b> Omonat saqlash va uning alohida turlari.....	141
<b>16-mavzu.</b> Sug`urta.....	153
<b>17-mavzu.</b> Ommaviy tanlov. Mukofotni oshkora va`da qilish. Qimor va garov o`yinlari o`tkazish.....	159
<b>18-mavzu.</b> Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar. Ma`naviy zararni qoplash. Asossiz boyluk orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.....	164
<b>19-mavzu.</b> Intellektual mulk.....	174
<b>20-mavzu.</b> Vorislik huquqi.....	181

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bilan bevosita aloqadordir. Bozor munosabatlarga o'tish, iqtisodiyotda xususiy mulk mavqeyini oshirish, xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berish, bozor infratuzilmasi institutlarini tashkil etish, raqobat muhitini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish ayni kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmogda. Iqtisodiyot liberallashtirib, islohotlar chuqurlashmogda va kishilarning tafakkuri, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksalmogda, o'z mulkiy va shaxsiy huquqlarini himoya qilish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmogda.

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining yuridik jihatdan tengligiga asoslangan mulkiy, shaxsiy va tashkiliy munosabatlarni huquqiy hamda shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni shartnomaviy usulda tartibga solishda, ijodiy faoliyatni huquqiy muhofaza qilishda fuqarolik huquqi muhim o'rin tutadi. Zero, u kundalik amalga oshiradigan faoliyatimiz, o'zaro muloqotlar, tashkiliy xo'jalik aloqalari, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarimizni qondirish kabi ko'plab hayotiy munosabatlarni tartibga soladigan va o'rganadigan huquq sohasi sanaladi.

Bugungi kunda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar shakllarini qo'llagan holda amaliy mashg'ulotlar sifatini ("keys-stadi", ilmiy prezentatsiyalar, jamoada ishlash kabi) oshirish zarurati kun mavzusiga aylandi.

Huquq tizimida sivilistika deb ataluvchi mazkur huquq sohasi tartibga soluvchi munosabatlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borgan. Shu sababli zamonaviy yurist fuqarolik huquqi fanini puxta o'zlashtirgan taqdirda yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi mumkin.

Yangi avlod huquqshunos kadrlarni tayyorlashda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarni hisobga olgan holda darslik va qo'llanmalar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikni yozishda sivilistika ilmi erishgan so'nggi yutuqlardan ijodiy foydalanildi hamda amaldagi qonun hujjatlari hamda ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar e'tiborga olindi.

## GLOSSARIY

**Abstrakt bitim** – haqiqiyliги muayyan asos – maqsad bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan bitim;

**ashyolar** – muayyan moddiy qiymatga ega boʻlgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti boʻla oladigan narsalar;

**ashyoviy huquq** – ashyoni egallash, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bogʻliq huquq;

**birgalikdagi mulk** – mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qoʻyilmagan mol-mulk;

**bitim** – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, oʻzgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari;

**cheklangan javobgarlik** – majburiyatlarning ayrim turlari hamda muayyan faoliyat turi bilan bogʻliq majburiyatlar boʻyicha qonunda zararni toʻla qoplashga boʻlgan huquqning cheklanishi;

**daʼvo muddati** – shaxs oʻzining buzilgan huquqini daʼvo qoʻzgʻatish yoʻli bilan himoya qilishi mumkin boʻlgan muddat;

**davlat korxonasi** – davlat mulkidagi, oʻziga operativ boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkiloti;

**fidutsiar bitim** – taraflarning oʻzaro ishonchiga asoslanadigan bitim;

**fuqarolar (jismoniy shaxslar)** – Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar;

**fuqarolik huquq layoqati** – fuqarolarga oʻzlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradigan huquq va majburiyatlarga ega boʻlish layoqati;

**fuqarolik huquqi** – huquqning alohida tarmogʻi boʻlib, yuridik jihatdan teng boʻlgan subyektlar oʻrtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yigʻindisidir;

**fuqarolik huquqi fani** – fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan oʻzaro bogʻliq tushunchalar, kategoriyalar, qarashlar, xulosalar, mulohazalar, fikrlar, konsepsiyalar va nazariyalar tizimini oʻzida ifoda etgan yurisprudensiyaning asosiy tarmogʻi;

**fuqarolik huquqi funksiyalari** – mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga yuridik taʼsir etishning asosiy yoʻnalishlari boʻlib, ularning mazmuni huquqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi;

**fuqarolik huquqi metodi** – bu mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar bilan bogʻliq ijtimoiy sohada yuridik usullar yigʻindisi, yuridik taʼsir vositalarini qoʻllashni ifoda etuvchi tartib va qoidalar yigʻindisi;

**fuqarolik huquqida muddat** – aniq belgilangan, oʻtishining boshlanishi va tamom boʻlishi muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishga qaratilgan paytlar va vaqt davrlari;

**fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari (prinsiplari)** – bu barcha fuqarolik qonunlari mazmuniga singdirilgan asosiy va boshlangʻich qoidalar;

**fuqarolik qonun hujjatlari** – fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, oʻzgarishi yoki bekor boʻlishi bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga soladigan FK va boshqa qonun hujjatlari yigʻindisi;

**fuqarolik-huquqiy munosabat** – yuridik jihatdan teng boʻlgan subyektlar oʻrtasida boʻladigan va fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar;

**fuqarolik-huquqiy munosabat elementlari** – huquqiy munosabat subyektlari, mazmuni va obyektlari;

**fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari** – fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari – fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat;

**fuqarolik-huquqiy munosabat mazmuni** – shu munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va burchlari;

**fuqarolik-huquqiy munosabat obyekti** – fuqarolik-huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari qaratilgan hamda subyektiv huquqlari va majburiyatlari belgilangan moddiy va nomoddiy neʼmatlar;

**garov** – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulk yoki unga boʻlgan huquqni majburiyatlarni taʼminlash uchun berishi;

**garov turlari** – zakalat, ipoteka va huquqlar garovi;

**harakatlar** – fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxs (yoki shaxslar)ning erki boʻyicha qilinadigan huquq yoʻl qoʻygan va huquq yoʻl qoʻymagan xatti-harakati (yuridik faktlar);

**homiylik** – o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

**huquq manbasi** – huquq ifoda etilishining yuridik shakli;

**huquqiy odat** – uzoq davr mobaynida amalda bo‘lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasi;

**insofli egallovchi** – mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsdan haq to‘lab olgan, buni bilmagan va bilishi mumkin bo‘lmagan shaxs;

**insofsiz egallovchi** – o‘z egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan shaxs;

**ish muomalasi odati** – biror-bir hujjatda yozilgan-yozilmaganidan qat‘i nazar, tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo‘llaniladigan xulq-atvor qoidasi;

**ishlab chiqarish kooperativi** – fuqarolarning shaxsiy ishtiroki a‘zolarining (ishtirokchilarning) mulki bilan qo‘shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo‘jalik faoliyatini olib borish uchun a‘zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi;

**ishonchnoma** – bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat;

**jamoat birlashmalari** – ma‘naviy yoki o‘zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi;

**jamoat fondi** – yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a‘zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti;

**kafillik** – bir shaxs – kafilning boshqa shaxs o‘z majburiyatini to‘la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o‘z zimmasiga olishi;

**kafolat** – bank, boshqa kredit muassasasi yoki sugʻurta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga koʻra kafil oʻz zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini toʻlash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga toʻlash haqida prinsipalga yozma majburiyat berishi;

**kazual bitim** – mazmun jihatidan muayyan maqsadga erishishga qaratilgan va haqiqiy deb hisoblanishi uchun mavjud asosga bevosita bogʻliq boʻlgan bitim;

**konsensual bitim** – huquq va majburiyatlarni oʻzaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keladigan bitim. Mulk ijarasi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, kontraktatsiya singari shartnomalar konsensual bitimlar;

**masʼuliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan taʼsis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) taʼsis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga boʻlingan xoʻjalik jamiyati;

**matlubot kooperativi** – ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning aʼzoligiga asoslangan, uning aʼzolari tomonidan oʻz mulkiy (pay) badallarini qoʻshish yoʻli bilan amalga oshiriladigan ixtiyoriy birlashma;

**mayda maishiy bitim** – fuqarolarning kundalik maishiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va summasi yuqori boʻlmagan bitimlar;

**mol-mulk** – maʼlum shaxsga (fuqaro yoki yuridik shaxsga) egalik huquqi bilan tegishli ayrim ashyolar yoki ashyolar yigʻindisi;

**muassasa** – boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalar yoki tijoratchilikdan iborat boʻlmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va toʻla yoki qisman moliyaviy taʼminlab turiladigan tashkilot;

**muddatli bitimlar** – taraflar huquq va majburiyatlarining vujudga kelish yoki bekor boʻlish vaqti koʻrsatilgan bitimlar;

**mulk** – mulkdorning oʻz mol-mulkiga nisbatan uchinchi shaxsning oʻzganing mol-mulki hamda mulkdor va ashyo oʻrtasidagi aloqadorlikka nisbatan munosabati;

**mulk huquqi** – shaxsning oʻziga qarashli mol-mulkka oʻz xohishi bilan va oʻz manfaatlarini koʻzlab egalik qilish, undan foy-

dalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqi;

**mulkiy munosabatlar** – ishtirokchilarning tengligiga, qiymat xarakteriga, tekinga yoki haq evaziga amalga oshirilishiga, munosabat ishtirokchilarining xatti-harakatlari bevosita ularning o'zlari tomonidan baholanishiga asoslanadigan vujudga kelish asosida mol-mulk va moddiy ne'matlar yotadigan munosabatlar;

**mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlar** – shaxsning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va undan begonalashtirilmaydigan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar;

**munitsipal mulk** – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mol-mulk;

**muomala layoqati** – fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o'zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati;

**navbatdagi garov** – garovga qo'yilgan mol-mulkning boshqa talablarni ta'minlash uchun yana bir garov narsasiga aylanishi;

**negator da'vo** – mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi;

**neustoyka** – qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi;

**neustoyka shakllari** – jarima yoki penya;

**nomoddiy ne'matlar** – qonun tomonidan tan olinadigan, muhofaza qilinadigan, moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan hamda egasining shaxsidan ajratish mumkin bo'lmagan ne'matlar va erkinliklar;

**oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida

boʻlgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti;

**ommaviy mulk huquqi** – respublika mulki va maʼmuriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat boʻlgan davlat mulk shakli;

**ommaviy shartnoma** – tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot oʻz faoliyati xususiyatiga koʻra oʻziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart boʻlgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar koʻrsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yoʻlovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan taʼminlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati kabi) belgilab qoʻyadigan shartnoma;

**operativ boshqarish huquqi** – davlat korxonasi, muassasasining oʻzlariga birlashtirib qoʻyilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qoʻyilgan doirada, oʻz faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi;

**pul** – iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim elementlaridan biri hisoblanib, barcha tovarlarning umumiy ekvivalenti;

**qaram jamiyat** – xoʻjalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xoʻjalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan koʻprogʻiga ega boʻlgan xoʻjalik jamiyati;

**qimmatli qogʻoz** – mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjat;

**qoʻshilish shartnomasi** – shartlarini taraflardan biri formulalar yoki boshqa standart shakllarda taʼriflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qoʻshilish yoʻli bilan qabul qilishi mumkin boʻlgan shartnoma;

**real bitim** – oʻzaro kelishuvga muvofiq, ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitim;

**respublika mulki** – yer, yer osti boyliklari, suv, havo boʻshligʻi, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega boʻlgan moddiy madaniy meros obyektlari,

respublika budjetining mablagʻlari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, oʻquv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, budjet yoki davlatning oʻzga mablagʻlari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan intellektual faoliyat natijalari;

**servitut** (lotincha “*servire*” – xizmat koʻrsatish) – oʻzganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish;

**shartli bitim** – taraflar oʻrtasida tuziladigan bitimning amalga oshirilishi yoki bekor boʻlishi, biron-bir shartga bogʻlab qoʻyilishi;

**shartnoma** – ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi;

**shoʻba xoʻjalik jamiyati** – bir (asosiy) xoʻjalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xoʻjalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeyiga ega boʻlgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular oʻrtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, yo boʻlmasa boshqacha tarzda ikkinchi xoʻjalik jamiyati tomonidan qabul qilindigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega boʻlgan jamiyat;

**subyektiv huquq** – muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli huquq;

**subsidiar javobgarlik** – qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor boʻlgan boshqa shaxsning javobgarligiga qoʻshimcha ravishda javobgarlik;

**tijorat vakilligi** – bir shaxsning tadbirkorlar shartnomalar tuzayotganida ikkinchi shaxs nomidan doimo va mustaqil suratda vakillik qilishi;

**turar joy** – fuqarolarning doimiy yashashiga moʻljallangan, belgilangan sanitariya, yongʻinga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolgʻiz qariyalar uchun internat uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga moʻljallangan joy;

**uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma** – taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada koʻrsatilgan yoki koʻrsatilmagan, qarzdordan majburiyatni oʻz foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega boʻlgan uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qoʻygan shartnoma;

**ulushli mulk** – mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qoʻyilgan mol-mulk;

**umumiy mulk** – ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida boʻlgan mol-mulk;

**vakillik** – bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlarni amalga oshirishi;

**vakolat** – vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilish va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishga qaratilgan huquq;

**vasiylik** – oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan yetim bolalar va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga taʼminot, tarbiya va taʼlim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

**vindikatsiya** – mulkdor oʻz mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishi;

**xoʻjalik shirkati** – muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) boʻlingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega boʻlgan tijorat tashkiloti;

**xoʻjalik yuritish huquqi** – bu unitar korxonasiga oʻz tijorat faoliyatini yuritish maqsadida mulkdor tomonidan birlashtirilgan mol-mulkdan foydalanishi boʻyicha cheklangan ashvoviy huquq;

**xususiy korxon** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot;

**xususiy mulk huquqi** – shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qoʻlga kiritgan mol-mulikka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi;

**xususiy mulk huquqining obyektlari** – qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk;

**xususiy mulk huquqining subyektlari** – fuqarolar, xoʻjalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy (jamoat) fondlar va davlatga qarashli boʻlmagan boshqa yuridik shaxslar;

**yashash joyi** – fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi;

**yuridik faktlar** – fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, oʻzgartirish va bekor boʻlishi bilan bogʻliq harakatlar (harakatsizlik) va hodisalar;

**yuridik shaxslar smetasi** – muassasaga uning xarajatlarini qoplash maqsadida mulkdor tomonidan biriktirilgan mol-mulklar yig'indisini o'zida ifodalovchi vositalar;

**zakalat** – shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasi.

## 1-mavzu. FUQAROLIK HUQUQIGA KIRISH

---

*Fuqarolik huquqi tushunchasi. Fuqarolik huquqi tamoyillari. Fuqarolik huquqining funksiyalari. Fuqarolik huquqi tizimi.*

Fuqarolik huquqi mamlakatimiz milliy huquq tizimidagi yetakchi huquq tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik huquqi mamlakatimizda bozor munosabatlari keng rivojlanayotgan, fuqarolik jamiyati shakllanayotgan, kishilarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlash maqsadlarida mulkiy munosabatlar hamda mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.


Boshqacha aytganda, **fuqarolik huquqi** – yuridik jihatdan teng bo'lgan subyektlar o'rtasidagi mulkiy, shaxsiy nomulkiy va tashkiliy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig'indisi.

Mamlakatimizda va xorijiy yuridik adabiyotlarda “xususiy huquq” iborasi ham ishlatiladi. Tor ma'noda xususiy huquq aynan fuqarolik huquqini anglatadi. Keng ma'noda xususiy huquq tarkibiga fuqarolik huquqi bilan birga oila huquqi, mehnat huquqi va tadbirkorlik huquqi sohalari ham kiradi.

Fuqarolik huquqining mohiyati u tomonidan tartibga solindigan ijtimoiy munosabatlar mazmunida o'z ifodasini topadi. Yuqorida bunday ijtimoiy munosabat g'oyatda keng doirani qamrab olishi qayd etib o'tilgan edi. Bunday munosabatlar, eng avvalo, kishilar va boshqa subyektlar o'rtasidagi moddiy va nomoddiy ne'matlarga nisbatan odatdagi kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan doimiy, takrorlanib turuvchi harakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (FK)ning 2-moddasi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini belgilashga bag'ishlangan. Unga ko'ra, fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holati, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning,

intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlar, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bunday munosabatlarning asosiy qismini mulkiy munosabatlar tashkil qiladi.



Fuqarolik huquqiy munosabatlar quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

1) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari (fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat) huquqiy holatining vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar. Fuqaroning huquq va muomala layoqati mazmuni, yuridik shaxslarni tashkil etish va boshqarish tartibi, davlatning fuqarolik huquqiy munosabatda ishtirok etishining o'ziga xos xususiyatlari;

2) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar;

3) intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar, ularni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar;

4) shartnoma majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlar;

5) boshqa majburiyatlar bilan bog'liq munosabatlar;

6) boshqa mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlar.

**Fuqarolik huquqi tamoyillari.** FKning 1-moddasida fuqarolik qonun hujjatlarining asosiy negizlari belgilab qo'yilgan. Asosiy negizlar yoki boshqacha aytganda, fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari bu barcha fuqarolik qonun hujjatlari mazmuniga singdirilgan rahbariy, asosiy qoidalardir. Ushbu asosiy tamoyillar fuqarolik qonun hujjatlari ishlab chiqilishida, huquqni qo'llash amaliyotida, xususan, sud amaliyotida o'ziga xos yo'naltiruvchi ta'sir kuchiga ega. Odatda, umumiy qoida bo'yicha fuqarolik-huquqiy normalar uning asosiy tamoyillari mazmuniga zid bo'lmasligi lozim. Muayyan ijtimoiy munosabatlar bo'yicha fuqarolik qonun hujjatlari sohasida bo'shliqlar bo'lgan taqdirda muammolar fuqarolik huquqi tamoyillari asosida hal qilinishi belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik huquqi tamoyillari tizimiga quyidagilar kiradi:

✓ fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligi tamoyili;

✓ mulk daxlsizligi tamoyili;

✓ shartnomalar erkinligi tamoyili;

✓ xususiy ishlarga biron-bir kishini o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi tamoyili;

✓ fuqarolik huquqlarining to'sqinliksiz amalga oshirilishi tamoyili;

✓ buzilgan fuqarolik huquqlari tiklanishi tamoyili;

✓ fuqarolik huquqlarining sud orqali himoya qilinishini ta'minlash tamoyili;

✓ fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'lishlari va bu huquqlarni o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishlari tamoyili;

✓ tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning O'zbekiston Respublikasi butun hududida erkin harakatlanish tamoyili.

**Fuqarolik huquqining tizimi.** Fuqarolik huquqi o'quv fani, huquq tarmog'i sifatida o'zining muayyan tizimiga ega. Bunda

tizim muayyan tarkibiy qismlardan, normalar majmuyidan iborat boʻladi. Fuqarolik huquqi tizimi tarkibiy qismlari oʻrtasida muayyan uzviy bogʻlanish, ketma-ketlik, tartib mavjud. Bunday uzviy bogʻlanish tasodifiylik xarakteriga ega emas, balki biri muqarrar ravishda ikkinchisini keltirib chiqaruvchi, ikkinchisi shartligini, mavjudligini taqozo etuvchi uzviy bogʻlanish hisoblanadi.

Fuqarolik huquqi oʻquv fani tizimi ham Fuqarolik kodeksi tizimi kabi qismlarga boʻlingan. Fuqarolik huquqining birinchi qismi umumiy qoidalar, yaʼni fuqarolik huquqining tamoyillari, fuqarolik-huquqiy munosabat doirasi, ularning vujudga kelish, amalga oshirish, himoya qilish usullari, fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari (subyektlari)ning huquqiy maqomi, fuqarolik huquqi obyektlari huquqiy rejimi, muddatlar, daʼvo muddatlari toʻgʻrisidagi asosiy qoidalar va kategoriyalar, shuningdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qoʻllaniladigan boshqa umumiy qoidalarni oʻz ichiga oladi.

FKning ikkinchi qismi baʼzi hollarda maxsus qism deb ham yuritiladi. Fuqarolik huquqi oʻquv fanida ham bunday tabaqlanish qoʻllaniladi. Baʼzi adabiyotlarda fuqarolik huquqining ikkinchi qismini fuqarolik huquqining kichik tarmoqlariga, kichik sohalariga ham boʻlish qabul qilingan. Kichik sohalar bu bir turdagi munosabatlar majmuyini tartibga soluvchi oʻzining umumiy qoidalariga ega boʻlgan normalar va kategoriyalarning muayyan guruhi hisoblanadi.


**Fuqarolik huquqi manbalari.** Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar boshqa huquq tarmoqlaridan farqli ravishda huquqiy va nohuquqiy manbalar tizimiga boʻlinadi. Huquqiy manbalar davlat yoxud muayyan korporativ tuzilma tomonidan qabul qilinib, belgilangan tartibda amal qiladi. Huquqiy manbalarning keng doirasini qonunlar, qonunosti hujjatlari tashkil etadi. Har qanday huquqiy hujjatlar fuqarolik huquqining manbasi hisoblanavermaydi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida eʼtirof etilish uchun u muayyan talablarga javob berishi lozim.

FKning 3-moddasida fuqarolik qonun hujjatlari koʻrsatilgan boʻlib, unga koʻra, fuqarolik qonun hujjatlari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holati, mulk huquqi va boshqa ashvoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga boʻlgan huquqlarning vujudga kelish asoslari hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va oʻzga majburiyatlar,

shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bogʻliq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bogʻliq boʻlmagan shaxsiy munosabatlar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa yoki bu munosabatlarning mohiyatidan oʻzgacha hol anglashilmasa, fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi qonunining 5-moddasiga koʻra, normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar, davlat qoʻmitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.




**Fuqarolik-huquqiy munosabat.** Fuqarolik-huquqiy munosabat deb, fuqarolik huquqining turli subyektlari o'rtasida vujudga keladigan va fuqarolik-huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabat ijtimoiy munosabat sifatida, eng avval, turli subyektlar, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar normal munosabatlar bo'lganligi sababli unda ishtirok etuvchi shaxslarning erk-irodasi, xohishiga ko'ra vujudga keladi. Fuqarolik munosabatida qatnashuvchi kishilarning erklari garchi ularning xatti-harakatlarida ifodalansa ham, biroq uning mohiyati va doirasi fuqarolik qonun hujjatlarida mujassam topadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning boshqa ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan farq qildiruvchi muayyan xususiyatlari mavjud:

1. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslar muayyan mulkiy mustaqillikka ega bo'lishi shart;

2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar teng huquqli shaxslar hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilgan taqdirda, odatda, da'vo qo'zg'atish orqali sudlar tomonidan himoya qilinadi.



Fuqarolik-huquqiy munosabatlar mazmunan bir necha turga bo'linadi:

- ✓ mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar;
- ✓ mutlaq (absolyut) va nisbiy huquqiy munosabatlar;
- ✓ mulkiy huquqiy munosabatlar;
- ✓ korporativ munosabatlar.

Bundan tashqari, ba'zi mualliflar "imtiyozli fuqarolik-huquqiy munosabatlar" mavjudligi to'g'risida fikr bildiradilar.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan asoslar sifatida qabul qilina-

digan yuridik faktlar turli-tuman boʻlib, subyektlar erk-irodasi mazmuniga koʻra hodisalar va harakatlarga boʻlinadi.

FKning 8-moddasi birinchi qismida koʻrsatilishicha, fuqarolik huquq va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan boʻlsa-da, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga koʻra fuqarolik huquq hamda burchlarini keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi.

FKning 8-moddasi ikkinchi qismida fuqarolik huquqlari va burchlarining vujudga kelish asoslari normalangan. Ular quyidagilardan iborat:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek, garchi qonunda nazarda tutilmagan boʻlsa-da, unga zid boʻlmagan shartnoma va boshqa bitimlardan;

2) davlat organlari yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining fuqarolik huquqlari va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida qonunda nazarda tutilgan hujjatlaridan;

3) sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;

4) qonun yoʻl qoʻyadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, sanʼat asarlarini yaratish, ixtirolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;

6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;

7) asossiz boyib ketish natijasida;

8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

9) qonun hujjatlari fuqarolik-huquqiy oqibatlarining kelib chiqishi bilan bogʻlaydigan hodisalar natijasida.

**Fuqarolik huquqining subyektlari.** Har qanday fuqarolik huquqi subyekti uning subyekt sifatida fuqarolik huquqiy muomalada faol qatnashishi uchun huquq layoqati va muomala layoqatiga ega boʻlishi lozim. Fuqarolik huquqining asosiy subyektlaridan biri hisoblangan fuqarolar ham xuddi shunday belgilarga ega boʻlishlari talab etiladi.

**Fuqarolar – fuqarolik huquqining subyekti sifatida.** Fuqarolik huquq va burchlarga ega boʻlish layoqati huquq layoqati hisoblanadi va teng ravishda eʼtirof etiladi. Fuqarolarning huquq layoqati mazmuni Fuqarolik kodeksida belgilab qoʻyilgan. FKning

18-moddasi mazmuniga ko'ra, fuqarolar: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari; yo'llanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishlari; mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Qoida tariqasida, huquq layoqati va subyekt sifatida mavjudlik chaqaloq tirik tug'ilishi bilan boshlanadi. Biroq ba'zi holatlarda hali tug'ilmagan, ya'ni ona qornida homila sifatida mavjud bo'lganda ham uning kelgusidagi manfaatlarini qonun e'tiborga oladi, qo'riqlaydi. Masalan, agar meros qoldiruvchi fuqaro vafot etgan hollarda uning nafaqat hayot paytida tug'ilgan farzandlari, balki qonunda belgilangan tartibda meros ochilgandan so'ng tug'ilgan farzandlari ham merosxo'r sifatida e'tirof etiladi (FK, 1118-modda).

FKning 22-moddasiga ko'ra, fuqaroning muomala layoqati fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir. Muomala layoqatini yuridik harakatlarni amalga oshirish layoqati deb ham e'tirof etish mumkin. Ba'zida huquq layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar fuqarolik muomala layoqatiga ega bo'lavermaydi. Muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar o'z xatti-harakatlarini anglab, oqibatlarini tushunib, o'z erk-irodalari asosida harakatni amalga oshiradi.

Odatda, yangi tug'ilgan chaqaloq garchi to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham, o'z mustaqil harakatlari bilan o'zi uchun huquq va majburiyat vujudga keltirish qobiliyatiga ega emas. Bolalar yillar o'tgan sayin aqliy bilimlar va hayotiy tajriba orqali ongi to'liqlashib boradi. 18 yoshga to'lganda, unda to'liq muomala layoqati vujudga keladi. Ayni paytda qonunda belgilangan tartibda va asoslarda nikohdan o'tgan voyaga yetmaganlar ham shu paytdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega

boʻladi (FK, 22-modda). Bundan tashqari, emansipatsiya holatida ham fuqarolar toʻla muomala layoqatini qoʻlga kiritadi (FK, 28-modda). FKning 23-moddasiga koʻra, voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomala layoqatiga ega.

**Yuridik shaxslar – fuqarolik huquqining subyekti sifatida.** Fuqarolik huquq subyektlari ichida yuridik shaxslar oʻz belgilari, vujudga kelish va bekor boʻlish usullari, fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtiroki, subyektiv huquqlarni amalga oshirishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik huquqining mustaqil subyektlari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashish va shu munosabat bilan muayyan huquq va majburiyatlarga ega boʻlishi layoqati nafaqat fuqarolar, balki yuridik shaxslarga ham beriladi.

Mamlakatimizda yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yaxlit tizimi yaratilgan. Ularning har birida turli xoʻjalik yuritish shakliga ega boʻlgan u yoki bu yuridik shaxslarga oʻziga xos taʼrif berilgan. FK esa ularning barchasini umumlashtirib, quyidagicha taʼrif beradi: oʻz mulkida, xoʻjalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega boʻlgan hamda oʻz majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, oʻz nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega boʻla oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda daʼvogar va javobgar boʻla oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi (FK, 39-modda).

Yuridik shaxslar quyidagi belgilarni oʻzida mujassam etadi:



Yuridik shaxsning yuqoridagi belgilaridan tashqari, uning individual belgilari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat koʻrsatish belgisi) ham mavjud.

Yuridik shaxs oʻz faoliyatida oʻz taʼsis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega boʻ-


ladi. Tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasidagi huquq layoqatining hajmida farq bo'lishi mutlaqo tabiiydir. Tashkilotlar fuqarolarga nisbatan belgilangan birmuncha huquq va majburiyatlarga ega bo'la olmaydi. Bundan tashqari, vujudga kelish vaqtida ham fuqarolarning huquq va muomala layoqatidan yuridik shaxslarniki farqlanadi. Yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati bir vaqtda ro'yxatdan o'tishi bilan vujudga keladi.

Yuridik shaxslarning muomala layoqati huquq layoqati bilan bir vaqtda vujudga keladi. Shu bilan birga, yuridik shaxslarni muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin emas. Yuridik shaxsning muomala layoqati o'z nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda harakat qilishi, ya'ni bitimlar tuzish, majburiyatlarga ega bo'lish va uni bajarish, da'vogar hamda javobgar bo'lish layoqatidir.

FKda yuridik shaxslar faoliyatining maqsadiga qarab tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar farqlanadi (FK, 40-modda). Qonun hujjatlariga muvofiq, tijoratchi yuridik shaxslar ham, tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar ham tadbirkorlik (foyda olishga qaratilgan faoliyat) faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin, lekin bunda tijoratchi yuridik shaxslardan farq qilib, tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar o'z tadbirkorlik faoliyatidan olgan foydani faqat a'zolarining ehtiyojini qondirish yoki o'zga musharak maqsadni amalga oshirish uchun ishlatadi.

**Davlat – fuqarolik huquqining subyektivi sifatida.** Davlat jamiyat hayotining barcha sohalarida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan "subyekt" hisoblanadi. Davlatning ushbu maqomi iqtisodiy munosabatlarda yaqqol ajralib turadi. Zero, iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishida davlat ishtiroki bevosita xalq manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda esa davlat ana shu manfaatlarining himoyachisi sifatida ularni to'g'ri va maqbul amalga oshirilishini ta'minlab beradi.

FKning 2-moddasiga ko'ra, davlat ham fuqarolar va yuridik shaxslar kabi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchisidir. Darhaqiqat, bozor munosabatlari sharoitida davlatning iqtisodiy munosabatlardagi o'rni va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi maqomi tubdan o'zgardi. Endilikda davlat fuqarolik huquqining boshqa subyektlari kabi huquqiy munosabatlarda teng asoslarda ishtirok eta boshladi.



FKning 79-moddasiga asosan, davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan bab-baravar asoslarda ishtirok etadi. Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi.

Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan, yuqorida aytganimizdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar. Davlat idoralarining fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ikki xil ko'rinishda bo'ladi: bevosita va bilvosita. Bevosita ishtirokda davlat o'z nomidan fuqarolik muomalasiga kirishadi. Bilvosita ishtirokda esa davlat nomidan uning organlari ishtirok etadi.

**Fuqarolik huquqi obyektlari.** Fuqarolik huquqining **obyekti** huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan moddiy va nomoddiy ne'matlardir. Faqatgina qonunchilik obyekt ustida o'rnatiladigan huquq va majburiyatlar, harakatlar qonun hujjatlari va axloq normalari asosida amalga oshirilishini talab etadi. Xususan, xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qi-

lish, tabiat va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish yuzasidan baʼzan fuqarolik huquqi obyektlarining muomalada boʻlishi cheklanishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqi obyektlari doirasi kengaydi. Masalan, obyekt sifatida xususiy mulk, qimmatli qogʻozlar keng muomalaga kirib keldi, intellektual mulkning yangidan yangi obyektlari (integral mikroshemalar topologiyalari, nou-xaular) vujudga keldi, ishlar va xizmatlar doirasi kengaydi, tijorat siri mustahkamlandi.

Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, mol-mulklar, mulkiy huquqlar, pullar va qimmatli qogʻozlar, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari, shaxsiy nomulkiy huquqlar kiradi (FK, 81-modda).

Fuqarolik huquqi obyektlarini ikki turga, yaʼni moddiy (ashyoviy) va nomoddiy (noashyoviy) neʼmatlarga boʻlish mumkin.

Ashyo oʻzining iqtisodiy tayinlanishiga, jisimiy va boshqa xususiyatlariga koʻra quyidagicha tasniflanadi:

✓ fuqarolik muomalasidan chiqarilgan va chiqarilmagan ashyolar;

✓ koʻchar va koʻchmas ashyolar;

✓ xususiy va turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar;

✓ boʻlinadigan va boʻlinmaydigan ashyolar;

✓ isteʼmol qilinadigan va isteʼmol qilinmaydigan ashyolar;

✓ asosiy va mansub ashyolar;

✓ murakkab ashyolar;

✓ hosil va daromad beradigan ashyolar;

✓ jonli va jonsiz ashyolar.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

1. *Xususiy va ommaviy huquq oʻrtasidagi nisbatni fuqarolik huquqi misolida tushuntirib bering. Aynan qanday xususiyatlar bilan fuqarolik huquqi xususiy huquq tizimiga mansub sanaladi?*

2. *Mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqining predmetini tashkil etadi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarning oʻziga xos xususiyatlarini ochib bering.*


## 2-mavzu. BITIMLAR. VAKILLIK VA ISHONCHNOMA


*Bitimlar tushunchasi va turlari. Bitimlarning muddatlari va shartli bitimlar. Bitim shakllari. Bitimning haqiqiy sanalish shartlari. O‘z-o‘zidan haqiqiy sanalmaydigan bitim turlari va ularning huquqiy oqibatlari. Vakillik tushunchasi. Vakolat va uning turlari. Ishonchnoma.*

**Bitimlar.** Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi (FK, 101-modda).

Bitim fuqarolik huquqining asosiy institut (tushuncha)laridan biri hisoblanadi. Bitim instituti – bitimlarni tuzish tartibi va shakllari, ularning turlari va mazmuni, haqiqiy emas deb hisoblash shartlari, ularning haqiqiy emasligini tan olishning huquqiy oqibatlarini belgilab beruvchi fuqarolik-huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

Bitim shaxslarning erki bilan bog‘liq hamda ularning iroda-sidan kelib chiqadigan harakat bo‘lganligi tufayli bitimda ifodalangan erk izhor qilinishi, ya‘ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.





Bitimlar o'z belgilariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi (klassifikatsiya qilinadi):

1. *Bir, ikki va ko'p* tarafdin bitimlar;
2. *Haq baravariga va tekinga tuziladigan* bitimlar;
3. *Konsensual va real* bitimlar;
4. Bitimlar asosining mohiyati va ularning amal qilishiga ko'ra *kazual va abstrakt (mavhum)* bitimlarga bo'linadi.

Huquq subyektlari o'rtasida tuziladigan bitimlar muayyan muddatlarda ijro etiladi va bekor bo'ladi.


Agar bitimda huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi yoki bekor bo'lishi vaqti ko'rsatilgan bo'lsa, bitimlar muddatli hisoblanadi. Bitimlarda muddatlar quyidagicha belgilanadi:

- a) ma'lum kun, oy, yil bilan (masalan, 2019-yil 15-sentabr);
- b) ma'lum vaqtning o'tishi bilan (masalan, bir yarim yildan keyin o'tishini ko'rsatish);
- d) ma'lum bir voqeelik yuz berishi (masalan, daryo orqali yuk tashish – muz erishi) bilan.

**Bitim shakli** – erkni bayon etish usulidir. Erk og'zaki, yozma va boshqa usullarda bayon etilishi mumkin.

Jeton, patta yoki odatda, qabul qilingan boshqa belgi berish bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib

belgilanmagan bo'lsa, og'zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi. Yozma shaklda tuzilgan shartnoma bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo'lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og'zaki tuzilishi mumkin.



Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizning qadimdan mavjud “sukut – rozilik alomati” qoidasi amal qiladi.

Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga bo'linadi:

a) oddiy yozma;

b) notarial idoralarda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlar.

Bitimlar quyidagi hollarda oddiy yozma shaklda tuziladi:

1) yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan tuziladigan bitimlari (yuridik shaxslarning mulki va mablag'lari uning balansida aks ettirilishi lozimligi talabidan kelib chiqib);

2) fuqarolar o'rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat'i nazar boshqa bitimlar.

Bitimlar haqiqiy sanalishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- ✓ *birinchidan*, bitimlarning mazmuni qonun va qonun asosida chiqarilgan hujjatlar, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo'lishi;
- ✓ *ikkinchidan*, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo'lishi;
- ✓ *uchinchidan*, bitimlar ko'rinish uchungina tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat tug'dirish maqsadida tuzilgan bo'lishi;
- ✓ *to'rtinchidan*, notarial guvohlantirilishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan bitimlar haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak.

Nizoli bitimlar jumlasiga o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqarolmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK, 121-modda), yanglishish ta'sirida tuzilgan (FK, 122-modda), aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishuvi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan (FK, 123-modda), muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan (FK, 120-modda), yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimlar (FK, 125-modda) kiradi.

## Nizoli bitimlar

### Amalga oshirilishi

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim

Muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim

Yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitim

O'z vakolatlaridan tashqariga chiqqanda

O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqarolmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim

### Ta'sir ostida

yanglishish

aldash

zo'rlik

qo'rqitish

bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi

og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida

**Vakillik.** Shunday paytlar bo'ladiki, shaxslar o'z huquq va majburiyatlarini bevosita o'zlari amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladi. Bunday hollarda ularga fuqarolik huquqidagi vakillik instituti haqidagi tushunchalar yordam beradi. Vakillarining xizmatiga fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham muhtoj bo'ladi. Shu sababli ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki davlat organining hujjati, asosan, vujudga keluvchi vakillik institutining vazifasi vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishdan iboratdir.

Vakillik deb, bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishiga aytiladi. Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi (FK, 129-modda).

Bu vakillikning mazmun-mohiyati, amalga oshirilish usuli, shakli, uning turlarga bo'linishi va vakillik subyektlarining huquqiy maqomini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun vakillik institutining eng muhim jihatlaridan biri – uning subyektlari hisoblanib, ular vakolat beruvchi – bu har qanday shaxs, ayni vaqtda davlat ham bo'lishi mumkin. Masalan, davlat shartnoma asosida ma'lum bir shaxslarga davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining direktorlar kengashida davlat manfaatlarini ifoda etish uchun o'z vakilini tayinlashi mumkin yoki ayrim hollarda fuqarolik munosabatlarida davlat nomidan maxsus vakil qilingan yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilgan. Vakil – faqat muomalaga layoqatli shaxslar bo'lishi mumkin. Qonunchilikda vakil bo'lishi taqiqlangan shaxslar bundan mustasno.

Vakillikning quyidagicha o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1) vakillik munosabatlarining subyektlari har qanday shaxs bo'lishi mumkin;

2) vakillikdan kelib chiqadigan munosabatlarda uchdan ortiq taraf ishtirok etadi;

3) vakillik instituti munosabatlari insoniylik, o'zaro yordam, fuqarolik munosabatlarda barchaning teng ishtirokini ta'minlash g'oyalari asoslanadi;

4) vakillik haq evaziga ham, tekinga ham amalga oshirilishi mumkin;

5) vakillik fuqarolik, oila, iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni o'zida jamlagan;

6) vakillik instituti mavjudligining asosi bo'lgan vakolatlar huquqiy hujjatlar va shartnomalar bilan aniq tarzda belgilanadi;

7) vakillikning vujudga kelishi va bekor bo'lishi har xil obyektiv va subyektiv yuridik faktlarga bog'liq;

8) vakillik instituti shaxslarga fuqarolik huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi yuridik yordamning huquqiy asosidir.

Vakillikning quyidagi turlari mavjud:

- umumiy vakillik – bosh ishonchnomaga asoslanadi. Umumiy vakolatlar asosida ish olib boruvchi vakil vakolat beruvchi nomidan muayyan munosabatlarda qonunda belgilangan hollardan tashqari, barcha yuridik xatti-harakatlarni amalga oshirishga haqli;

- maxsus vakillik – vakil ishonchnoma yoki shartnomada ko'rsatilgan xatti-harakatlarnigina amalga oshira oladi, ya'ni vakilning vakolatlari birmuncha cheklangan;

- jamoat vakilligi – jamoat birlashmalarining o'z a'zolarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vakilligi;

- ma'muriy hujjatga asoslangan vakillik – vakillikning ushbu turiga muvofiq, ma'muriy tartibda tayinlangan vakil vakolat beruvchining nomidan harakat qilish majburiyatini oladi;


- shartnomaviy vakillik – vakillikning vujudga kelishi tarafdorlarning o'z erki, xohish-istagi asosida o'zaro kelishuvga muvofiq belgilanadi;

- qonuniy vakillik – vakolat beruvchining erkiga bog'liq bo'lmagan holda normativ-huquqiy hujjatlar asosida vakilga berilgan vakolatlardan kelib chiqadigan vakillik hisoblanadi.

FKning 133-moddasiga muvofiq, tadbirkorlar shartnomalar tuzayotganda, ular nomidan doimo va mustaqil ravishda vakillik qiluvchi shaxs (tijorat vakili) vakilning vakolatlari ko'rsatilgan yozma shartnoma asosida, bunday vakolatlar ko'rsatilmagan taqdirda esa ishonchnoma asosida ham ish olib boradi.

Tijorat vakili o'zining ishtirokida tuzilgan shartnomadagi turli tarafdorlarning manfaatlarini faqat bu tarafdorlarning roziligi bilan hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollardagina ayni bir vaqtda ifodalashi mumkin.

## Vakillikning klassifikatsiyasi



**Ishonchnoma.** FKning 134-moddasida ko'ra, ishonchnoma deb bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolatga aytiladi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnomaning berilishi vakil uchun vakolat belgilashga qaratilgan bir taraf lama bitim sifatida ko'riladi. Ishonchnoma topshiriq shartnomasi, mehnat shartnomasi, ekspeditsiya shartnomasi va boshqa shartnomalar asosida beriladi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko'rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FK, 134-modda ikkinchi qism).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek, bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. *Masalan, uy-joy qurish kooperativining vakili kooperativ a'zola-*

*rining barchasi yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.*

Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo'lishi uchun tayinlanadi. Ishonchnomaning mazmunidan vakilning qanday vakolatlarga egaligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqliligi ko'rinib turishi kerak. Binobarin, vakil ishonchnomada ko'rsatilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, vakil qiluvchi bu shartnomani bajarishdan bosh torta olmaydi.

***Ishonchnomani quyidagi turlarga ajratish mumkin: umumiy, maxsus va bir martalik ishonchnomalar.***

**Umumiy ishonchnomada** turli bitimlarni tuzish yoki boshqa yuridik harakatlar amalga oshirish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga tegishli transport vositasini boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi.

**Maxsus ishonchnoma** faqat muayyan sohada bitimlar tuzish yoki yuridik harakatlarni sodir etish imkonini beradi. *Masalan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha mijoz bergan ishonchnomada ekspeditorga faqat shartnomaviy munosabat doirasida eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni olish, bojxona rasmiyatchiliklari yoki o'zga rasmiyatchiliklarni bajarish, yukning miqdori va holatini tekshirish, uni ortish va tushirish, mijoz zimmasiga yuklatiladigan bojlar, yig'imlar va boshqa xarajatlarni to'lash, yukni saqlash, uni belgilangan manzilda olish kabi yukni yetkazib berish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bitimlar tuzishi uchun vakolat berilishi mumkin.*

**Bir martalik ishonchnoma** faqat bir bitim yoki yuridik harakat sodir etish uchun beriladi va uning bajarilishi orqali ishonchnoma o'z kuchini yo'qotadi. *Masalan, bir oylik maosh, pochtdan xat yoki jo'natmani olish bo'yicha berilgan ishonchnoma uning olinishi orqali bekor bo'ladi.*

Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda, u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas (FK, 139-modda ikkinchi qism).

Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda ularning amalda bo'lish muddati, albatta, ko'rsatilishi kerak.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. FKning 136, 137, 138-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ishonchnomalarning notarial idoralardan tashqari boshqa tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi FKning 136–137-moddalari bilan belgilanadi. Chunonchi, xat-xabarlar, shu jumladan, pul va posilkalar olish uchun beriladigan vakolatnoma, ish haqi hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarni, muallif va ixtirochilarga beriladigan haqlarni, pensiyalar, yordam pullari va stipendiyalarni, shuningdek, xalq banklaridan tegishli summalarni olish uchun beriladigan ishonchnoma fuqarolar yashab turgan joydagi o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan, ishlab turgan yoki o'qib turgan tashkilot tomonidan, turar joydagi uyga xizmat ko'rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti tomonidan, davolanib turgan joyida esa davolanish muassasasining ma'muriyati tomonidan, harbiy xizmatchi ishonchnoma berganida, tegishli harbiy qism qo'mondonligi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarga beriladigan ishonchnoma tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirishi uchun beriladigan ishonchnoma ushbu yuridik shaxsning bosh buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi (FK, 138-modda).

Vakillik shaxsiy ishonchga bog'liq bo'lganligi tufayli vakolat olgan shaxs qanday harakatlarni qilishga vakil qilingan bo'lsa, ularni shaxsan o'zi bajarishi lozim. Vakil olgan vakolati yuzasidan bu harakatlarni bajarishni faqat ishonchnomada ko'rsatilgan hollarda yoki vakolat beruvchining manfaatlarini qo'riqlash uchun

maʼlum bir sharoitlar tufayli bировga topshirishga majbur boʻlsa-gina, boshqa shaxsga topshirishga haqli. Vakolatning vakil tomonidan boshqa shaxsga oʻtkazilishi mumkinligi nazarda tutilgan ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

FKning 141-moddasida koʻrsatilganidek, ishonchnoma quyidagi hollarda: muddat tugashi; ishonchnoma beruvchi tomonidan bekor qilinishi; vakolat olgan shaxsning vakillikdan bosh tortishi; nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning bekor boʻlishi; nomiga ishonchnoma bergan yuridik shaxsning bekor boʻlishi; ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yoʻqolgan deb topilishi yoki uning vafot etishi; ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yoʻqolgan deb topilishi yoki uning vafot etishi bilan bekor boʻladi.

Ishonchnoma beruvchi xohlagan paytda uni bekor qila oladi, ishonchnoma oluvchi ham undan bosh torta oladi.

Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning tugashi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda, bunday vazifa vakolat beruvchining huquqini oluvchi shaxslarga ham yuklatiladi. Vakolat beruvchining vafot etishi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda esa bu vazifa uning vorislariga yuklatiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

1. *Koʻp hollarda bitim va shartnoma tushunchasi chalkash-tiriladi. Bitim deganda, shartnomani tushunish hamda bir tomonlama, ikki tomonlama va koʻp tomonlama bitimlarga oid qoidalarni toʻliq shartnomalarni tasniflashga nisbatan qoʻllash mumkinmi?*

2. *Qanday bitim turlarini bilasiz? Birja bitimlarining boshqa bitim turlaridan farqi bormi? Ular haqida nimalarni bilasiz?*

3. *Vakillikning oʻziga xos turlaridan biri qonuniy vakillik sanaladi. Qonuniy vakillar sifatida kimlar ishtirok etishi va ularning vakolat doirasi nimadan iboratligini tahlil qiling.*

4. *Ishonchnomaning yuridik tabiati, uning turlari va qoʻllanilish asoslari hamda tartibini tahlil qiling.*

### 3-mavzu. FUQAROLIK HUQUQIDA MUDDATLAR VA DA'VO MUDDATI

---

*Muddatlar tushunchasi. Muddatlarning turlari. Da'vo muddati tushunchasi va ahamiyati. Da'vo muddatining turlari. Da'vo muddatining o'ta boshlashi. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi, uzilishi va da'vo muddatining tiklanishi. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar.*

Ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda fuqarolik huquqining boshqa institutlari kabi “muddatlar va da'vo muddati” instituti ham muhim ahamiyatga ega. Aynan muddatlar orqali fuqarolik huquqida “aniqlik”, “vaqt”, “majburiyatlarni lozim darajada bajarish”, “subyektlarning o'z huquqlariga e'tiborli bo'lishlari”, “xatti-harakatlarni bajarishda kechikmaslik” holatlari e'tiborga ega bo'ladi va har bir fuqarolik-huquqiy munosabat uchun zarur shartlardan biri sanaladi.

Fuqarolik huquqida **muddat** deb, aniq belgilangan, o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishga qaratilgan paytlar va vaqt davrlariga aytiladi.

Muddatlar muddatning kim tomonidan tayinlanishiga ko'ra, huquqiy oqibatiga ko'ra, aniqlanish tavsifiga ko'ra va boshqa bir qator asoslarga ko'ra turlarga bo'linadi.

*Muddatlar kim tomonidan tayinlanishiga ko'ra:*

- 1) qonuniy muddatlar;
- 2) shartnomaviy muddatlar;
- 3) sud tomonidan belgilanadigan muddatlarga bo'linadi.

*Muddatlar huquqiy oqibatiga ko'ra:*

huquqni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi muddatlarga bo'linadi.


*Muddatlar o'zining aniqlanish tavsifiga ko'ra:*

imperativ va dispozitiv, mutlaq aniq, qisman aniq va noaniq, umumiy va maxsus muddatlarga bo'linadi.

Fuqarolik huquqida fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlarining quyidagi turlari mavjud:

fuqarolik huquqlarining amalda bo'lish vaqtini belgilaydigan muddatlar;

cheklovchi (preklyuziv) muddatlar; e'tiroz (pretenziya) bildirish muddatlari;  
 kafolat muddati;  
 yaroqlilik muddati, tovarning xizmat qilish muddati, tovardan foydalanish, tovarni saqlash muddati va boshqa muddatlar.



Muddatlar belgilanishi va hisoblanishiga ko'ra *ikki turga* bo'linadi:

o'zmatilgan vaqt davrlari (yillar, oylar, haftalar va shunga o'xshash) bilan belgilanadigan muddatlar va aniq payt (to'lovni

amalga oshirish kuni, ishni bajarishning aniq sanasi) bilan belgilanadigan muddatlar. Odatda, aniq payt bilan belgilanadigan muddatlar vaqt oraligʻi bilan belgilanadigan muddatlar kabi oʻtishi boshlanmaydi, faqatgina belgilangan paytdagina uning oʻtishi boshlanadi va ularning boshlanish vaqtini aniqlash hech qanday qiyinchilik tugʻdirmaydi. Shu bilan birga, hisoblash qiyinchilik tugʻdirmaydigan holatlardan yana biri boshlanishi va tamom boʻlishi aniq kalendar sana bilan belgilanadigan muddatlar (masalan, televizorni 1-iyundan 1-oktabrgacha ijaraga olish) yoki soatlar bilan hisoblanadigan muddatlar (bu muddatlar shartnomada belgilangan paytdan boshlanadi va soatlar bilan hisoblanadi).

Bu muddatlarni hisoblash vaqt oraligʻi hisoblanishini nazarda tutmaydigan hollarda muddatning birinchi kuni ham yillar, oylar, haftalar va hatto kunlar bilan belgilanganda qiyinchilik tugʻdiradi.

FKning 146-moddasi umumiy qoida tarzida vaqt davri bilan belgilangan muddat kalendar sanadan keyingi yoki uning boshlanish kuni deb belgilangan voqea yuz berganidan keyingi kundan oʻta boshlashini belgilaydi.

Vaqt davri bilan belgilangan muddatning tamom boʻlish paytini aniqlash ham fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. FKning 147-moddasiga muvofiq, yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilidagi tegishli oy va kunda tamom boʻladi.

Yarim yil deb belgilangan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar qoʻllaniladi (FK, 147-modda ikkinchi qism). Bunda yarim yil sifatida oltinchi oyning soʻnggi kuni muddat tamom boʻlish payti hisoblanadi. Masalan, 3-may kuni boshlangan yarim yillik muddat 3-noyabr kuni tamom boʻladi.

Yil choraklari bilan hisoblanadigan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar tatbiq etiladi. Bu holatda yil choragi uch oyga teng deb hisoblanadi, yil choragining hisobi esa yil boshidan yuritiladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat shu muddatning oxirgi oy-dagi tegishli kunida tugaydi.

Haftalar bilan oʻlchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi.

**Daʼvo muddati.** FKning 149-moddasiga muvofiq, daʼvo muddati – shaxs oʻzining buzilgan huquqini daʼvo qoʻzgʻatish yoʻli

bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari ushbu huquqlarni sud orqali himoya qilish hisoblanganligi sababli da'vo ana shu himoyani amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar yoki shartnomada belgilanib qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki xolislar (hakamlik) sudi tomonidan himoya qilinadi (FK, 10-modda).

Umumiy qoidaga ko'ra, da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi.

FK da'vo muddatlarini to'g'ridan to'g'ri: umumiy va maxsus da'vo muddatlariga bo'ladi. Umumiy da'vo muddatlari qonun hujjatlari tomonidan oldindan belgilanmagan muddatlar mavjud bo'lmagan barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladi. FKning 150-moddasiga muvofiq, umumiy da'vo muddati uch yil. Bu muddat o'z nomidan ko'rinib turibdiki, fuqarolar va yuridik shaxslar uchun bir xilda "umumiydir".

Maxsus da'vo muddatlari. Umumiy da'vo muddatidan farq qilib, maxsus da'vo muddatlari qonun hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan talablarga nisbatan qo'llaniladi. Bu muddatlar umumiy da'vo muddatiga qaraganda kamroq vaqt davom etganligi uchun ular qisqartirilgan da'vo muddatlari deb ham yuritiladi. FKning 151-moddasi esa ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkinligini qayd etadi. Maxsus da'vo muddatlari faqatgina qonun hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda qo'llaniladi va xuddi umumiy da'vo muddatlari kabi imperativ xarakter kasb etadi.

FKning 154-moddasiga muvofiq, da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi.

FKning 156-moddasiga muvofiq, da'vo muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) agar da'vo qo'zg'atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmay kuch) to'siqinlik qilgan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirganligi (moratoriy) tufayli;

3) agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan Qurolli Kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Muddatning to'xtatib turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi. Bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi.

Da'vo muddati o'tishining uzilishi uzilish uchun asos bo'lgan holatlar vujudga kelgunga qadar o'tgan muddat da'vo muddati tarkibiga kiritilmasligi va da'vo muddati yangidan boshlanishini bildiradi. Da'vo muddati o'tishining uzilish u to'g'risidagi masala butunlay tugaganligini bildirmaydi, aksincha, bunda da'vo muddati butunlay yangidan boshlanadi. FKning 157-moddasi da'vo muddati o'tishi uzilishining quyidagi ikki holatini belgilaydi:

1) belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan;

2) majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan.

FKning 163-moddasiga muvofiq, da'vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:

- shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy boylıklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

- fuqaroning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga. Da'vo muddati o'tganidan keyin qo'zg'atilgan talablar da'vo qo'zg'atilishidan oldingi ko'pi bilan uch yil bo'yicha qondiriladi;

- jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;

- mulkdor yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlar, shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan buzishlarni (FKning 231-moddasi), bartaraf etish haqidagi talablariga;

- mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulk hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;
- qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

*1. Fuqarolik huquqida muddatlarni turlarga bo'lish (klassifikatsiya qilish) asoslari va mezonlari turlichadir. Mazkur holatdan kelib chiqib, aniq amaliy ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazaridan fuqarolik huquqidagi muddatlarning alohida turlarini tahlil qiling.*

*2. Da'vo muddati buzilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish muddatlari orasida alohida o'rin tutadi. Shu bois da'vo muddatining buzilgan huquqlarni himoya qilishdagi protsessual muddatlardan farqlarini izohlang.*

#### 4-mavzu. MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIY HUQUQLAR

---

*Mulk huquqi tushunchasi va mazmuni. Ashyoviy huquqlar. Mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari.*

Mulk huquqi tushunchasi FKning 164-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi ash-yoviy huquqning barcha alomatlariga ega bo'lib, muddatsiz hisoblanadi.


Mulk huquqi mutlaq (absolyut) huquqdir, chunki bunday huquqiy munosabatda huquqdor shaxsga (mulkdorga) har biri mulkdorning huquqlarini buzishdan o'zlarini saqlashlari shart bo'lgan burchli (mulkdor bo'lmagan) shaxslarning nomuayyan doirasi qarshi turadi. Mulkdorga tegishli bo'lgan ash-yoni egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishda uning manfaatini qondirish, agar mulkdor o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etish va boshqalarning unga har qanday ta'sir ko'rsatishidan chegaralash mumkin bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ushbu manfaatni qondirish vositasi sifatida xizmat qiluvchi subyektiv mulk huquqi boshqa shaxslardan unga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishda to'sqinlik qiladigan harakatlarni bajarishdan o'zlarini saqlashlarini talab qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ta'kidlanadiki, "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi".

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlaridir.

Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo'lishi mumkin.

Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ash-yolar, shu jumladan, binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xomashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va

boshqa mol-mulk, shuningdek, intellektual mulk obyektlari **mulk** bo'lishi mumkin.



Muayyan shaxslarda ma'lum mol-mulkka mulk huquqining vujudga kelishi huquq yaratuvchi faktlar orqali ham, subyektlarning harakatlari, kishilarning irodasiga bog'liq bo'lmagan hodisalar ro'y berishi orqali ham sodir bo'lishi mumkin. Mazkur huquq yaratuvchi yuridik faktlar mulk huquqi paydo bo'lishining asoslari (titullari) deb nomlanadi. Mulk huquqi ikki xil usul, ya'ni dastlabki va hosilaviy usullar yordamida qo'lga kiritiladi. Mulk huquqining dastlabki usulda qo'lga kiritilishida, sotib oluvchining huquqlari va majburiyatlari qonun tomonidan belgilanadi, hosilaviy usulda esa sobiq mulkdorning irodasi, huquqlari va majburiyatlari, taraflarning o'zaro roziligi va davlat organlarining dalolatnomalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Dastlabki (boshlang'ich) usulda ashyoga nisbatan mulk huquqi yo yangidan yaratiladi yoki dastlabki eganing erkiga bog'liq bo'lmaydi.

Mulk huquqini bunday qo'lga kiritish usullariga yangi ashyoning yaratilishi, o'simlik, hayvonot olami va notirik tabiatning umumiy iste'molga yaroqli obyektlarining yig'im-terimi, mulk huquqiga nisbatan egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddatning o'tishi, egasiz mulkka ega bo'lish kabilar kiradi.

Hosilaviy usullar mazkur shaxs tomonidan mulk huquqining qo'lga kiritilishi dastlabki mulkdorining mulk huquqiga asoslanadigan usullar hisoblanadi. Yuridik shaxsni qayta tashkil etishdagi huquqiy vorislik tartibida tuziladigan mol-mulkni taqsimlash bitimlari asosida mulk huquqining qo'lga kiritilishi mulk huquqini qo'lga kiritishning hosilaviy usullariga taalluqlidir.

Mulk huquqi vujudga kelishining *dastlabki usullariga* quyidagilar kiradi:

- mol-mulkni yaratish va ko'paytirish;
- mehnat faoliyati;
- mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish;
- davlat mol-mulkini xususiylashtirish;
- meros olish;
- egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat;
- hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashyolarni mulkka aylantirish;
- egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi;

- topilmaga egalik huquqini olish;
- qarovsiz hayvonlarga egalik huquqini olish;
- xazinaga egalik huquqini olish.

Mulk huquqi vujudga kelishining *hosila usullariga* quyidagilar kiradi:

- bitim bo'yicha mol-mulkni olish;
- sudning qarori.


FKga muvofiq mulkning ikki shakli mavjud: xususiy va ommaviy mulk (FK, 167-modda).

**Xususiy mulk.** Bugungi kunda xususiy mulk huquqi fuqarolar va davlatga qarashli bo'lmagan (nodavlat) yuridik shaxslarning mulk huquqini o'zida aks ettiradi. Xususiy mulk huquqining subyektlari, ya'ni fuqarolar va nodavlat yuridik shaxslar o'z xohishlariga ko'ra va o'z manfaatlari yo'lida, o'zlariga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, mulk huquqining har qanday buzilishini, ular kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, bartaraf qilishni talab etishga haqlidir.

Xususiy mulk egaligida mavjud bo'lgan mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Xususiy mulk subyekti sifatida har qaysi fuqaro, ham shaxsiy tarzda, ham umumiy ulushli mulk asoslarida xususiy mulk subyekti sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Fuqarolarning xususiy mulki ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlar, mehnat qilish huquqini boshqa xil tarzda tasarruf etish, tadbirkorlik faoliyati, o'z xo'jaligini yuritish va kredit muassasalariga, aksiyalarga va boshqa xil qimmatli qog'ozlarga sarmoya qilingan vositalardan olingan daromadlar, mulkni meros huquqi bo'yicha qo'lga kiritish va qonunga xilof bo'lmagan boshqa asoslar hisobiga yaratiladi va ko'paytiriladi.

Fuqarolar xususiy mulk huquqining obyektlariga yer uchastkalari, turar joy uylari, xonadonlar, dala hovlilar, garajlar, uy-ro'zg'or ashyolari, shaxsiy iste'mol ashyolari, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, shuningdek, korxonalar hamda ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan boshqa xil mulkiy majmualar, binolar, inshootlar, transport vositalari va ishlab chiqarishning boshqa vositalari tan olinadi. Mol-mulkning miqdori va qiymati, agarda u mulk sifatida qonun yoki shartnomaga muvofiq olingan bo'lsa, cheklanmaydi.

## Xususiy mulk huquqini himoya qilish usullari



**Ommaviy mulk.** Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat (ya'ni ommaviy-huquqiy tuzilma) yuridik shaxslar va fuqarolar kabi mustaqil huquq subyekti hisoblanadi. Davlat nafaqat ommaviy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida, balki ommaviy mulkdan foydalangan holda, o'z ixtiyorida xo'jalik yuritish subyekti bo'lish imkoniyatini saqlaydi.

Ommaviy mulkka nisbatan FKning 213-moddasi qo'llangan taqdirda, mazkur normaning qoidalari ommaviy mulk subyektlarining ko'p sonliligi to'g'risidagi qoidani mustahkamlaydi va mazkur mulk subyektlari sifatida bevosita O'zbekiston Respublikasi (respublika mulkini tashkil etuvchi mulkka nisbatan) va uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (munitsipal tuman, shahar mulkini tashkil etuvchi mulkka nisbatan) chiqadi. Ular mulkiy muomalada tegishli davlat tuzilmasi nomidan chiqadi hamda o'zlarining mutasaddiligiga muvofiq tarzda ommaviy mulkdorning u yoki bu vakolatlarini amalga oshiradi.

FKning 214-moddasi birinchi qismida respublika mulki obyekti sifatida tasarruf etiladigan mulk obyektlarining ro'yxati keltirilgan.

**Ashyoviy huquqlar.** Mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar nafaqat mulkdorlarga, balki fuqarolik muomalasining boshqa shaxslariga ham tegishli bo'lishi mumkin, shuning uchun ular "cheklangan ashyoviy huquqlar" deb nomlanadi. Cheklangan ashyoviy huquqlar har doim mulk huquqining hosilasi bo'lib, ular kamroq huquqlar hajmi bilan farq qiladi. Mulkdor cheklangan ashyoviy huquqlar amal qilish vaqtida mol-mulkka nisbatan mulk huquqini saqlab qoladi, lekin u yo vaqtincha yoki muddatsiz yo-xud muayyan darajada ushbu huquqni amalga oshirishda o'zini cheklab qo'yadi. Demak, cheklangan ashyoviy huquqlar mavjudligi mulkdor huquqlarining o'ziga xos cheklanishidir.

Cheklangan ashyoviy huquqlarning ro'yxati FKning 165-moddasi birinchi qismida keltirilgan bo'lib, unga:

- xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi;
- meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi;
- yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi;
- servitut kiradi.


Cheklangan ashyoviy huquqlar qonun, shartnoma, ashyoviy huquq tegishli bo'lgan tomonning bir taraflama harakati, sud qarori asosida, xususiy alomatli ashyoning nobud yoki yo'q bo'lishi, bir shaxsning o'zida cheklangan ashyoviy mulk mulkdori va obyektiga to'g'ri kelishi, shunday huquqlar foydasiga o'rnatilgan shaxsning o'limi yoki yuridik shaxs tugatilishi sababli to'xtatilishi mumkin.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo'lgan mol-mulk ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi.

FKning 216-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq umumiy mulkning ikki xil: *ulushli* va *birgalikdagi* turlari farqlanadi. Har bir ishtirokchining ulushi belgilangan mulk ulushi bo'ladi, demakki, ulushlar belgilanmagan mulk birgalikdagi hisoblanadi.


Umumiy birgalikdagi mulk o'z vazifasini o'zgartirmagan holda taqsimlanishi mumkin bo'lmagan (bo'linmaydigan ashyolar) yoki qonunga ko'ra taqsimlanishi mumkin bo'lmagan mol-mulk ikki yoki undan ortiq shaxs mulkiga o'tgan paytda vujudga keladi.

FK umumiy ulushli va umumiy birgalikdagi mulkning ta'rifiga ham, vujudga kelish asoslariga ham turlicha yondashadi. Umumiy ulushli mulkning vujudga kelish asoslari to'la-to'kis aniqlanmagan. U qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan holatlarda ham, taraflarning kelishuvi, sudning qarorida nazarda tutilgan holatlarda ham, shuningdek, umumiy ulushli mulk paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan boshqa vaziyatlar ta'sirida ham vujudga kelishi mumkin.



Sherik mulkdorlar ulushlarining miqdori nafaqat umumiy mulkka egalik qilish va undan foydalanishda, hosil, mahsulot va daromadlarni taqsimlashda, balki uni saqlab turish, asrash xarajatlarini qoplashda ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Har bir

sharik mulkdor o'z ulushiga mutanosib ravishda umumiy mulkni saqlash bo'yicha xarajatlarda ishtirok etishi shart.




**Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni fuqarolik-huquqiy himoya qilish** – bu huquqlarga qarshi qilingan buzilishlarni bartaraf etish, mulkdorning mulkiy manfaatlarini tiklash va himoya qilishga qaratilgan fuqarolik qonunchiligida belgilangan vositalar yig'indisidir.

Mulk huquqining uchinchi shaxslar tomonidan buzilishining xarakteri va mazmuniga qarab mulk huquqini himoya qilish turli usullarga turkumlanadi.

Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- *mulk huquqini ashyoviy huquqlar bilan himoya qilish;*
- *majburiyat-huquqiy usullar bilan himoya qilish;*
- *fuqarolik huquqining turli institutlari bilan himoya qilish;*
- *mulk huquqining bekor bo'lishini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda himoya qilish.*



### **Nazorat uchun savollar:**

---

*1. Mulk huquqi majburiyat huquqi bilan birga, fuqarolik huquqining kichik sohalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mulk huquqi va majburiyat huquqining o'zaro nisbati va mulk huquqining fuqarolik huquqida tutgan o'rnini tahlil qiling.*

*2. Mol-mulkka nisbatan foydalanish elementining egalik qilish elementidan alohida holda mustaqil ifodalanish holatini tahlil qiling.*

## 5-mavzu. MAJBURIYAT HUQUQI

---

*Majburiyat va majburiyat huquqi tushunchalari, majburiyat-larning vujudga kelish asoslari. Majburiyat subyektlari. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi. Regress (qaytarma) majburiyat.*

Fuqarolik huquqining eng muhim kichik sohalaridan biri majburiyat huquqi hisoblanadi. Majburiyat deb shunday fuqarolik huquqi munosabatga aytiladiki, unga asosan, bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Majburiyat huquqi subyektlari, obyektlari va uning mazmuni majburiyatning eng muhim elementi hisoblanadi. Majburiyat huquqi subyektlari bu muayyan huquqlarga ega bo'lgan va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklangan shaxslardir. Odatda, har bir majburiyatda kamida ikki taraf ishtirok etadi. Muayyan harakat qilinishi va muayyan harakatdan tiyilishni talab qilishga haqli bo'lgan taraf – kreditor (haqdor) deb ataladi. Muayyan harakatni qilishga yoki harakat qilishdan saqlanishga majbur bo'lgan taraf esa qarzdor (burchdor) shaxs hisoblanadi.

***Majburiyat huquqi*** – mol-mulkni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish yoki pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik-huquqiy normalar yig'indisidir.

Majburiyat huquqi tizimi ikki asosiy bo'limdan, ya'ni majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar va majburiyatlarning alohida turlariga oid maxsus qoidalardan iboratdir.


*Shartnomaviy majburiyatlarga* oid huquqiy institutlar, asosan, shartnomaviy munosabatlardan vujudga keladi va uning asosiy xususiyati majburiyat taraflarining erk-irodasini namoyon etish orqali yuzaga keladi.

*Shartnomasiz majburiyatlar* shaxsning erk-irodasidan tashqarida yuz beradi yoki bir taraflama harakat natijasida kelib chiqadi.

**Majburiyat mazmuni** deganda, kreditorning qarzdor tomonidan muayyan harakatlar qilinishi (yoki qilinmasligi)ni talab etishga boʻlgan huquqi va qarzdorning shunga yarasha boʻlgan burchi tushuniladi.

Majburiyat taraflarining bir-birlariga nisbatan belgilangan huquq va majburiyatlari ularning tusiga qarab farqlanadi. Ular mazmuni, obyektlari va subyektlariga qarab quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. *Ijobiy va salbiy mazmunli majburiyatlar;*
2. *Bir taraflama va ikki taraflama majburiyatlar;*
3. *Muayyan harakatni bajarishga qaratilgan va muqobil majburiyatlar;*
4. *Shaxsiy tusga ega boʻlgan majburiyatlar va shaxsiy tusga ega boʻlmagan majburiyatlar.*



Majburiyatda qatnashuvchi taraflarning biri majburiyat bajarilishini talab qiluvchi subyekt – kreditor, ikkinchisi, yaʼni majburiyatni bajaruvchi subyekt – qarzdor deb ataladi. Majburiyat aynan ushbu ikki subyektning oʻzaro munosabatidan vujudga keladi. Shu sababli ular majburiyat munosabatlarining asosiy subyekt sifatida eʼtirof etiladi.

Majburiyatda qarzdor va kreditor boʻlib ishtirok etuvchilar, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega boʻla oladigan shaxslar boʻlishlari kerak. Majburiyatga oid munosabatlarda kreditor va qarzdor sifatida fuqarolar, yuridik shaxslar, shuningdek, baʼzi hollarda davlat ham subyekt boʻlib ishtirok etishi mumkin.

Odatda, har bir majburiyatda ikki taraf – kreditor va qarzdor qatnashadi. Ammo baʼzi hollarda majburiyatda kreditor yoki qarzdor tarafida yoxud har ikki tarafda ham bir necha shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlar *koʻp shaxsli majburiyatlar* hisoblanadi. *Masalan, bir mol-mulk ikki shaxs tomonidan sotib olinganida sotuvchi huzurida uning summasini toʻlash yuzasidan qarzdor tomonidan ikki shaxs qatnashadi.*

Koʻp shaxslar ishtirok etgan majburiyatlar *ulushli va sherikli* majburiyatlarga boʻlinadi.

Ulushli majburiyatlarda qatnashuvchi kreditorlarning har biri qarzdordan tegishli ulushining bajarilishini talab qilish huquqiga ega boʻlsa, ulushli qarzdorlardan har biri oʻziga tegishli ulushni bajarishga majbur boʻladi.

Sherikli majburiyatga asosan, kreditor majburiyatning toʻla hajmda bajarilishini sherik qarzdorlarning har qaysisidan majburiyatning butunlay bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida berilgan taʼrifga koʻra, sherikli majburiyatlarda qatnashuvchilar sifatida qarzdor bitta-yu, kreditorlar bir necha boʻlishi yoki bir necha kreditor va bir necha qarzdor boʻlishi mumkin.

Sheriklik asosida majburiyat olganlar – sherik qarzdorlar boʻlsa, sheriklik asosida talab qilish huquqiga ega boʻlganlar – sherik kreditorlar deb ataladi.

Kreditorning oʻzgarishi majburiyatga oid huquqiy munosabatlarda muayyan subyektlar oʻrtasida vujudga keladi. Majburiyatni bajarishda ishtirok etayotgan taraflar oʻrinlarini boshqa shaxs bilan almashinishlariga qonun boʻyicha yoʻl qoʻyiladi. Majburiyatda qatnashuvchi kreditor ham, qarzdor ham boshqa shaxslar bilan almashinishlari mumkin.

Kreditorning almashinishi deb, majburiyatda ishtirok etayotgan kreditor oʻz oʻrnini boshqa shaxs bilan almashinishiga aytiladi. Kreditorning talab qilish huquqining boshqa shaxsga oʻtkazilishiga, agar bu qonun yoki shartnomaga zid boʻlmasagina yoki talab kreditorning shaxsi bilan bogʻliq boʻlmasagina yoʻl

qo'yiladi. Fuqarolik huquq nazariyasida kreditorning o'zgarishi "sessiya", sobiq kreditor esa "sedent" deb nomlanadi. Agar talab kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, masalan, FKning 314-moddasida ko'rsatilganidek, alimentlar va hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talablarning boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

FKning 318-moddasida ko'rsatilishicha, kreditorning majburiyat bo'yicha huquqlari boshqa shaxsga quyidagi hollarda o'tadi:

- 1) kreditor huquqlaridagi universal huquqiy vorislik natijasida;
- 2) kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi sudning qaroriga muvofiq;

- 3) qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat bo'yicha qarzdor bo'lmagan kafil yoki garovga qo'yuvchi tomonidan bajarilishi oqibatida;

- 4) sug'urta holati boshlanishi uchun javobgar bo'lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining sug'urta qiluvchiga subrogatsiyasi (o'tishi) natijasida;

- 5) qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Qarzdorning almashinishiga kelsak, majburiyatda qatnashayotgan qarzdor ham o'z o'rnini boshqa shaxs bilan almashish huquqiga ega. Qarzdor almashinishi tufayli yangi qarzdor majburiyatli bo'lib qolishiga – qarzning (majburiyatning) ko'chirilishi deyiladi.

Qarzdorning o'z qarzini boshqa shaxsga o'tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi (FK, 322-modda). Qarzdor uchun qaysi kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishning farqi yo'q bo'lsa ham, kreditor uchun kim yangi qarzdor bo'lishining ahamiyati bor. Avvalo, kreditorning yangi qarzdorning mulkiy holati, ish qobiliyati hamda majburiyatni bajarishga qodir bo'lish-bo'lmashligi qiziqtiradi. Masalan, yuqori malakali usta ishni bajarishni o'z shogirdiga topshirmoqchi bo'lsa, kreditor ish manfaatlarini ko'zlab, bunga rozi bo'lmashligi ham mumkin. Dastlabki qarzdor boshqa shaxsga majburiyatini o'tkazganida, kreditorga nisbatan majburiyatni bajarishdan butunlay ozod bo'ladi. Uning barcha majburiyati yangi qarzdor zimmasiga o'tadi.


Regress (qaytarma) majburiyat – "*regress*" atamasi ("progress" – "oldinga harakat" atamasiga qarama-qarshi o'laroq) so'zma-so'z tushunilganda, "orqaga harakat, qaytarma" ma'nolarini ifodalaydi. Shu sababli ko'pchilik vaziyatlarda "regress talabi" o'rniga uning

sinonimi boʻlgan “qaytarma talab” atamasi qoʻllaniladi. “Regress” fuqarolik huquqida “qaytarish” tushunchasini, masalan, birov uchun toʻlangan pulni qaytarish toʻgʻrisidagi talabni bildiradi.

**Majburiyatni bajarish** majburiyat institutida muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiyatlarni bajarish deb, qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq, muayyan bir harakatning qilinishi yoki harakatdan saqlanish tushuniladi. Qarzdorning majburiyatni bajarishi – kreditorga ashyoni topshirish, maʼlum ishni bajarish, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash, asossiz olingan mulkni qaytarish muayyan harakatdan saqlanish kabilardan iborat.

Majburiyatlar davlat hujjatlari va shartnomalardan kelib chiqqan boʻlsa, ularda koʻrsatilgan talab va shartlarga muvofiq bajarilishi kerak. Agar qonun hujjatlarida majburiyatni bajarish sharti koʻrsatilmagan boʻlsa, majburiyatlar oʻzaro kelishib qoʻyiladigan talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi zarur. Majburiyatni bajarishda har ikki taraf xoʻjalik aloqalarining rivojlanishini koʻzlab, tejamlilik bilan va oʻzaro hamkorlikda zarur harakatlarni qilishlari talab etiladi.

Majburiyatni bajarish predmeti yuklangan majburiyatning xarakteriga qarab faol harakatni amalga oshirish yoki harakatdan saqlanish hisoblanadi. Odatda, FKda koʻproq faol harakatdan iborat majburiyatlar oʻrin olgan.



Majburiyatni o'z nomidan ijro etuvchi va ijroni qabul qilib oluvchilar majburiyat ijrosining subyekti hisoblanadilar. Ijro subyektlari majburiyat subyektlariga hamma vaqt ham mos kelmasligi mumkin. Majburiyat subyektlari barcha hollarda qarzdor va kreditor bo'ladi. Ijro subyektlari esa ayrim hollarda qarzdorlari uchun majburiyatni bajaruvchi boshqa biror shaxs bo'lishi, kreditor uchun ijroni qabul qiluvchi uchinchi bir shaxs bo'lishi ham mumkin.

FKning 246-moddasiga asosan, agar majburiyatni bajarish joyi qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa va majburiyatning mohiyatidan yoxud ish muomalasi odatlaridan yoinki odatda qo'yiladigan boshqa talablardan anglashilmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

1) ko'chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha mol-mulk turgan joyda;

2) tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha – tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;


3) qarzdorning tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish yuzasidan o'zga majburiyatlari bo'yicha – mol-mulkni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqish paytida bu joy kreditorga ma'lum bo'lgan bo'lsa;

4) pul majburiyati bo'yicha – majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo'lsa, uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o'z yashash joyini yoki joylashgan yerini o'zgartirgan bo'lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo'lsa – ijro bilan bog'liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida;


5) boshqa barcha majburiyatlar bo'yicha – qarzdorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan yerida.

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan chora hisoblanadi. Majburiyat bajarilishini ta'minlashning tabiati shu bilan izohlanadiki, qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasa yoki boshqacha tarzda buzilsa, kreditorida ziyonlarni undirishga bo'lgan huquqdan tashqari majburiyatning obyektini tashkil etgan harakatni qilishga

qarzdorni majbur qiladigan boshqa mulkiy ta'sir choralarining qo'shimcha ravishda tatbiq etilishini talab qilish huquqi vujudga keladi.




*Neustoyka* majburiyat huquqiy munosabatlar tizimida ta'minlovchi va qoplash funksiyasini bajaradi. Neustoyka majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli sifatida toki uning ijrosi buzilgunga qadar amalda bo'ladi.



*Garov* – majburiyat bajarilishini ta'minlashning eng samarali va ishonchli usullaridan biridir.

FKning 264-moddasida ko'rsatilganidek, bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

Garovning mohiyati shundaki, qarzdor kreditorga o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan mol-mulkini beradi. Garovga beriladigan mol-mulk ham qarzdorga, ham boshqa shaxsga tegishli bo'lishi mumkin. O'z mulkini garovga qo'yuvchi shaxs garovga qo'yuvchi deb nomlanadi. Talablari garov bilan ta'minlanadigan kreditor – garovga oluvchidir.



**Ushlab qolish** majburiyatning bajarilishini ta'minlashning yangi usulidir. Ushlab qolish huquqi lotin tilidan ("*jus retentionis*") kelib chiqib, o'zining tub ma'nosiga ko'ra, ushbu fuqarolik-huquqiy kategoriyani ifoda etadi.

FKning 290-moddasiga asosan, qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog'liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to'lash majburiyatlari qarzdor tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda unga tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli.

**Kafillik** shartnomasiga asosan, bir taraf kafil, boshqa shaxs o'z majburiyatlarini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi (FK, 292-modda birinchi qism).

Kafillikning asosiy funksiyasi boshqa ta'minlovchi usullar kabi majburiyat bajarilishini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarishni rag'batlantirmasdan, ehtimoliy yo'qotishlar ro'y berganda kreditorning huquq va manfaatlarini qoplash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kafillik aksessor belgiga ega bo'lib, xususiy huquqiy ta'minlovchi chora sifatida shartnomaviy xarakterni o'zida namoyon etadi. Kafillik qat'iy pullik majburiyatdir.

**Kafolatga** binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra, kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi (FK, 299-modda).

**Zakat** shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnomaning tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan beradigan pul summasidir.

Zakat to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuzilishi kerak. Mazkur talabga rioya qilinmasligi oqibatida, unda bu to'langan

summa, shartnoma bo'yicha berilishi lozim bo'lgan to'lovlar hisobiga, bo'nak sifatida to'langan deb hisoblanadi.

**Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik.** Majburiyat yuzasidan qarzdor bo'lgan shaxs uni butunlay bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, majburiyatni bajarish yuzasidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanib, bu hol majburiyat buzilganligidan dalolat beradi. Ya'ni majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi.

**Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik** majburiyatni bajarmagan qarzdor zimmasiga zararlarni, neustoykani kreditor foydasiga to'lash vazifasini yuklashdan iboratdir. Yuridik javobgarlik shartlariga ko'ra, odatda, majburiyatni buzganlik uchun qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining javobgarlikka tortilishi uchun quyidagi to'rtta asos bo'lishi ko'rsatilgan:


*birinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik;*

*ikkinchidan, zarar yetkazilishi;*

*uchinchidan, huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik bilan yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi;*

*to'rtinchidan, qarzdorning yoki zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lishi.*

Majburiyat bajarilmaganligi uchun qarzdorning javobgarligini belgilaydigan shart sifatida ko'riladigan ayb qonunda nazarda tutilgan. Jumladan, FKning 333-moddasida ko'rsatilganidek, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki uni lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi.



*Majburiyatning bekor bo'lishi* vujudga kelgan yuridik fakt tufayli majburiyat ishtirokchilari huquq va burchlarining bekor bo'lishidir.

Majburiyatlarning bekor bo'lish asoslari turkumlanganda, ularning oqibatlari bo'yicha normal bekor bo'lish asoslari (bunda majburiyat ijro etiladi yoxud kreditor manfaatlari muayyan tarzda qanoatlantiriladi – hisobga o'tkazish, voz kechish haqini to'lash, majburiyat yangilanishi bilan bekor bo'lishi) va normal bo'lmagan holatlar bo'yicha majburiyatlarning bekor bo'lishi asoslari (majburiyatni bajarish mumkin bo'lmaganligi munosabati bilan bekor bo'lishi, fuqaroning vafot etishi, yuridik shaxs tugatilishi, tadbirkorlik subyekting bankrotligi orqali bekor bo'lishi va umidsiz qarz sifatida baholanadigan boshqa holatlar bo'yicha bekor bo'lishi) farqlanadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, majburiyat quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- 1) majburiyatning bajarilishi bilan;
- 2) voz kechish haqini berish bilan;
- 3) hisobga o'tkazish bilan;
- 4) talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan;
- 5) qarzdor va kreditor bir shaxs bo'lib qolishi bilan;
- 6) majburiyat yangilanishi bilan;
- 7) qarzdan voz kechish bilan;
- 8) bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli;
- 9) davlat organi hujjati asosida;
- 10) fuqaroning vafot etishi bilan;
- 11) yuridik shaxs tugatilishi bilan.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. *Fuqarolik huquqining asosiy institutlari hisoblangan mulk huquqi va majburiyat huquqi institutlarining o'zaro bog'liqligi va nisbatini tahlil qiling.*

2. *Kreditorning solidar qarzdorlarga nisbatan talabini amalga oshirish shakli va qarzdorlarning qarshi talabini ta'minlashning o'ziga xosligi va ushbu munosabatlarning huquqiy "kombinat-siyalari" bo'yicha mushohada yuriting.*

## 6-mavzu. SHARTNOMA (UMUMIY QOIDALAR)

---

*Shartnoma tushunchasi va uning bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyati. Shartnomalarning turlari. Shartnomaning mazmuni. Shartnoma tuzish. Shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish. Elektron shartnomalar mohiyati, tuzish xususiyatlari, mazmuni va ularni bajarish masalalari.*

Shartnoma huquqiy tartibga solish vositalari ichida eng universal, demokratik vosita hisoblanadi. Shartnomalar orqali huquqiy munosabat tartibga solinganda, undagi barcha ishtirokchilarning manfaati eng ko'p darajada ta'minlangan bo'ladi. Odatda, har qanday shartnoma ixtiyoriylik asosida vujudga keladi va shartnomalarda huquq va majburiyatlarni belgilashda mulkiy manfaatlar va shaxsiy ne'matlarni taqsimlashda o'ziga xos muvozanat, uyg'unlik o'z aksini topadi.

Shartnoma erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Buning ma'nosi shundan iboratki, hech kim ularni shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi.

**Shartnoma** ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvdir.

Shartnoma atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biror-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) o'zaro kelishuvini aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlatiladi. Bu o'rinda u o'zining birinchi ma'nosi – yuridik fakt sifatida ko'riladi va o'rganiladi.

Yuridik harakatlar, o'z navbatida, huquq yo'l qo'ygan harakatlar sifatida bir taraflama va ikki taraflama bitimlar (shartnomalar)dan iboratligi ko'rsatilgan edi. Ikki taraflama bitimlarning hammasi (oldi-sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Shartnoma tushunchasidagi asosiy belgi va shart – tarafdarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat

bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalar, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinossenariylar va boshqa shartnomalar uchun xarakterlidir.

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o‘rtasida huquq va majburiyatlarning o‘zaro taqsimlanishiga qarab *bir taraflama*, *ikki taraflama* va *ko‘p taraflama* shartnomalarga bo‘linadi.

Bir taraflama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo‘lib, hech qanday majburiyat bo‘lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo‘ladi. *Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o‘z vaqtida qarz beruvchiga to‘lash majburiyatiga va kreditor esa uni talab qilish huquqiga ega.*

Ikki taraflama shartnomada esa har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo‘ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin.

Ko‘p taraflama shartnomalar ham mavjud bo‘lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo‘ladi. Bunday shartlarda bir paytning o‘zida har bir tarafda muayyan huquq va majburiyatlar bo‘lishi xarakterlidir. Masalan, franshizing, lizing shartnomalari.

Shartnomalar *haq baravariga* va *tekinga* tuziladigan shartnomalarga bo‘linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalar bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan haq oladi. Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay, biror-bir mulkni topshirish, biror ishni bajarishi mumkin.


Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab *konsensual* va *real* shartnomalarga bo‘linadi.

Konsensual shartnomalarda huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgan zahoti tuzilgan hisoblanadi hamda taraflarda huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Shu paytdan boshlab taraflar shartnoma ijrosini bir-biridan talab qilishga haqli. “Konsensual” so‘zi lotincha “*konsensus*” so‘zidan olingan bo‘lib, “kelishuv” ma‘nosini bildiradi. *Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat ko‘pchilik shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.*

Real shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar taraflar o‘zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.

“Real” so‘zi lotincha “res” so‘zidan olingan bo‘lib, “ashyo” ma‘nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, tekin foydalanish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin.

Shartnomalar, shuningdek, ommaviy shartnoma, qo‘shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma kabi turlarga ham bo‘linadi.



Shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlari) tashkil etadi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning tuzilishi FKning 354-moddasida ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi. *Birinchi davr* – shartnoma tuzishga taklif qilish davri; bu oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa oferent deb ataladi.

*Ikkinchi davr* – shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklifni qabul qilish davri; bu aksept, taklifni qabul qiluvchi akseptant deb atiladi.

Shartnoma tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364–381-moddalarida berilgan. Bu qoidalarda aytilishicha, agar shartnoma tuzish to‘g‘risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlab qilingan bo‘lsa, bu holda shartnoma ikkinchi taraf (aksep-

tant) tomonidan taklifning qabul qilinganligi to'g'risidagi javob shu muddat ichida taklif qiluvchi (oferent) tomonidan olingan holdagina tuzilgan hisoblanadi. Oferta yo'llagan shaxs uning akseptini olgan paytdan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma tuzish haqidagi taklif (oferta) akseptantga bildirilgunicha chaqirib olinishi mumkin. Biroq u akseptant tomonidan qabul qilib olingan bo'lsa, akseptlash uchun belgilangan muddat davomida chaqirib olinishi mumkin emas.

Oferta muayyan shaxsga ham, nomuayyan shaxslarga ham qaratilishi mumkin. *Masalan, mahsulotni reklama qilish, o'z xizmatini taklif etib e'lon berish – nomuayyan shaxslar doirasida yo'llangan oferta hisoblanadi. Bunday oferta, odatda, ommaviy oferta deb ham yuritiladi.*

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi. Aksept to'liq va pisandasiz bo'lmog'i shart. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo'yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo'lmaydi.

Umumiy qoida bo'yicha shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq, o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Agar shartnomada muayyan vaziyatda shartnoma shartlarini bir tarafdama o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi shart mavjud bo'lsa, bu holda shunday vaziyat yuz bergan taqdirda shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'l qo'yiladi. Masalan, agar shartnoma bo'yicha to'lovlar muntazam kechiktirilsa, mahsulot yetkazib beruvchi akkreditiv orqali hisob-kitoblar joriy etishga haqli deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, bu holda amalda sotib oluvchi tomonidan yetkazib berilgan tovarlar uchun to'lovning muntazam ravishda kechiktirilishi mahsulot yetkazib beruvchi uchun shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga asos bo'ladi yoki shartnomada muayyan muddat ichida buyurtmachiga xizmat ko'rsatilmashligi shartnomaning bekor bo'lishiga olib kelishi belgilab qo'yilgan bo'lsa, bu holda o'sha majburiyatni bajarmashligi tegishli tarafga shartnomani bir tomonlama bekor qilishga asos bo'ladi.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollardagina o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- 1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;

2) Fuqarolik kodeksi, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Garchi FKda belgilanmagan bo'lsa ham, taraflardan tashqari vakolatli davlat organlari (masalan, qonun talablariga rioya etilmagan taqdirda prokuratura organlari, g'irrom raqobat bo'yicha kelishuv mavjud bo'lsa, raqobat qonunchiligiga ko'ra monopoliyaga qarshi organ, voyaga yetmaganlar manfaati qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi) amalda shartnoma shartlarini sud orqali o'zgartirish yoki bekor qilishni sud tartibida amalga oshirishlari mumkin.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, agar shartnoma shartlari uchinchi shaxslar manfaatlariga daxl qilsa, uchinchi shaxslar tomonidan ham shartnoma shartlarini o'zgartirish yo bekor qilish bo'yicha sudga talab qilinishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

*1. Ko'p hollarda bitim va shartnoma tushunchasi bir xil hisoblanadi hamda shartnoma tushunchasi o'rnida – bitim, bitim tushunchasi o'rnida – shartnoma tushunchasi qo'llaniladi. Mazkur holatlarning qaysi biri huquqiy jihatdan asosli ekanligini muhokama qiling.*

*2. Shartnomalar tuzish erkinligi tamoyili va FKning 377-moddasida belgilangan majburiy tartibda shartnoma tuzish qoidalarining nisbatini tahlil qiling.*

## 7-mavzu. OLDI-SOTDI SHARTNOMASI VA UNING ALOHIDA TURLARI

---

*Oldi-sotdi, oldi-sotdi shartnomasi. Oldi-sotdi shartnomasining mazmuni. Shartnoma predmeti. Shartnomaning tovar haqidagi sharti. Tovarining kamchiliklari. Oldi-sotdi shartnomasida baho. Oldi-sotdi shartnomasining turlari.*

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va buning uchun belgilangan pul summasini (bahosini) to'lash majburiyatini oladi (FK, 386-modda birinch qism).

Ushbu shartnomaning boshqa o'xshash shartnomalardan ajratib turuvchi huquqiy belgilari mavjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

*birinchidan*, oldi-sotdi shartnomasi haq baravariga tuziladigan (pulli) shartnoma hisoblanadi. Bunda har doim sotuvchi topshiradigan mol-mulk (tovar) evaziga sotib oluvchi muayyan miqdorda pul (so'm, valyuta) bilan belgilangan haq to'laydi;

*ikkinchidan*, oldi-sotdi shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub. Boshqacha aytganda, bu shartnoma bo'yicha taraflar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar shartnomaning barcha muhim shartlari to'g'risida o'zaro kelishilgan va shartnoma tegishli shaklda rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab vujudga keladi;

*uchinchidan*, shartnoma munosabatlari tarkibiga ko'ra, u ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. FKda shartnomaga berilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ushbu shartnomada ikki taraf – sotuvchi va sotib oluvchi qatnashadi hamda har ikkala taraf ma'lum huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi: sotuvchi ashyoni topshirish burchini va buning uchun haq olish huquqini oladi, oluvchi esa ashyo (tovar) qiymatini to'lashi lozim va sotilgan ashyoning o'ziga topshirilishini talab qilish huquqini oladi.

Oldi-sotdi shartnomasining shakliga nisbatan bitimlarning shakli haqidagi qoidalar (FK, 108–112-moddalar), shuningdek, shartnomaning shakli haqidagi qoidalar (FK, 336-modda) qo'llaniladi. Bunda shartnomaning turi va tovarning o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Oldi-sotdi shartnomasi shaklini belgilashda, birinchidan, fuqarolik muomalasining talablari, ikkinchidan esa oldi-sotdi bitimlari qonuniyligi ustidan nazorat qilish

zarurati, bunday munosabatlarda jamiyat manfaatlari yoxud ayrim shaxslar manfaati himoyasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq holatlar belgilovchi omil hisoblanadi. Masalan, naqd pul hisobiga amalga oshiriladigan chakana savdoda tarafdorga qulaylik tug'dirish uchun oldi-sotdi shartnomasini maxsus rasmiylashtirish talab etilmaydi. Naqd pul baravariga tuziladigan va tuzilish vaqtining o'zidayoq ijro etiladigan oldi-sotdi shartnomasi, umumiy qoida bo'yicha summasidan qat'i nazar, og'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Binobarin, savdo do'konlarida, bozorlarda tuziladigan oldi-sotdi shartnomalari tovarlarning xaridorlarga darhol topshirilgani va shu ondayoq haq to'langani sababli og'zaki rasmiylashtirilishi mumkin.

Ko'chmas mol-mulk, shu jumladan, turar-joylar oldi-sotdisi, avtomobillar, ov, o'qotar qurollari va sh.k. predmetlar oldi-sotdisi ustidan nazorat o'rnatish ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu sababli ham bunday shartnomalar yozma tuzilishi, notarial guvohlantirilishi, maxsus davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi. Bunday hollarda shartnoma tegishli shaklda rasmiylashtirilmasligi uning haqiqiy sanalmasligi yoki qonunda belgilangan boshqa oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday talablar tashqi savdo bitimlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Oldi-sotdi shartnomasida taraflar sotuvchi va xaridor hisoblanadi. Bunda taraflar sifatida fuqarolar va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Ayni vaqtda muayyan hollarda shartnomada taraf sifatida davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasi yuqorida ko'rsatilgan subyektlar o'rtasida, shuningdek, o'zaro tuzilishi mumkin. Shartnomada taraf sifatida fuqaro qatnashganda u muomala layoqatiga ega bo'lishi shart. Binobarin, voyaga yetgan, ya'ni 18 yoshga to'lgan va qonunda belgilangan tartibda muomala layoqati cheklanmagan har qanday shaxs shartnomada taraf sifatida ishtirok eta oladi. Ayni vaqtda qonun muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz fuqarolarning ham oldi-sotdi shartnomasida taraf sifatida qatnashish holatlarini nazarda tutadi. Masalan, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar mayda maishiy bitimlar tuzishga, masalan, kichik summada tovarlar sotish yoki sotib olishga (muzqaymoq, chanqovbosdi ichimliklar, qalam, daftar, havo sharlari kabi) haqli (FK, 29-modda ikkinchi qism 1-band). O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga

yetmaganlar o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlari hisobiga tovarlar sotib olish yoxud ularni sotishga haqli (FK, 27-modda ikkinchi qism 1-band).

FKning 22-moddasi ikkinchi qismi va 28-moddada belgilangan tartibda to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar ham oldi-sotdi shartnomasida summasidan qat'i nazar, to'la huquqli taraf sifatida qatnasha oladilar. Spirtli ichimliklar yoxud narkotik moddalar suiiste'mol qilganligi sababli muomala layoqati cheklangan shaxslar ham mustaqil ravishda mayda maishiy bitimlar tuza oladilar (FK, 31-modda). Bunday shaxslar, shuningdek, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar yirik summadagi oldi-sotdi shartnomalarini faqat homiysi, ota-onalari yoki farzandlikka oluvchilar roziligi bilangina tuza oladilar.

Odatda, shartnomada sotuvchi sifatida qatnashayotgan shaxsga sotilayotgan ashyo mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi, biroq ayrim hollarda sotuvchi sotilayotgan tovarning mulkdori bo'lmasligi ham mumkin. U holda sotuvchining tovarni sotishga bo'lgan huquqi qonun yoki shartnoma asosida vujudga kelgan bo'lishi lozim (masalan, davlat korxonasi tomonidan unga xo'jalik yuritish huquqi asosida birlashtirib qo'yilgan tovarni sotishi yoxud vositachilik (komission) do'konlarida tovarlarni sotish).

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha erkin sur'atda boshqa shaxslarga berilishi mumkin bo'lgan, fuqarolik muomalasidan tashqari chiqarilmagan har qanday ashyolar tovar bo'lishi mumkin.

Fuqarolik muomalasidan chiqarilgan obyektlar oldi-sotdi predmeti bo'la olmaydi. Sotilishi hamda sotib olinishi mumkin bo'lmagan korxonalar va mol-mulk turlari hamda guruhlarining ro'yxati "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilgan. Bunga davlatga mutlaq mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan obyektlar, moddiy madaniy meros obyektlari, O'zbekiston Respublikasining davlat zaxiralari, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, qabriston kabi obyektlar kiradi. Ayrim obyektlar fuqarolik muomalasida cheklangan harakatda bo'ladi. Ularni maxsus ruxsat olish asosida sotib olish yoki sotish mumkin. Masalan, kuchli narkotik dorilar faqat maxsus retsept asosida ro'yxatda qayd etib sotiladi.

Tovar sifatidagi ashyolar xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar yoxud jismaniy alomatlari bilan belgilangan ashyolar yoki ko'chmas mol-mulk bo'lishi mumkin.

Qonun oldi-sotdi shartnomasi predmeti doirasiga ashyolar, valyuta qimmatliklari, qimmatli qog'ozlar bilan birga mulkiy huquqlarni ham kiritadi. Boshqacha aytganda, FKning oldi-sotdi shartnomasi to'g'risidagi umumiy qoidalari normalari mulkiy huquqlarni sotishga nisbatan ham qo'llaniladi, agarda ushbu huquqlar mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha holat kelib chiqmasa (FK, 386-modda beshinchi qism). Amaliyotda ba'zi mulkiy huquqlarni haq evaziga boshqa shaxsga o'tkazish holatlari uchraydi. Ular orasida keng tarqalgani intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni sotish hisoblanadi. Ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan mutlaq huquqlarni sotish mumkin. Agar mutlaq huquq patent orqali rasmiylashtirilgan bo'lsa, bunday oldi-sotdi vakolatli davlat idorasida (Intellektual mulk agentligida) rasmiylashtirilishi lozim. Mualliflik mutlaq huquqlari oldi-sotdi shartnomasini esa yozma tuzish shart (notarial rasmiylashtirish maqsadga muvofiq).

Oldi-sotdi shartnomasi, agar qonunda boshqacha hol belgilangan bo'lmasa yoki u tovarning xususiyatidan kelib chiqmasa, shartnomani tuzish paytida sotuvchida mavjud bo'lgan tovarni, shuningdek, kelajakda sotuvchi yaratadigan yoki oladigan tovarni olish-sotish haqida ham tuzilishi mumkin.

Shartnomaning tovar haqidagi sharti uning asosiy va muhim sharti hisoblanadi, busiz shartnoma mavjud bo'la olmaydi. Agar shartnoma tovarning nomi va miqdorini aniqlash imkonini bersa, tovar to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasining sharti kelishilgan hisoblanadi.

Oldi-sotdi shartnomasida baho xaridor tomonidan sotib olinayotgan tovar uchun sotuvchiga to'lanadigan ma'lum miqdordagi pul summasidir. Agarda xaridor olinayotgan tovar evaziga sotuvchiga pul emas, balki ashyoni topshirsa yoxud ma'lum xizmat ko'rsatishni, ish bajarishni o'z ustiga olsa yoxud tekin olish nazarda tutilgan bo'lsa, u holda olish-sotish hisoblanmaydi.

Oldi-sotdi shartnomasida tovarning bahosi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlari belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (tariflar, rassenkalar, stavkalar va h.k.) qo'llaniladi (FK, 356-modda ikkinchi qism). Masalan, ayrim turdagi tovarlar faqat bir yoki cheklangan doiradagi bir necha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilishi va bu korxonalar o'zla-

rining bunday ustun, monopol mavqeyidan foydalanib, tovarlar bahosini belgilashda suiisteʼmolliklar qilishi mumkin.

Toʻlovni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan harakatlar-ni amalga oshirish xaridor hisobidan amalga oshiriladi (FK, 418-modda birinchi qism). Masalan, pulni pochta orqali yuborish, sotuvchining bank hisobraqamiga oʻtkazish xarajatlari kabi.

Tovarning bahosi uning ogʻirligiga qarab belgilanadigan boʻlsa, agar shartnomada boshqacha holat belgilanmagan boʻlsa, u sof ogʻirligi (netto) boʻyicha aniqlanishi lozim, bunda tovarning idish yoki oʻrov holdagi ogʻirligi (brutto) asos boʻlib hisoblanmaydi.

Agar oldi-sotdi shartnomasida tovarning bahosi uni belgilaydigan koʻrsatkichlar (tannarx xarajatlar kabi)ga qarab oʻzgartirilishi lozimligi nazarda tutilgan boʻlsa, ammo shu bilan birga, bahoni qayta koʻrib chiqish usuli belgilangan boʻlmasa, baho ushbu koʻrsatkichlarning shartnoma tuzilgan va tovarni topshirish paytidagi oʻzaro nisbatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi yanvar oyida tuzildi, tovar xaridorga may oyida topshirildi. Mana shu vaqt oraligʻida tovarning bahosi 20 foizga qimmatlashdi. Binobarin, bunday holda birlamchi baho va oxirgi baho oʻrtasidagi nisbat hisobga olinmogʻi lozim.

Sotuvchi tovarni topshirish majburiyatini kechiktirib yuborganida baho tovarni shartnoma boʻyicha topshirish lozim boʻlgan vaqtidagi baho boʻyicha toʻlanadi.

Shartnoma tuzilgandan keyin bahoni oʻzgartirishga qonun hujjatlari, shartnomada nazarda tutilgan holatlarda va shartlarda yoʻl qoʻyiladi.

Baho haqida kelishuv shartnomaning muhim shartidir. Bunday kelishuvga erishilmaganda shartnoma tuzilmagan hisoblanadi. Baho nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari boʻyicha belgilanishi mumkin boʻlmagan hollarda baho xuddi tovarlar uchun toʻlanadigan narxlar boʻyicha belgilanadi. Ushbu qoida FKning 356-moddasi uchinchi qismi mazmunidan kelib chiqadi. Mazkur hollarda garchi shartnomada baho haqida kelishuv mavjud boʻlmasa ham, taraflar bundan kelishuvga erishgani haqidagi prezumpsiya amal qiladi.

Oldi-sotdi shartnomasini ijro etish muddati taraflarning oʻz majburiyatlarini amalga oshirish vaqti bilan belgilanadi. Bunday muddat qonun hujjatlarida yoxud taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Oldi-sotdi shartnomasining mazmunini taraflarning huquq va burchlari tashkil etadi.

Sotuvchining asosiy burchi va huquqi sotilgan ashyoni shartnomaga muvofiq oluvchining ixtiyoriga topshirishdan va buning uchun tegishli haqni olishdan iborat.

Oluvchining asosiy huquqi va burchi sotilgan tovarni qabul qilib olish va buning uchun belgilangan haqni to'lashdan, agar sotilgan tovar o'ziga shartnoma shartlariga muvofiq topshirilmagan bo'lsa, uni o'ziga topshirishni talab qilishdan iborat bo'ladi.

Oldi-sotdi shartnomasini ijro etish yuzasidan qilinadigan harakatlarni, ya'ni tovarni topshirish va haqini to'lash, agar qonun yoki shartnomada boshqacha holat belgilanmagan bo'lsa, darhol amalga oshirish lozim. FKning 419-moddasi birinchi qismiga asosan, sotib oluvchi tovar haqini sotuvchi tomonidan ushbu tovarni yoki ushbu tovarni tasarruf qilish hujjatlarini berganidan so'ng kechiktirmasdan to'lashi lozim.

Sotuvchi sotilgan mol-mulkni (tovarni) to topshirguncha saqlashi shart.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotuvchi tovarni sotib oluvchiga mulk sifatida topshirishi shartnoma real ijrosining belgisi ekanligi sababli sotib oluvchi qachondan boshlab sotilgan tovarga nisbatan mulkdor bo'lib hisoblanishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu masalani to'g'ri hal etish qator huquqiy oqibatlar bilan bog'liq, jumladan, tovarning tasodifan shikastlanishi yoki nobud bo'lish xavf-xatari kimning zimmasiga tushadi, sotilayotgan tovarga nisbatan u yoki bu taraf kreditorlarining haq undirish haqidagi talablariga qaratish mumkin yoki mumkin emasligi, xaridorga ushbu mol-mulkka nisbatan egallash, foydalanish, tasarruf qilish bo'yicha vakolatlarni real amalga oshirish imkoniyatlari vujudga kelishi mana shunday holatlardan hisoblanadi.

Masalan, V. ismli shaxs D. ismli shaxsdan yengil mashina sotib oldi. Shartnoma tuzilib, notarial guvohlantirildi, DANda ro'yxatdan o'tkazildi. Shartnoma bo'yicha V. shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kunning ertasiga D.ga pulni to'lab, mashinani olib ketishi kerak edi. Biroq o'sha kuni tunda garajga yashin tushib, mashina yonib ketdi. Savol tug'iladi: V.D.ga pulni to'lashi kerakmi yoki yo'q? Bu masalaning yechimi mashina yongan vaqtda kimning mulki ekanligi bilan bog'liq.

FKning 185-moddasiga muvofiq, shartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi agar qonunda yoki shartnomada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Agar bunday shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi yoxud notarial tasdiqlanishi kerak bo'lsa, tegishli harakat sodir etilgandan boshlab, agar shartnomani ham notarial tasdiqlash, ham davlat ro'yxatidan o'tkazish zarur bo'lganida esa ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Sotib oluvchi zimmasidagi asosiy majburiyat tovar haqini qonun yoki shartnomaga muvofiq muddatda va miqdorda to'lash hisoblanadi. Umumiy qoida bo'yicha sotib oluvchi sotuvchi unga tovarni yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlarini berganidan so'ng uning haqini kechiktirmay to'lashi lozim. Agarda shartnomada haqni bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lmasa, haq tovarning to'liq bahosi miqdorida to'lanishi lozim. Agar haq to'lash sotib oluvchi tomonidan kechiktirilsa, sotuvchi kechiktirilgan davr uchun foizlar talab qilishga haqli. FKning 420-moddasida tovar haqini oldindan to'lash, 421-moddada nasiyaga sotilgan tovarlar haqini to'lash, 422-moddada esa tovar haqini bo'lib-bo'lib to'lash qoidalari va tartibi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida sotib oluvchiga sotib olgan tovar unga topshirilishi bilan mulk huquqi o'tishi aytib o'tilgan edi. Qonunda yoki shartnomada ushbu umumiy qoidadan istisnolar nazarda tutilishi mumkin. Masalan, tovar xaridorga topshirilmadan unga nisbatan mulk huquqi vujudga kelishi mumkin. Ba'zan esa buning aksi bo'lishi ham mumkin. Masalan, tovar nasiyaga sotilganda yoxud uning haqi bo'lib-bo'lib to'lanishi hollarida tovar haqi to'langunga qadar garchi tovar xaridorga topshirilgan bo'lsa ham, mulk huquqi sotuvchida saqlanib qolishi mumkin. Bunday hollarda agarda tovarning vazifasidan yoki uning xususiyatlaridan kelib chiqmasa, xaridor mulk huquqi o'ziga o'tguncha tovarni birovga berishga yoki boshqacha tarzda tasarruf qilishga haqli emas (FK, 424-modda).

Oldi-sotdi shartnomasida qatnashuvchi har ikki taraf qonun yoki shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgardir.

Sotuvchi quyidagi holatlarda sotib oluvchi oldida javobgardir:

a) sotilgan tovarni topshirmasa yoki topshirishni kechiktirsa;

b) sotilayotgan tovarda uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi haqida xaridorni ogohlantirmasa;

d) sotilayotgan tovar miqdori, assortimenti haqidagi shartlarni buzsa yoki sifatsiz tovar sotsa.

Sotib oluvchi ham, o'z navbatida, sotuvchi oldida quyidagi holalarda javobgar bo'ladi:

a) sotilgan tovar uchun haqni to'lamasa yoki to'lashni kechiktirsa;

b) sotilgan tovarni o'z vaqtida qabul qilib olmasa yoxud qabul qilib olishni kechiktirsa.

Taraflar yuqoridagi holatlardan biri sodir bo'lishiga yo'l qo'ygan hollarda ularga nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari qo'llanadi. Bunday choralar majburiyatni bajarish va zararni qoplash, shartnomadan bir taraflama bosh tortish va zararni qoplash ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Umumiy qoida bo'yicha sotuvchi sotib oluvchiga sotilayotgan tovarning kamchiliklari haqida ogohlantirishi lozim.

Sotuvchi sotib oluvchiga sifati oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarni topshirishi shart. Bunday shartlar shartnomada ko'rsatilmaganida esa tovar sifati belgilangan maqsadlar uchun yaroqli bo'lishi lozim. Tovar namunasi yoki ta'rifi bo'yicha (reklama bo'yicha) sotilganda, tovar sifati namuna yoki ta'rifga mos kelishi zarur.

Tovarlarning sifati talab darajasida bo'lishi mezonlari bo'lib tovarning kafolat muddati va tovarning yaroqlilik muddati hisoblanadi.

Tovar sifatining kafolati uning mavjud talablariga javob berishi va oqilona muddat davomida belgilangan maqsadlar uchun yaroqli bo'lishini anglatadi. Umumiy qoida bo'yicha kafolat muddati tovar sotib oluvchiga topshirilgan paytdan o'ta boshlaydi. Agar sotib oluvchi sotuvchiga bog'liq bo'lgan holatlar tufayli (masalan, yoriqnoma yoki texnik pasportni topshirmagani sababli) tovardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, kafolat muddati o'tishi to'xtab turadi. Tovar (butlovchi buyum) almashtirilganda, kafolat muddati yangidan o'ta boshlaydi (FK, 404-modda).

Qonun hujjatlarida, shu jumladan, davlat standartlarida tovar o'z vazifasi bo'yicha foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qoladi, deb hisoblanadigan vaqt (yaroqlilik muddati) belgilanishi mumkin.

Tovarning yaroqlilik muddati tovar tayyorlangan kundan boshlab foydalanish uchun yaroqli bo'lgan davr bilan yoki tovar foydalanish uchun yaroqliligi aniqlanadigan son bilan belgilanadi. Yaroqlilik muddati tugagan tovardan foydalanish inson hayoti, sog'lig'i uchun xavf tug'diradi. Shu sababli ham bunday tovarlarni sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada tovarning sifatini tekshirish nazarda tutilgan bo'lsa, tekshirish ularda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi, davlat standartlarida, texnik shartlarda va sh.k.da majburiy talablar belgilangan bo'lsa, tovar sifati ulardagi ko'rsatmalarga muvofiq ravishda tekshirilishi lozim. Tekshirish sotuvchi tomonidan ham, xaridor tomonidan ham, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan ham o'tkazilishi mumkin, biroq bunda tekshirish shartlari o'zgarmasligi lozim.

Shu bilan birga, sotib oluvchi taraf shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ham egadir. Tovar uchun to'langan pul summasini sotib oluvchiga qaytarish vaqtida sotuvchi undan tovardan to'liq yoki qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shuncha summani chegirib qolishga haqli emas. Sotib oluvchiga sifati lozim darajada bo'lmagan tovar sotilganda, uning sotuvchiga nisbatan qanday talablar qo'yishga haqli ekanligi, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan huquqlar muqobil bo'lib, sotib oluvchi ulardan o'zi uchun ma'qulini tanlaydi.

Sotib oluvchi tovardagi kamchiliklar tovar unga topshirilgunga qadar paydo bo'lganligi yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli vujudga kelganligini isbotlab berishi lozim.

Qonunda topshirilgan tovarning kamchiliklarini aniqlash muddatlari ham belgilab qo'yilgan. Kamchilik yoki nuqson ushbu muddatlar davomida aniqlansa, xaridor tegishli talab bilan sotuvchiga da'vo qilishga haqli bo'ladi. Bular: qonunda yoki oldisotdi shartnomasida belgilab qo'yilgan yoxud kafolat muddati yoki tovarning yaroqlilik muddati bilan belgilanadi.

Kamchiliklar oqilona muddatda, biroq tovar sotib oluvchiga topshirilgan kundan boshlab ikki yil davomida aniqlanganida ham (agar yuqoridagi muddatlar belgilanmagan bo'lsa) sotib oluvchi sotuvchiga talab qo'yishga haqli.

Tovarning kamchiliklari sotib oluvchi tomonidan kafolat muddati yoki yaroqlilik muddati tugaganidan keyin aniqlangan hol-

larda sotib oluvchi bu kamchiliklar tovar unga topshirilgunga qadar paydo bo'lganligini yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli paydo bo'lganligini isbot qilib bergan hollarda javobgarlik sotuvchi zimmasiga yuklanadi.

*FKda oldi-sotdi shartnomasining quyidagi turlari farqlanadi:*

- chakana oldi-sotdi;
- ulgurji oldi-sotdi;
- mahsulot yetkazib berish;
- tovarlar yetkazib berish to'g'risidagi davlat kontrakti;
- kontraktatsiya;
- energiya ta'minoti;
- ko'chmas mulkni sotish;
- korxonani sotish.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

1. *Fuqarolik huquqida shartnomaning bahosi qanday shart hisoblanishi borasida turli xildagi qoidalar belgilangan. Shu nuqtayi nazardan oldi-sotdi shartnomasining bahosi mazkur shartnoma uchun qanday shart hisoblanishi va uning amalda qanday qo'llanilishini ifodalang.*

2. *Oldi-sotdi shartnomasida tovarning sifati va miqdori, butligi, idish va o'rami muhim shartlardan hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda tovarning sifati va miqdori, butligi, idish va o'rami borasida umumiy normalar belgilangan. Biroq huquqni qo'llash amaliyotida va tadbirkorlik ish muomalasida bu borada bir qator o'ziga xos holatlar uchraydi. Ushbu holatlarni izohlang.*

3. *Bugungi kunda chakana oldi-sotdi shartnomasi nafaqat FK, balki bir qator qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Amaldagi qonunchilik bilan chakana oldi-sotdi munosabatlarining tartibga solinishi (bozor va yarmarka qoidalari)ni tavsiflang.*

4. *Chakana oldi-sotdi shartnomasida tovarni sotishning bir qator usullari qo'llaniladi. Mazkur usullarni tavsiflang, ular o'rtasida o'xshash va farqli jihatlarni yoritng.*

## **8-mavzu. AYIRBOSHLASH SHARTNOMASI. HADYA SHARTNOMASI. UMRBOD TA'MINLASH SHARTI BILAN UY-JOY (KVARTIRA)NI BOSHQA SHAXSGA BERISH SHARTNOMASI**

---

*Ayirboshlash. Barter. Ayirboshlash shartnomasi mazmuni. Hadya. Hadya shartnomasi. Hadya shartnomasi mazmuni. Hadya va'da qilinganida huquqiy vorislik. Xayr-ehson.*

**Ayirboshlash shartnomasi.** Ayirboshlash tovar va pul munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyotida ham muayyan ahamiyatga ega. Shu boisdan u amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida o'zining huquqiy asoslarini topgan. Ayirboshlash *barter* deb ham yuritiladi.

Ayirboshlash deb shunday shartnomaga aytiladiki, unga ko'ra, shartnomada qatnashuvchi har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi (FK, 497-modda). Uning mohiyati shundaki, shartnoma predmeti bo'lgan biron-bir tovar ikkinchi tarafga, odatdagidek, mazkur tovar qiymatining umumiy ekvivalenti bo'lgan yoki unga deyarli teng keladigan boshqa bir tovarga ayirboshlanadi. Demak, mazkur huquqiy munosabat odatdagi shartnomalar, aytaylik, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish kabi shartnomalarga o'xshab, taraflarga bu orqali kelishi mumkin bo'lgan muayyan pul summalariga talab-ehtijojlardan kelib chiqmay, balki bevosita mazkur shartnomaning predmeti bo'lgan tovarga bo'lgan ehtijojlardan kelib chiqadi. Biroq bu shartnoma ko'p hollarda subyektlar o'rtasida hisob-kitoblar yo'lga qo'yilmagan yoki o'zaro ishonch bo'lmagan inflyatsiya sharoitida keng qo'llaniladigan shartnomalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan bozor tizimida u ahyon-ahyonda qo'llaniladi.

Shartnomaning yana bir xususiyati shundaki, shartnomaning mazmunidan boshqacha hol anglashilmasa, ayirboshlanayotgan tovarlar teng qiymatli deb taxmin qilinadi. Ayni paytda tovarni topshirish va uni qabul qilish xarajatlarini, har bir holda tegishli majburiyatlarni bajaradigan taraf amalga oshiradi. Shubhasiz, boshqa shartnomalarda bo'lgani singari ayirboshlashda ham uning predmeti hisoblangan tovarning bahosi muayyan ahamiyatga ega. Ba'zan amaliyotda ayirboshlash predmetining qiymati bir xil bo'lmaydi.

Bunday hollarda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo'lgan tovarni topshirayotgan taraf, agar shartnomada haq to'lashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, tovar yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlari topshirilgandan so'ng kechiktirmasdan baholardagi farqni to'lashi lozim bo'ladi. FKning 242-moddasiga ko'ra, agar qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, qarzdor hisoblangan taraf bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Ayrim hollarda tovarlar o'rtasidagi yuqorida tilga olingan farq doimo aniq belgilanavermaydi. Fuqarolik qonunchiligining mazmunidan anglashilishicha, bunday hollarda shartnomani bajarganlik uchun xuddi shunga o'xshash vaziyatlarda, odatda, shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baholar – haq to'lanishi kerak. Aynan bunday hollarda ish muomalasi odatlari, ya'ni odat huquqi normalari qo'llaniladi (FKning 6-moddasi tartibida).

Ayirboshlash shartnomasi quyidagi huquqiy belgilari bilan xarakterlidir: konsensual, haq evaziga tuziladigan, ikki tarafdama shartnomalardir.

Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha tarafalar:

ayirboshlanayotgan tovarni o'z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilib olish;

qabul qilingan tovar evaziga ayirboshlanishi lozim bo'lgan tovarni o'z vaqtida topshirish;

topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti, yaxshi bo'lishini ta'minlash kabi majburiyatlarga egadirlar.

**Hadya shartnomasi.** Hadya deb shunday shartnomaga aytiladiki, unga ko'ra bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi) beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoyinki ozod qilish majburiyatini oladi (FK, 502-modda). Hadyaning mohiyati shundaki, bunda mulk tekin topshiriladi, ya'ni hadya qiluvchining tasarrufida bo'lgan ashyo hadya oluvchiga mol-mulk qilib o'tkaziladi.

Hadya bir tarafdama, real, tekinga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Shubhasiz, hadya bir tarafdama bitim bo'lib, tarafdaming o'zaro kelishuviga asoslanadi. U hadya oluvchining taklif qilingan mul-

kiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalanadi, aynan shu belgisi bilan hadya qarz shartnomasidan farq qiladi.

Hadya shartnomasining *predmeti* fuqarolik muomalasidagi obyektlar: ashyolar, mulkiy huquqlar, ko'char va ko'chmas mulklar bo'lishi mumkin.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Umumiy holda hadya qilish, ya'ni hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha hadyani topshirish, uni taqdim qilish ramziy topshirish (masalan, yangi kvartira yoki avtomobil kalitini topshirish) yoki mulkiy huquqni guvohlantiruvchi biron-bir hujjatni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'char mulklar bo'yicha quyidagi hollarda hadya shartnomasi oddiy yozma shaklda tuziladi:

hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;

fuqarolar o'rtasida eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganda;

shartnoma bo'yicha kelajakda hadya qilish va'da qilingan hollarda.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Shartnomada qatnashuvchi taraflar hadya qiluvchi va hadya oluvchi deb atalib, o'z navbatida, ular fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat bo'lishi mumkin. Hadya fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma bo'lgani bois hadya qiluvchi va hadya oluvchi muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Ba'zan muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuzadilar.

Hadya bekor qilingan hollarda ashyo hadya qiluvchiga, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatida saqlanib qolgan bo'lsa, qaytarilishi lozim. Hadya oluvchining hadyadan olgan daromadlari uning o'z tasarrufida qoladi. Agar ashyo uchinchi shaxslarga o'tkazilgan bo'lsa, uni qaytarishning imkoni bo'lmaydi. Bordi-yu, hadya qiluvchi hadya oluvchining hadyani qaytarib bermaslik uchun uchinchi shaxslarga o'tkazganligini isbotlasa, u hadya oluvchiga nisbatan da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladi. Agar ashyo taraflarning o'zaro kelishuvi asosida hadya qiluvchiga qaytarilgudek bo'lsa, bunday kelishuvni yangidan tuzilgan hadya deb tushunish mumkin.

Hadya tekinga tuziladigan shartnoma bo'lgani bois hadya oluvchi topshirilayotgan mulkning sifatsizligi haqidagi talablarni qo'yishga haqli emas. Albatta, topshirilayotgan ashyo sifatsiz, but-siz, uning kamchiliklari bo'lishi mumkin, biroq bu hadya oluvchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kerak. Bunday hollarda hadya qiluvchining bu haqda hadya oluvchini ogohlantirgani isbot qilinishi talab etiladi.

Mazkur shartnomaning o'ziga xos jihatlardan biri bu hadya va'da qilinganda huquqiy vorislikdir. FK 510-moddasining mazmuniga ko'ra, hadya shartnomasiga muvofiq, hadya va'da qilinganda hadya oluvchining huquqlari uning merosxo'rlari (huquqiy vorislari)ga o'tmaydi, hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari esa uning merosxo'rlari (huquqiy vorislari)ga o'tadi. Demak, hadya qilishda hadya beruvchining va'dasi muayyan huquqiy ahamiyatga ega, ya'ni u kelgusida fuqarolik huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi.

Xayr-ehson hadyaning bir ko'rinishi bo'lib, bunda qilinadigan hadya umumfoydali maqsadlarga xizmat qilishi bilan xarakterlidir. Demak, xayr-ehson keng ommaning umumfoydali maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi. Qonunchilik xayr-ehson, asosan, notijorat subyektlariga (davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, xayriya, ilmiy va o'quv muassasalariga, fondlarga, muzeylarga, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlarga va boshqa shunga o'xshash subyektlarga), shuningdek, fuqarolarga va davlatga qilinishi mumkinligini normalaydi. Xayr-ehson qilingan mol-mulk kelgusida uni qabul qilib olgan shaxsning mablag'lari jumlasiga kiradi, uning operativ boshqaruviga o'tadi.

Xayr-ehsonning *predmeti* fuqarolik muomalasida bo'lgan obyektlar, ya'ni pullar, qimmatli qog'ozlar, mol-mulklar, ashyolar, binolar, inshootlar (ularning bir qismi), avtomobillar va hokazolar bo'lishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning (ya'ni uchinchi shaxsning) ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi.

FKning 511-moddasi mazmuniga ko'ra, xayr-ehson qilingan mulkdan ko'rsatilgan maqsadda foydalanmaslik kelgusida xayr-ehson qiluvchiga, uning merosxo'rlariga yoki boshqa huquqiy vorisiga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.


**Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi)ni, kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi.** Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi)ni, kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi uy-joy mulkdori bo'lgan kek-

salar (nogironlar) bilan uy-joyi boʻlmagan yoshlar manfaatini uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu shartnoma keksalarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlarni keksalarga gʻamxoʻrlik qilgan holda uy-joyga ega boʻlish imkoniyatini taʼminlaydi.

Umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi)ni, kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasiga muvofiq, bir taraf (oluvchi) yoshi yoki sogʻligʻi tufayli mehnatga layoqatsiz boʻlgan boshqa taraf (boshqa shaxsga beruvchi)ni natura holida (uy-joy berish, ovqatlantirish, parvarishlash va zarur yordam koʻrsatish tarzida) umrbod moddiy taʼminlash majburiyatini oladi, boshqa shaxsga beruvchi esa oluvchiga uy-joy (uyning bir qismi)ni, kvartirani mulk qilib berish majburiyatini oladi (FK, 530-modda).

Umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi)ni, kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi taraflari boʻlib faqat fuqarolar ishtirok etadi.

FK 530-moddasida koʻrsatilishicha, umrbod taʼminlash sharti bilan topshiriladigan mol-mulk faqat koʻchmas mulkning bir turi boʻlgan uy-joy (uyning bir qismi), kvartira hisoblanadi. Bunda uyning bir qismi shartnoma predmeti sifatida berilishi mumkin. Uy-joy kodeksining 9-moddasiga koʻra, fuqarolarning doimiy yashashiga moʻljallangan, belgilangan sanitariya, yongʻinga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar sifatida foydalanishga moʻljallangan joylar turar joy hisoblanadi.



Qonunda umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasining muhim sharti jumlasiga taqdim qilinadigan moddiy ta'minot turi, ularning pul bilan ifodalangan bir oylik bahosi, shuningdek, uy-joy (uyning bir qismi), kvartiraning qiymatini belgilab beradi.

Qonunda umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi umrbod renta shartnomasidan farqli ravishda beriladigan moddiy ta'minotning eng kam miqdorini belgilab bermaydi. Biroq beriladigan moddiy ta'minotning bir oylik miqdorini belgilash talab qilinadi. Ushbu qoida shartnomada "zaif taraf" hisoblangan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga beruvchining manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi hamda u qonunda belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdori oshirilishi munosabati bilan o'ziga beriladigan ta'minot miqdorini tegishlicha ko'paytirishni talab qilishiga imkon yaratadi. Haqiqatan ham, shartnomada taqdim qilinadigan moddiy ta'minotni ko'paytirish yoki kamaytirish haqida shart nazarda tutilishi mumkin.

Uy-joylarni tasarruf etish bilan bog'liq boshqa bitimlar kabi umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi ham yozma shaklda tuzilishi va notarial tasdiqlanishi lozim (FK, 488, 497, 504-moddalar). Bundan tashqari, FK 84 va 111-moddalari talabiga ko'ra, mazkur shartnoma uy-joy (uyning bir qismi), kvartira joylashgan hududdagi yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr xizmatida ro'y-xatdan o'tkazilishi lozim. Ko'rsatib o'tilgan talablarga rioya qilmaslik umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasini haqiqiy bo'lmasligini keltirib chiqaradi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga beruvchi uchun muhim kafolat bo'lib, uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani oluvchi – uy-joy mulkdorining tasarruf qilish huquqining cheklanishi hisoblanadi. Ta'minot beruvchi ko'rsatib o'tilgan uy-joyga nisbatan huquqlar chegaralanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan uy-joyni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlar (oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash)ni tuza olmaydi. Ushbu imperativ norma shartnoma xususiyatidan kelib chiqadi. Tegishlicha, uy-joyni oluvchi hatto ta'minot oluvchining

roziligi bilan ham ushbu bitimlarni tuzishga haqli emas. Bundan tashqari, qonun umrbod ta'minlash sharti bilan berilgan uy-joy (uyning bir qismi), kvartiraga nisbatan oluvchining qarzlari bo'yicha undirish qaratilishini taqiqlaydi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi bo'yicha oluvchining majburiyatlari va uy-joyning tasodifan nobud bo'lishi yoki shikastlangan hollarda ham saqlanib qoladi. Chunki uy-joyning mulkdori bo'lib uy-joyni oluvchi hisoblanadi va uning zimmasida mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi, shikastlanishi, shuningdek, kelgusida majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq xavf-xatarlar bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, qonun umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi bo'yicha ta'minot oluvchi hayotlik davrida uy-joyni boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Bu shartnomaning xususiyatidan kelib chiqadi va uy-joyni beruvchining manfaatlariga mos keladi.

Shu bilan birga, ta'minot beruvchi (uy-joyni oluvchi) vafot etgan hollarda uy-joy uning vorislariga o'tadi. Tegishlicha, umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi bo'yicha majburiyatlar ham o'tadi. Ushbu qoida bir tomondan uy-joy beruvchining manfaatlarini himoyalaydi, chunki u (oluvchi vafot etgan bo'lsa ham) moddiy ta'minot olishni davom ettiradi, boshqa tarafdin esa shartnoma bo'yicha taraf sifatida yangi shaxs kirib keladi, uy-joyni beruvchi u haqda tasavvurga ega bo'lmasligi hamda bu holat uning manfaatlariga mos kelmasligi ham mumkin. Umuman olganda, FKning 534-moddasi qoidalari moddiy ta'minot olishga muhtoj bo'lgan uy-joyni beruvchining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Uy-joy oluvchining vorislari bir nechta bo'lsa, ular o'zlarining merosdagi ulushlariga mutanosib ravishda majburiyatlarni bajaradilar. Ulardan birontasi merosdan voz kechgan taqdirda, uning majburiyatlari boshqa merosxo'rlarga o'tadi.

Uy-joy oluvchining vorislari bo'lmasa yoki ular merosni qabul qilishdan voz kechganlarida oluvchiga berilgan uy-joy (uyning bir qismi), kvartira uni boshqa shaxsga beruvchiga qaytarilishi lozim.

Umumiy qoidaga koʻra, umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasini oʻzgartirish va bekor qilish taraflar kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Taraflar bunday kelishuvga erisha olmasalar, shartnoma taraflardan birining talabiga koʻra sud tartibida oʻzgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bunda qonun taraflarga shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilishni talab qilish bilan bogʻliq imkoniyatlarni beradi. Ushbu holat umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasining mohiyatidan kelib chiqadi va uning asosiy maqsadi mehnatga layoqatsiz shaxsni umrbod taʼminlash hisoblanadi.

Uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani oluvchi tomonidan shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik hollarida uy-joyini boshqa shaxsga beruvchida ikkita imkoniyat paydo boʻladi va ulardan birini u oʻz xohishiga koʻra tanlaydi. Jumladan, u natura holida beriladigan taʼminotni pul bilan haq toʻlashga almashtirishni talab qilishi mumkin. Qonun shartnoma boʻyicha beriladigan moddiy taʼminotning bir oylik miqdorini koʻrsatishni belgilasa-da, davriy toʻlovlarni toʻlash bilan bogʻliq aniq muddatlarni belgilamaydi. Har qanday holatda ham davriy toʻlovlar umrbod toʻlanishi lozim boʻladi. Uy-joyini boshqa shaxsga beruvchining yana bir imkoniyati bu taʼminotni vaqti-vaqti bilan haq toʻlash tarzida toʻlab turishga almashtirish oʻrniga shartnomani bekor qilishni talab qilishidir.

Qonun umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasini bekor qilishni nafaqat uy-joyini oluvchining shartnoma boʻyicha majburiyatlarni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun uy-joyini boshqa shaxsga beruvchining talabiga koʻra, balki boshqa holatlarda ham shartnoma bekor qilishni nazarda tutadi.

Umrbod taʼminlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi boʻyicha uy-joyini beruvchi sifatida yoshi yoki sogʻligʻi tufayli mehnatga layoqatsiz fuqaro boʻlganligi bois uning keyinchalik sogʻligʻini tiklashi uy-joy oluvchiga shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqini beradi. Ushbu holatda uy-joy beruvchining sogʻligʻini tiklashi natijasida uning oʻzgalarning yordamiga muhtoj boʻlmasligini anglatadi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi bekor qilinishi oqibati shartnomani bekor qilish asoslariga bog'liq bo'ladi.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. Eng qadimiy shartnomalardan biri ayirboshlash shartnomasi hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida esa ayirboshlash shartnomasi yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Ayrim o'rinlarda esa mazkur shartnomaning harakat doirasi va qo'llanilish sohalari chegaralanishiga ham yo'l qo'yiladi. Bugungi kunda ayirboshlash shartnomasi borasidagi qomunchilik hamda undagi cheklanishlar va chegaralanishlarni izohlang.

2. Ayirboshlash shartnomasida qiymati o'rtasidagi farq bo'lgan holatlarda uning bahosi qanday hal qilinadi?

3. Hadya shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilarini tavsiflang.

4. Kichik guruhlarda mustaqil ravishda hadya, xayr-ehson shartnomasini tuzing va o'zaro muhokama qiling.

## 9-mavzu. MULK IJARASI SHARTNOMASI VA UNING ALOHIDA TURLARI. TEKIN FOYDALANISH SHARTNOMASI

---

*Mulk ijarasi shartnomasi. Mol-mulkka vaqtincha egalik qilish va foydalanish. Mol-mulkdan foydalanish. Prokat shartnomasi. Transport vositalari ijarasi shartnomasi. Binolar va inshootlar ijarasi. Korxonani ijaraga berish. Tekin foydalanish shartnomasi.*

**Mulk ijarasi shartnomasi.** Mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.


Umumiy qoidaga ko'ra, mulk ijarasi shartnomasida mol-mulk ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga oluvchiga egalik qilish va foydalanish uchun topshiriladi. Masalan, prokat shartnomasi, transport vositalari ijarasi shartnomasi (FK, 558, 564-moddalar). Shu bilan birga, alohida hollarda ijaraga mol-mulk faqat foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Masalan, binolar va inshootlar ijarasida obyekt ijaraga oluvchiga faqat foydalanishga topshirilishi mumkin (FK, 573-modda).

Mulk ijarasi shartnomasi haq evaziga tuziladi. Mulk ijarasi shartnomasi obyektlari ijaraga oluvchiga haq evaziga topshiriladi. Aks holda, mol-mulkdan tekin foydalanish (FK, 36-bob) yuz beradi.

FKning 537-moddasida mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha topshirilishi mumkin bo'lgan obyektlarning taxminiy ro'yxati keltirilgan. Jumladan, yer uchastkalari, yer osti boyliklari joylashgan uchastkalar va boshqa alohida tabiiy obyektlar, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari. Demak, mulk ijarasi shartnomasining obyekti bo'lib ko'chmas mulk ham, ko'char mulk ham bo'lishi mumkin.

Qonunchilikda mulk ijarasiga berilishi mumkin bo'lmagan yoki cheklangan mol-mulk turlari belgilab qo'yilishi mumkin. Bunday mol-mulklar jumlasiga, avvalo, muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan obyektlar kiradi. Masalan, tabiatdan maxsus yo'sinda foydalanish. Yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni amalga oshirish

uchun tabiiy resurslar haq olib ijaraga berilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, 6-modda).



Mulk ijarasi shartnomasi *og'zaki* va *yozma*, shu jumladan, *notarial tartibda tasdiqlanadigan* shaklda bo'lishi mumkin. Bunda yozma shaklga nisbatan qonunda qo'shimcha talablar, shuningdek, shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir talablar qo'yilishi mumkin. Mulk ijarasi shartnomasining shakli shartnomaning muddati, uning taraflari bo'lib kimlar ishtirok etishi, ijaraga berilayotgan mol-mulkning turi, mol-mulkning taqdiriga doir shartlarga bog'liq bo'ladi.

Mulk ijarasi shartnomasi jismoniy shaxslar o'rtasida og'zaki shaklda faqat bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilishi mumkin. Bunda bitim bahosi ahamiyatga ega emas. Biroq agar mulk ijarasi shartnomasining alohida turlariga nisbatan qonunda yozma shakl belgilangan bo'lsa, u holda jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan bunday mulk ijarasi shartnomasi muddatidan qat'i nazar, og'zaki tuzilishi mumkin emas.

Yuridik shaxslar yoki yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan mulk ijarasi shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Bir yildan ortiq muddatga tuziladigan mulk ijarasi shartnomasi shartnoma taraflari bo'lib kimlar ishtirok etishidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi kerak.

Ko'chmas mulk ijarasi shartnomasi taraflari bo'lib kimlar ishtirok etishidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadi.

Transport vositasi ijarasi shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bunda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan transport vositalari ijarasi shartnomasi notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak (FK, 565-modda). Ushbu normaga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlarga ko'ra, yengil avtomobillar va mototransport vositalarini ijaraga berish bo'yicha xizmat ko'rsatadigan yuridik shaxslar jismoniy shaxslar bilan yengil avtomobillar va mototransport vositalarini o'ttiz kungacha bo'lgan muddatga ijaraga berish shartnomalarini oddiy yozma shaklda tuzishlari mumkin.

Bino yoki inshootni ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolaydigan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi, agar shartnoma muddati bir yildan kam bo'lmagan muddatga tuzilsa, shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ham lozim (FK, 574-modda).

Korxonani ijaraga berish shartnomasi taraflar imzolagan bitta hujjat tarzida yozma shaklda tuziladi va u notarial guvohlantirilishi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim (FK, 580-modda).

Mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha mol-mulk ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish yoki foydalanishga topshirilganligi sababli shartnoma muddati mulk ijarasi shartnomasi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, mulk ijarasi shartnomasi taraflar kelishuviga muvofiq belgilanadigan muddatga tuziladi. Shu bilan birga, qonun ijara muddatini shartnomaning muhim shartlari jumlasiga kiritmaydi. Shu sababli shartnoma uni amal qilish muddatini belgilamagan holda ham tuzilishi mumkin.

Nomuayyan muddatga tuzilgan bino va inshootni ijaraga berish shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinmaydi. Biroq, nazarda tutish lozimki, bir yildan kam muddatga tuzilgan bino va inshootni ijaraga berish shartnomasi bo'yicha taraflarning huquqiy munosabatlari bir yildan ortiq muddatda davom etsa, bunday shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart<sup>1</sup>.

Agar mulk ijarasining muddati shartnomada belgilanmagan bo'lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Bu taraflardan har biriga istagan paytda shartnomadan voz kechish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2011-yil 1-dekabrda qaratilgan "Mulk ijarasi shartnomasiga oid fuqarolik qonun hujjatlari normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 234-son qarori.

huquqini beradi. Faqat taraflar bir-birini bir oy oldin, ko'chmas mulk ijarasida esa uch oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi talab qilinadi. Ko'rsatilgan muddat dispozitiv xususiyatga ega, ya'ni qonun yoki shartnomada ogohlantirishning boshqa muddatlari ham belgilanishi mumkin.

Topshirilayotgan mol-mulkning holati shartnoma shartlariga va mol-mulkning vazifasiga muvofiq bo'lishi lozim. Masalan, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga mulk ijarasi shartnomasida nazarda tutilgandan kamroq quvvatga ega bo'lgan uskunani berishga haqli emas. Yoki bo'lmasa, ishlab chiqarish maqsadi uchun uy joy berilishi mumkin emas.

Mulkni ijaraga berishda qoida tariqasida mol-mulk bilan birgalikda unga mansub ashyolar va unga tegishli hujjatlar ham qo'shib beriladi. Masalan, avtotransport vositasi ijarasi shartnomasi bo'yicha avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan asbob-uskunalar (domkrat, kalit va h.k.) ham taqdim qilinadi. Kir yuvish mashinasi ijaraga berilganda, undan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ham taqdim qilinadi. Shu bilan birga, taraflar shartnomada mol-mulkni unga mansub ashyolar va unga tegishli hujjatlarni bermaslikni ham nazarda tutishlari mumkin.

Ijaraga beruvchi tomonidan ijaraga berilayotgan mol-mulkka tegishli ashyolar va hujjatlarni berish to'g'risidagi talablarni buzishi hamda buning natijasida ijaraga oluvchi ushbu mol-mulkdan foydalana olmasligi ijaraga oluvchi uchun noqulay oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan, ijaraga beruvchi avtomobilni foydalanish uchun ijaraga berib, avtomobilni ro'yxatdan o'tkazilganlik haqidagi guvohnomani bermadi. Ko'rinib turibdiki, ushbu hujjatsiz ijarachi avtomobildan foydalana olmaydi va tegishlicha ijara shartnomasini tuzishda umid qilgan foydani ham ko'ra olmaydi. Bunday hollarda ijaraga oluvchi xohishiga ko'ra, shu jumladan, sud tartibida ham ijaraga olingan mol-mulk uchun kerakli bo'lgan ashyolar hamda hujjatlarni o'ziga berishni yoki shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

Ijaraga beruvchi uchun noqulay oqibatlar, shuningdek, mol-mulkni shartnomada ko'rsatilgan muddatda ijarachiga taqdim qilmagan hollarda ham kelib chiqadi. Mol-mulk ijaraga oluvchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatda, agar shartnomada bunday muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, oqilona muddatda, ya'ni amalga

oshirishning aniq imkonini beradigan muddatda taqdim qilinishi lozim.

Agar mol-mulk ko'rsatilgan muddatda taqdim qilinmasa, u holda ijaraga oluvchi o'z xohishiga asosan, FK 331-moddasida belgilangan qoidaga muvofiq, ijaraga beruvchidan ushbu mol-mulkni berishni talab qilishi yoki shartnomani bekor qilishni so'rab murojaat qilishi mumkin. Har qanday holatda ham ijaraga oluvchi o'ziga yetkazilgan zarar qoplanishini sud tartibida talab qilishi mumkin.

Qonun yoki shartnomaga asosan, mol-mulkka nisbatan boshqa shaxslar huquqlarining mavjud bo'lishi, chunonchi, garov, servitut huquqining mavjudligi mol-mulkning mulkdoriga uni tasarruf qilish, shu jumladan, uni ijaraga berish huquqidan mahrum qilmaydi. Shu bilan birga, mulkni ijaraga berish ko'rsatib o'tilgan uchinchi shaxslarning huquqlarini buzmasligi lozim (FK, 9-modda). Shu munosabat bilan mulk ijaraga berilganda, uchinchi shaxslarning huquqlari to'liq saqlab qolinadi. Masalan, garovga oluvchi hatto garov shartnomasi tuzilgandan so'ng ushbu mol-mulk ijaraga berilgan taqdirda ham belgilangan tartibda undiruvni garovga olingan mol-mulkka qaratishi mumkin.

Ijaraga berilayotgan mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi ijaraga oluvchi manfaatlariga mos kelmasligi mumkin. Shu munosabat bilan qonun ijaraga oluvchi tomonidan shartnoma tuzayotganda, ijaraga oluvchini ushbu mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning barcha huquqlari haqida ogohlantirib qo'yish majburiyatini yuklaydi. Bunday ogohlantirishga oid ma'lumotlarni shartnoma matniga kiritish maqsadga muvofiq. Agar ijaraga oluvchi uchinchi shaxslar huquqlari haqida ogohlantirilgan bo'lmasa, u ijaraga beruvchidan ijaraga olingan mol-mulk uchun to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilish va o'ziga yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilishi mumkin.

**Tekin foydalanish shartnomasi** ssuda shartnomasi deb ham ataladi. Fuqarolik kodeksi qabul qilinguniga qadar bu termin shartli bo'lib, fuqarolik qonunchiligida ko'rib chiqilayotgan munosabatlarga nisbatan qo'llanmas edi. Zamonaviy sharoitda "ssuda" so'zi fuqarolik ishlarida va normativ hujjatlarda, shuningdek, biroz boshqa ma'noda – qarz (jumladan, qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda) so'zining sinonimi sifatida ham keng ishlatiladi.

**Ssuda shartnomasi taraflari** – ssuda beruvchi va ssuda oluvchi. **Ssuda shartnomasi obyeksi** turga xos alomatli ashyodir.

Qonunda ssudaga olingan ashyoning normal deyilishni (holatini) hisobga olib, xuddi shunday holatda yoki shartnomada nazarda tutilgan holatda qaytarilishi kerakligi qayd etilganligini alohida tushuntirish talab etiladi.

Ssuda va ijara shartnomalari alohida olinganda, turga xos alomatli ashyoni vaqtinchalik foydalanishga berishni anglatuvchi o'xshashligi (birinchisi – foyda ko'rish maqsadida, ikkinchisi – tekinga) sababli ssuda shartnomasiga ijara to'g'risidagi qator umumiy qoidalar qo'llaniladi.

FK tekin foydalanish mulk ijarasi to'g'risidagi qator normalar bilan tartibga solinishini nazarda tutadi. Ular o'rtasidagi o'xshashlik salmoqli bo'lishiga qaramay, qator farqlar mavjud. Asosiy farq sifatida ko'pincha birining tekinga tuzilishi, ikkinchisining esa foyda ko'rish maqsadida ekanligi deb ko'riladi.

Mazkur qoida foydalanishga berilayotgan obyektlar (FK, 537-modda), shartnoma muddati (FK, 540-modda), foydalanuvchining huquq va majburiyatlari (FK, 545, 548, 615-moddalar), shartnomani nomuayyan muddatga yangidan tuzilgan deb tan olish imkoniyati (FK, 553-modda), foydalanishga topshirilgan mulkni yaxshilashga ketadigan xarajatlarning taraflar o'rtasida taqsimlanish tartibini (FK, 55-modda) belgilovchi tegishli moddalarni sanab o'tadi.

Ta'kidlash lozimki, uy-joyni tekin foydalanishga berish shartnomasi yozma shaklda tuziladi, bundan uy-joyni yaqin qarindoshlarga (ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari) tekin foydalanishga berish hollari mustasno.

Uy-joyni tekin foydalanishga berish shartnomasiga nisbatan FK 606-moddasining ikkinchi qismida, 607-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 609, 610-moddalarida, 612-moddasining birinchi qismida, 615-moddasining birinchi qismida, uchinchi qismi uchinchi va to'rtinchi xatboshilarida, to'rtinchi va beshinchi qismlarida, 616-moddasida nazarda tutilgan qoidalar qo'llanilishini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Uy-joy kodeksining 88-moddasiga asosan, arendaga oluvchi arendaga beruvchining roziligi bilan arendaga berilgan turar joyni ikkilamchi arendaga (ijaraga) berishga va arenda shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijara), arendaga berilgan turar joyni tekin foydalanishga berishga haqlidir. Bunday hollarda arendaga oluvchi arendaga beruvchi oldida shartnoma bo'yicha javobgar bo'lib qoladi. Qolaversa, tekin foydalanish shartnomasi muddati ijara shartnomasi muddatidan uzoqroq muddatga tuzilishi mumkin emas.

Tekin foydalanish shartnomasi xo'jalik shartnomalaridan biri bo'lmas-da, lekin ayrim sohalarda, masalan, maishiy, ma'rifiy sohalarda, shuningdek, mahalla aholisi o'rtasida, qo'ni-qo'sh-nichilikda ancha muhim rol o'ynaydi. Shartnomaning bu ahamiyati unda ishtirok etishga tomonlar o'rtasida rag'batni oshiradi. Ssuda shartnomasi bo'yicha faqat ikki taraf subyekt sifatida munosabatlarga kirishishi mumkin. FKning 617-moddasiga muvofiq, ssuda shartnomasida taraf sifatida ssuda oluvchi va ssuda beruvchi ishtirok etishi mumkin.

Ssuda oluvchi tomonidan shartnoma predmetida kamchiliklarning aniqlanishi unga uch oqibatdan birini tanlash imkonini beradi. Shu o'rinda ularning birinchisi – ssuda beruvchi tomonidan ashyodagi kamchiliklarning tekin bartaraf etilishini o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra javobgarlik hisoblanmasligini ta'kidlash o'rinli.

Tekin foydalanish shartnomasi qonunda va shartnomada nazarda tutilgan hollarda bekor bo'lishi mumkin. Jumladan, FKning 630-moddasi mazmuniga ko'ra, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ssuda oluvchi fuqaro vafot etgan yoki ssuda oluvchi yuridik shaxs tugatilgan hollarda tekin foydalanish shartnomasi bekor bo'ladi.

Ayni paytda shartnoma muddatidan ilgari tugatilishi, bekor bo'lishi ham mumkin. FKning 627-moddasida shartnomaning muddatidan ilgari bekor bo'lish asoslari keltirilgan bo'lib, ular ssuda beruvchining talabiga ko'ra, quyidagilardir:

agar ssuda oluvchi:

ashyodan shartnomaga yoki ashyoning vazifasiga muvofiq foydalanmasa;

ashyoni soz holda saqlash va uni asrash majburiyatini bajar-masa;

ashyoning holatini ancha yomonlashtirsa;  
ssuda beruvchining roziligisiz ashyoni uchinchi shaxsga bergan bo'lsa.

Agar ssuda oluvchi ashyodan shartnomaga yoki uning vazifasiga nomuvofiq holda foydalanishi yoxud uni ssuda beruvchining roziligisiz uchinchi shaxsga berishi tufayli ashyo nobud bo'lsa yoki buzilsa, tekin foydalanish uchun olingan ashyoning tasodifan nobud bo'lish yoki tasodifan buzilish xavfi ssuda oluvchining zimmasida bo'ladi. Ssuda oluvchi o'z ashyosidan voz kechib, ssudaga berilgan ashyoning nobud bo'lishi yoki buzilishini bar-taraf qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa ham, ashyoning ta-sodifan nobud bo'lish yoki tasodifan buzilish xavfi uning zim-masida bo'ladi.

Ssuda beruvchi ashyodan foydalanish natijasida uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar uchun, basharti bu zarar ssuda oluvchi tomonidan yoki bu ashyo ssuda beruvchining roziligi bilan qo'lga tushib qolgan shaxs tomonidan qasddan yoxud qo'pol ehtiyotsizlik tufayli yetkazilganini yoinki zarar ssuda oluvchining egaligidan ssuda beruvchining roziligisiz chiqib ketgan ashyodan foydalanib yetkazilganini isbot qilmasa, javobgar bo'ladi.

FKdagi ssuda beruvchining ashyoning kamchiliklari uchun kontragent – ssuda oluvchi oldida javobgarligini belgilaydigan 621-moddasidan farqli ravishda ssuda beruvchining uchinchi shaxsga yetkazgan zarariga nisbatan javobgarligini (ilgari fuqa-rolik qonunlarida uchramagan) ko'zda tutadi. Javobgarlikdan ozod qilinish holati zararning ssuda oluvchi yoki ssuda beruvchining roziligi bilan ashyo qo'lga tushib qolgan boshqa shaxs tomonidan qilingan huquqbuzarlik (qasddan yoki qo'pol ehtiyotsizlik tufayli) natijasida keltirilganida bo'ladi. Bu holatni isbotlash burchi ssuda beruvchiga yuklanadi.

Ssuda oluvchi tekin foydalanish uchun olgan ashyoni uchinchi shaxsga foydalanish uchun faqat ssuda beruvchining roziligi bilan va uning oldida mas'ul bo'lib qolgan holda berishga haqli.

Ssuda oluvchi quyidagi hollarda tekin foydalanish shartnoma-sini muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli:

ashyodan normal foydalanishni mumkin bo'lmaydigan yoki qiyin qilib qo'yadigan nuqsonlarni aniqlagan bo'lsa, bu nuqsonlar xususida shartnoma tuzish paytida bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan taqdirda;

agar o'zi javobgar bo'lmagan holatlarga ko'ra ashyo undan foydalanish mumkin bo'lmaydigan holatga kelib qolsa;

agar shartnoma tuzishda ssuda beruvchi uni topshirilayotgan ashyoga nisbatan uchinchi shaxslarning huquqlari to'g'risida ogohlantirmagan bo'lsa;

ssuda beruvchi ashyoni yoki unga mansub ashyolarni va tegishli hujjatlarni berish majburiyatini bajarmasa.

Agar ashyodan tekin foydalanish muddati shartnomada belgilab qo'yilgan bo'lmasa va shartnomada xabar qilishning boshqa muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, har qaysi taraf ikkinchi tarafni bir oy oldin xabardor qilib, shartnomadan xohlagan paytda voz kechishga haqli.

Agar tekin foydalanish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ssuda oluvchi muddati ko'rsatib tuzilgan shartnomadan ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda har qachon voz kechishga haqli.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. Ijaraga beruvchi ijaraga olingan mol-mulkni yoki unga nisbatan bo'lgan huquqlarni garovga qo'yishga haqlimi?

2. Ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkni yoki unga nisbatan bo'lgan huquqlarni xo'jalik jamiyatlari ustav fondiga ulush sifatida kiritishga haqlimi?

3. Bino va inshootlar ijarasi shartnomasini rasmiylashtirish tartibini tushuntirib bering.

4. Transport vositalari ijarasi shartnomasining ijaraning boshqa turlaridan farqlarini izohlang.

5. Mol-mulkni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazish nafaqat haq evaziga, balki tekinga ham amalga oshirilishi mumkin. Bu esa fuqarolik huquqidagi o'ziga xos shartnomaviy-huquqiy konstruksiyani yuzaga keltiradi. Bu konstruksiya haq evaziga tuziladigan shartnomalardan nimasi bilan farq qiladi?

6. Tekin foydalanish shartnomasida ashyoning kamchiliklari tufayli zarar yetkazilganda uni, shu jumladan, boy berilgan foydani qoplash masalasi qanday hal qilinadi?

## 10-mavzu. PUDRAT SHARTNOMASI VA UNING TURLARI

---

*Pudrat shartnomasi. Pudratchi va buyurtmachi. Taraflarning huquq va majburiyatlari. Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi. Smeta. Pudrat shartnomasi bo'yicha javobgarlik. Maishiy pudrat. Qurilish pudrati. Loyiha va qidiruv ishlari pudrati. Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati.*

**Pudrat shartnomasi** bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Pudrat shartnomasi huquqiy belgilariga ko'ra, ikki taraflama, konsensual va haq baravariga tuziladigan shartnoma bo'lib hisoblanadi.

Shartnoma *taraflari*: pudratchi va buyurtmachi. Pudratchi – ishni bajaruvchi, buyurtmachi esa – ish bo'yicha topshiriq beruvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, shartnomada pudratchi tomonidan yordamchi pudratchi ishtirok etishi mumkin. Pudrat shartnomasida ham buyurtmachi, ham pudratchi huquq va majburiyatlarga ega bo'lganligi sababli bir paytning o'zida har ikki taraf ham kreditor, ham qarzdor sifatida majburiyat munosabatlari qatnashadi.

*Predmeti*: moddiy ko'rinishga ega bo'lgan ashyoni yaratish yoki ta'mirlash yoki muayyan ishning natijasi.

Boshqacha aytganda, pudrat shartnomasining predmeti ishning natijasi hisoblanadi. Sababi buyurtmachi va pudratchining harakati bevosita ishning natijasiga erishishga qaratilgandir.

FKning 632-moddasiga asosan, pudrat shartnomasi ashyoni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachining topshirig'ini bajarish usullarini pudratchi mustaqil belgilaydi. Pudratchi o'zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo'lmaganligi uchun, shu-

ningdek, uchinchi shaxslar huquqlari boʻlgan materiallar va uskunalarni berganligi uchun javobgar boʻladi.

*Muddat.* Pudrat shartnomasining muhim shartlaridan biri uning muddatidir. Pudrat shartnomasida ishni bajarishning boshlangʻich va oxirgi muddatlari koʻrsatiladi. Aksariyat hollarda shartnomada ishning yakunlash muddati koʻrsatiladi. Pudratchi mazkur muddatdan kelib chiqqan holda ish bajarishni tashkil etadi. Taraflar oʻrtasidagi kelishuvga muvofiq, shartnomada ishning ayrim bosqichlarini tugallash muddatlari (oraliq muddatlar) ham nazarda tutilishi mumkin. Bu oraliq muddatlar pudratchining muayyan ishning maʼlum bir qismini bajarish va uni topshirishi bilan bogʻliq boʻladi. Pudrat shartnomasida koʻrsatilgan ishni bajarishning boshlangʻich, oxirgi va oraliq muddatlari shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda oʻzgartirilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlangʻich va oxirgi, shuningdek, oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgar boʻladi.

*Bahosi:* pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari koʻrsatiladi. Pudrat shartnomasida baho nazarda tutilmagan boʻlsa, shartnomani bajarganlik uchun oʻxshash vaziyatlarda, odatda, shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho boʻyicha haq toʻlanishi lozim. Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchining chiqimlari va unga toʻlanadigan haqni oʻz ichiga oladi.

Masalan, tikuvchi (pudratchi)ning materialidan kostyum tiktirish va uni tayyorash bilan bogʻliq chiqimlarni ham ishning bahosi tarkibiga kiritishi mumkin. Albatta, bu haqda taraflarning oʻzaro kelishuvi boʻlishini taqozo etadi.

Ishning bahosi smeta tuzish yoʻli bilan aniqlanishi mumkin. Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta boʻyicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega boʻladi va pudrat shartnomasining bir qismi boʻlib qoladi. Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qatʼiy boʻlishi mumkin. Pudrat shartnomasida bunday koʻrsatma boʻlmasa, ishning bahosi (smeta) qatʼiy hisoblanadi. Agar qoʻshimcha ishlarni bajarish zarur boʻlib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini (taxminiy smetani) ancha oshirishga toʻgʻri kelsa, pudratchi bu haqda buyurtmachini vaqtida ogohlantirishi shart. Bu-

yurtmachi pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo'lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismining bahosini to'lashni talab qilishi mumkin. Buyurtmachini pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi ish uchun shartnomada ko'rsatilgan baho bo'yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart. Pudratchi, qoida tariqasida, qat'iy baho (qat'iy smeta)ni oshirishni, buyurtmachi esa uni kamaytirishni talab qilishga, shu jumladan, bajarilishi kerak bo'lgan ishning to'la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo'lmagan hollarda ham haqli emas.

*Taraflarning huquq va majburiyatlari.* Pudrat shartnomasi bo'yicha taraflar o'ziga xos huquq va majburiyatlarga egadir. FKning 632-moddasi talablaridan kelib chiqib, buyurtmachi pudratchining materiallari, uning kuchi va mablag'lari hisobidan bajarilishi nazarda tutilgan bo'lsa, shartnoma bahosini pudratchi sarflayotgan mablag'larni qo'shgan holda shakllantirishni talab qilish huquqiga ega.

Vaziyat taqozosi bilan ishni bajarishda qo'shimcha ishlarni bajarish zarur bo'lib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini (taxminiy smetani) ancha oshirishga to'g'ri kelsa, pudratchi bu haqda buyurtmachini vaqtida ogohlantirishi shart. Buyurtmachi pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo'lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismining bahosini to'lashni talab qilishi mumkin. Buyurtmachini pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi ish uchun shartnomada ko'rsatilgan baho bo'yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart.

FKning 644-moddasiga muvofiq, buyurtmachi pudrat shartnomasi bo'yicha o'zining muqobil majburiyatlarini bajarmaganligi, xususan, material, uskunalar, texnik hujjatlar yoki qayta ishlanishi (ishlov berilishi) kerak bo'lgan ashyoni bermaganligi

puđratchining shartnomani bajarishiga to'sqinlik qilgan hollarda, shuningdek, mazkur majburiyatlar belgilangan muddatda bajarilmasligini yaqqol ko'rsatib turgan holatlar mavjud bo'lganda, puđratchi ishga kirishmaslikka, boshlangan ishni esa to'xtatib qo'yishga haqli. Masalan, buyurtmachi kiyimni tiktirish o'z materialidan tiktirishni shartnomada kelishgan bo'lsa, buyurtmachi materialni puđratchiga taqdim etguniga qadar, ishni bajarish to'xtatib turilishi mumkin. Agar buyurtmachi puđratchining o'z vaqtida va asosli ogohlantirganiga qaramasdan, oqilona muddatda yaroqsiz yoki sifatsiz materialni almashtirmasa, ishni bajarish usuli to'g'risidagi ko'rsatmalarini o'zgartirmasa yoxud ishning yaroqliligi yoki pishiqligini xavf ostiga qo'yadigan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan boshqa choralarni ko'rmasa, puđratchi shartnomani bajarishdan bosh tortishga va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

FKning 637-moddasiga asosan, puđratchining amaldagi xarajatlari ish bahosini aniqlash vaqtida (smeta tuzilayotganda) nazarda tutilgan xarajatlardan kam bo'lgan hollarda, basharti buyurtmachi puđratchining tejami bajarilgan ish sifatiga ta'sir etganligini isbotlay olmasa, puđratchi ishlar uchun puđrat shartnomasida ko'rsatilgan baho bo'yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Puđrat shartnomasida puđratchining tejami taraflar o'rtasida taqsimlanishi nazarda tutilishi mumkin. Masalan, maishiy puđrat shartnomasi bo'yicha kiyim buyurtmachi va puđratchi materialidan tikilsa, undan tejamkorlik asosida foydalanish muhim shart sifatida belgilanishi mumkin. Umuman olganda, tejamkorlikka har bir puđrat shartnomasi taraflari amal qilishi lozim.

Puđratchi qonun hujjatlarida yoki puđrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va miqdordagina o'ziga bo'nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli. Shartnomaning bajarilishi munosabati bilan buyurtmachi puđratchiga belgilangan tegishli haqni yoki boshqa summani to'lash majburiyatini bajarmagan taqdirda, buyurtmachi tomonidan tegishli summa to'langunga qadar puđratchi ishning natijalarini, shuningdek, buyurtmachiga tegishli uskunalarni, qayta ishlash (ishlov berish) uchun berilgan ashyolarni, foydalanilmay qolgan material qoldig'i va puđratchining ixtiyoridagi boshqa mol-mulkni majburiyat bajarilishini ta'minlash maqsadida ushlab qolish huquqiga ega. Agar qonun

hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko'rsatilgan ishni shaxsan o'zi bajarish majburiyatlari kelib chiqmasa, pudratchi o'z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilish huquqiga ega. Bunday hollarda pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Masalan, qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha kollej binosini qurish uchun ixtisoslashgan yordamchi pudratchi tashkilotlari jalb qilinishi mumkin.

Bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo'ladi, buyurtmachi oldida esa yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi. Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi va yordamchi pudratchining har biri bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni bir-biriga qo'yishga haqli emas. Bosh pudratchining roziligini olgan holda, buyurtmachi ayrim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnoma tuzishga haqli. Bu holda mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun bevosita buyurtmachi oldida javobgar bo'ladilar.

FKning 640-moddasiga ko'ra, pudratchi buyurtmachi bergan materialdan tejab-tergab va rejali foydalanishi, ish tugaganidan so'ng ishlatilgan material to'g'risida buyurtmachiga hisobot berishi, shuningdek, uning qoldig'ini qaytarib berishi yoxud o'z ixtiyoridagi foydalanilmay qolgan materialning qiymatini hisobga olib, buyurtmachining roziligi bilan ishning bahosini kamaytirishi shart. Masalan, maishiy pudrat shartnomasi bo'yicha buyurtmachining kiyim uchun bergan materialining qoldig'i unga qaytarib berilishi lozim.

FKning 653-moddasiga asosan, agar shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoki axborotning xarakteridan ish natijasidan pudrat shartnomasida nazarda tutilgan maqsadlarda ushbu axborotsiz foydalanish mumkin emasligi anglashilsa, pudratchi buyurtmachiga ishning natijasi bilan birga pudrat shartnomasining narsasini ishlatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanishga taalluqli bo'lgan axborotni ham berish majburiyatiga ega.

Pudratchining asosiy majburiyatlaridan biri bajariladigan ishning sifatiga rioya etishdir. Eng avvalo, shuni ta'kidlash joizki, pudratchi bajargan ish pudrat shartnomasining shartlariga, shartlar bo'lmaganida yoki to'liq bo'lmaganida esa, odatda, tegishli turdagi ishlarga, ish muomala odati bo'yicha bunday turdagi ishlarning bajarilish shartlariga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak.

Masalan, tuflining ta'mirlash sifati shartnomada qanday keli-shilgan bo'lsa, xuddi shunday sifat va talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

FKning 642-moddasiga asosan, buyurtmachi pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda, istalgan vaqtda ishning borishi va sifatini tekshirishga haqli. Agar pudratchi pudrat shartnomasini bajarishga o'z vaqtida kirishmasa yoki ishni sust bajarishi nati-jasida uni belgilangan muddatda tugatish mumkin emasligi aniq bo'lib qolsa, buyurtmachi shartnomadan voz kechib, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Shu bilan birga, agar ish kechiktirib bajariladigan bo'lsa, buyurtmachi shartnomaga nis-batan o'z qiziqishini yo'qotganligini isbot qilishi lozim. Agar ishni bajarish vaqtida uning tegishli darajada bajarilmasligi aniq bo'lib qolsa, buyurtmachi pudratchiga kamchiliklarni yo'qotish uchun oqilona muddat belgilashga va bu talabni pudratchi belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda pudrat shartnomasidan voz ke-chishga yoxud bu kamchiliklarni pudratchi hisobidan tuzatishni boshqa shaxsga topshirishga, shuningdek, yetkazilgan zararni qop-lashni talab qilishga haqli.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomadan voz kechganligi to'g'risidagi ogoh-lantirish olingunga qadar bajarilgan ishga mutanosib qismini to'lashi mumkin. Buyurtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni ham bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi shart. Buyurtmachi bajarilgan ishni (uning natijasini) pudrat shartnomasida nazarda tutilgan muddatda va tartibda pud-ratchi ishtirokida ko'rib chiqishi va qabul qilishi, ish natijasini yomonlashtiradigan darajada shartnomadan chekinish yoki boshqa kamchiliklar aniqlangan taqdirda esa bu to'g'rida pudratchiga

darhol ma'lum qilishi shart. Ishni qabul qilish vaqtida uning kamchiliklarini aniqlagan buyurtmachi bu kamchiliklar yoxud ularni tuzatish to'g'risida keyinchalik talab qo'yish mumkinligi dalolatnoma yoki qabul qilishni tasdiqlovchi boshqa hujjatda ko'rsatilgan hollardagina ularni vaj qilib keltirishga haqli.

Buyurtmachi ishni tekshirmasdan qabul qilgan bo'lsa, uni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo'lgan kamchiliklar (ochiq ko'rinib turgan kamchiliklar)ni dalil qilib keltirish huquqidan mahrum bo'ladi. Buyurtmachi ish qabul qilib olinganidan so'ng unda pudrat shartnomasidan chekinishlar yoki ishni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo'lmagan boshqa xil kamchiliklar (yashirin kamchiliklar)ni, shu jumladan, pudratchi qasddan yashirgan kamchiliklarni aniqlasa, ular aniqlanganidan so'ng o'n kunlik muddat ichida bu to'g'rida pudratchiga xabar qilishi shart.

Buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida bajarilgan ishning kamchiliklari yoki ularning sabablari yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, istagan tarafning talabi bo'yicha ekspertiza tayinlanishi kerak. Ekspertiza o'tkazish xarajatlari pudratchi zimmasida bo'ladi, ekspertiza pudrat shartnomasi buzilmaganligini yoki pudratchining harakatlari bilan aniqlangan kamchiliklar o'rtasida sababiy bog'lanish yo'qligini aniqlagan hollar bundan mustasno. Bunday hollarda ekspertiza xarajatlarini ekspertiza o'tkazishni talab qilgan taraf, agar ekspertiza tarafdarning o'zaro kelishuvi bilan tayinlangan bo'lsa, ikkala taraf teng miqdorda to'laydi. Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortganida, pudratchi shartnomaga binoan, ish natijasi buyurtmachiga topshirilishi kerak bo'lgan kundan boshlab bir oy o'tgach va shundan keyin buyurtmachini ikki marta ogohlantirgan holda ish natijasini sotib yuborishga, tushgan pulni esa pudratchiga tegishli hamma to'lovlarni chegirib tashlab, notarial idoraning depozitiga buyurtmachining nomiga kiritib qo'yishga haqli. Pudratchi pudrat narsasini sotish o'miga uni ushlab turish yoki keltirilgan zararni buyurtmachidan undirib olish huquqidan foydalanishga haqli.

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to'lash nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish tegishli tarzda va

kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan mud-datidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to'lashi shart. Shuningdek, ishning sifatli, aniq va bel-gilangan muddatda bajarilishi nafaqat pudratchiga, balki ayrim hollarda buyurtmachiga ham bog'liq bo'ladi. Pudratchining ishni bajarishiga buyurtmachi pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda, hajmda va tartibda yordam berishi shart. Buyurtmachi bu majburiyatni bajarmasa, pudratchi ko'rilgan zararni, shu jumladan, bekor turib qolganlik oqibatidagi qo'shimcha chiqimlarni qoplashni yoki ishni bajarish muddatini o'zgartirish yoxud pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ish bahosini oshirishni talab qilishga haqli. Buyurtmachining harakati yoki yo'l qo'ygan xatosi tufayli pudrat shartnomasi bo'yicha ishni bajarish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, pudratchi ishning bajarilgan qismini hisobga olgan holda, shartnomada ko'rsatilgan baho summasida haq olish huquqini saqlab qoladi.

*Pudrat shartnomasi bo'yicha javobgarlik.* Pudrat shartnomasi bo'yicha javobgarlik har ikki tarafning o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda kelib chi-qadi. Topshirilgan ishni pudratchi o'z hisobidan amalga oshi-radigan va ishni bajarish usulini o'zi tanlaydigan bo'lsa, pudratchi o'zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo'lmaganligi uchun, shuningdek, uchinchi shaxslar huquqlari bo'lgan materiallar va uskunalar berganligi uchun javobgar bo'ladi. Shuningdek, pudrat shartnomasini bajarish munosabati bilan buyurtmachi bergan material, uskuna, qayta ishlashga (ishlov berishga) topshirilgan ashyo va pudratchi ixtiyoriga o'tgan boshqa mol-mulk saqlanmaganligi uchun pudratchi javobgar bo'ladi.

Shartnomada pudratchining yordamchi pudratchi olishga huquqi bo'lsa, u holda FKning 241, 334 va 634-moddalariga asosan, bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo'ladi, buyurtmachi oldida esa yordamchi pudratchi o'z majbu-riyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun javobgar bo'ladi.

Bosh pudratchining roziligini olgan holda, buyurtmachi ay-rim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnoma

tuzishga haqli. Bu holda mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun bevosita buyurtmachi oldida javobgar boʻladilar. Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlangʻich va oxirgi, shuningdek, oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgar boʻladi. Agar pudratchi buyurtmachi bergan materialni tegishli tarzda qabul qilib olayotganda, undagi kamchiliklarni aniqlash mumkin boʻlmaganligini isbot qila olmasa, u buyurtmachi bergan materialning kamchiliklari tufayli ishning lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar boʻladi.

FKning 650-moddasida ishning sifati lozim darajada boʻlmaganligi uchun pudratchining javobgarligi nazarda tutilgan. Unga asosan, ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqqan holda bajarilib, ish natijasini yomonlashtirgan boʻlsa yoki uni shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun yoxud shartnomada yaroqsizlik haqida tegishli shartlar boʻlmagan taqdirda, odatdagi maqsadlar uchun foydalanishga yaroqsiz qilib qoʻyadigan boshqa kamchiliklar bilan bajarilgan boʻlsa, buyurtmachi, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, oʻz xohishiga koʻra pudratchidan: kamchiliklarni oqilona muddatda bepul bartaraf etishni; ish uchun belgilangan bahoni mutanosib ravishda kamaytirishni; shartnomada buyurtmachining kamchiliklarni bartaraf etish huquqi nazarda tutilgan boʻlsa, ularni bartaraf etishga qilgan oʻz xarajatlarini qoplashni talab qilishga haqli.

Pudratchi ishdagi oʻzi javobgar boʻlgan kamchiliklarni bartaraf etish oʻrniga, buyurtmachiga shartnomani bajarishni kechiktirganlik natijasida yetkazgan zararni qoplagan holda ishni yangidan bepul bajarib berishga haqli. Bunday holda buyurtmachi ilgari oʻziga topshirilgan ish natijasini, agar ishning xarakteriga koʻra uni qaytarib berish mumkin boʻlsa, pudratchiga qaytarib berishi shart. Agar ishdagi pudrat shartnomasi shartlaridan chetga chiqishlar yoki boshqa xil kamchiliklar jiddiy va bartaraf etib boʻlmaydigan darajada boʻlsa yoxud aniqlangan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan belgilangan oqilona muddatda bartaraf etilmagan boʻlsa, buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortishga va keltirilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Pudrat shartnomasining muayyan kamchilik uchun pudratchini ja-

javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi sharti, agar bunday nuqsonlar pudratchining aybli harakatlari yoki harakatsizligi tufayli vujudga kelganligi isbotlansa, pudratchini javobgarlikdan ozod qilmaydi. Ishni bajarish uchun material bergan pudratchi uning sifati uchun sotuvchining sifati lozim darajada bo'lmagan tovar uchun javobgarligi to'g'risidagi qoidalar bo'yicha javobgar bo'ladi. Shartnomada nazarda tutilgan kafolat muddati ikki yildan kam bo'lib, buyurtmachi ish natijasidagi kamchiliklarni kafolat muddati tamom bo'lgach, biroq FK 651-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida aniqlagan va bu kamchiliklar ish natijasi o'ziga topshirilgunicha yoki topshirish paytiga qadar yuzaga kelgan sabablarga ko'ra paydo bo'lganligini isbot qilsa, ular uchun pudratchi javobgar bo'ladi.

FKda pudrat shartnomalarining quyidagi *turlari* farqlangan:

- maishiy pudrat;
- qurilish pudrati;
- loyiha va qidiruv ishlari pudrati;
- ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

1. *Pudrat shartnomasining fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida tutgan o'rnini izohlang. Pudrat shartnomasi huquqiy tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini muhokama eting.*

2. *Maishiy pudrat shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilarini yoritib bering. Shartnoma bo'yicha buyurtmachi va pudratchi huquqlarining kafolatlari va ular javobgarligini sud amaliyoti misollari asosida muhokama qiling.*

3. *Qurilish pudrati shartnomasini amaliyotda qo'llash doirasi tobora kengayib bormoqda. Shu bois uni tuzish tartibi, loyiha hujjatlari taraflarning huquq va majburiyatlarini pudratchi va buyurtmachining javobgarligini qo'llash asosida tahlil qiling.*

## 11-mavzu. HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI. TASHISH SHARTNOMALARI

---

*Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi. Shartnoma taraf-larining huquq va majburiyatlari. Taraflarning javobgarligi. Yo'lovchi tashish shartnomasi. Yuk tashish shartnomasi. Charter (fraxtlash) shartnomasi.*

**Haq evaziga xizmat ko'rsatish.** FKning 703-moddasiga ko'ra, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha ijrochi buyurtmachining topshirig'i bilan ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatni bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi haq evaziga, konsensual yoki real va ikki taraflama shartnomalar guruhiga kiradi. Ayrim turdagi xizmat ko'rsatish shartnomalari (aloqa xizmati, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati) ommaviy shartnomalar sirasiga kiradi.

*Predmeti.* Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining predmeti ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatdan iboratdir. Xususan, muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, muayyan bir ixtisoslikka va malakaga ega bo'lgan subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

*Taraflar.* Ushbu shartnomada bir tarafda xizmat ko'rsatuvchi – ijrochi, ikkinchi tarafda esa shu xizmatdan foydalanuvchi – buyurtmachi ishtirok etadi. Buyurtmachi bo'lib fuqarolar, shuningdek, yuridik shaxslar, ijrochi bo'lib esa haq evaziga xizmat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan va xizmat ko'rsatish uchun belgilangan tartibda ruxsat olgan fuqaro yoki tashkilotlar qatnashadilar. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma olgan fuqarolar ham haq evaziga xizmat ko'rsata oladilar. Haq evaziga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs hisoblanadi va xizmat ko'rsatish faoliyatiga ega bo'ladi.

*Taraflarning javobgarligi.* FKning 706-moddasida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini buzganlik uchun ijrochining javobgarligi nazarda tutilgan bo'lib, ijrochi haq evaziga xizmat

ko'rsatish shartnomasini umuman yoki tegishli darajada bajar-magan hollarda u keltirilgan zararni buyurtmachiga batamom to'lashi shart, lekin bu to'lov shartnomada nazarda tutilgan xiz-matlar bahosining ikki baravaridan ortiq bo'lishi mumkin emas. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish vaqtida ijrochi maj-buriyatini umuman yoki tegishli darajada bajar-magan hollarda haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida FK 706-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgandan kuchaytirilgan javobgarlik na-zarda tutilishi mumkin. Buyurtmachi o'ziga ko'rsatilgan xizmatlar haqini shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'-lamaganlik uchun ijrochi oldida javobgardir. Ijrochi o'zi aybdor bo'lmagani holda xizmatni bajara olmagan taqdirda, buyurtmachi ijrochiga uning xarajatlarini to'lashi shart, bunda ijrochining xizmat (xizmatlar) ko'rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydasi chegirib qolinadi. Buyurtmachining aybi bilan xizmatni bajarish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada bosh-qacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xizmatlar bahosi butunlay to'lanishi kerak.

*Shartnomaning bekor bo'lish asoslari.* Buyurtmachi xizmat-larning belgilangan bahosini batamom to'lash sharti bilan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno. Ijrochi shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararning hammasini to'lash sharti bilangina haq evaziga xizmat ko'rsatish shart-nomasini bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma bu-yurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno (FK, 707-modda). Masalan, veterinariya xizmatini ko'rsatgan shaxs (ijrochi)ga buyurtmachi xizmat haqini butunlay to'lagandan so'ng shartnoma bekor qilinishi mumkin. Albatta, bunday holda majburiyat lozim darajada bajarilishi muhim hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, FKning 25-bobi 340–352-moddalari qo'llanilishi mumkin.

Yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasining quyidagi asosiy ikki turi mavjud:

- yo'lovchi tashish shartnomasi;
- yuk tashish shartnomasi.

Yo'lovchi tashish shartnomasi bo'yicha tashuvchi yo'lovchini,

yoʻlovchi bagaj topshirgan boʻlsa – bagajni ham belgilangan manzilga eltib berish hamda bagajni olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi. Bunda yoʻlovchi belgilangan yoʻl haqini, bagaj topshirgan boʻlsa, bagaj tashish haqini ham toʻlash majburiyatini oladi (FK, 710-modda). Yoʻlovchi tashish shartnomasida taraflardan biri tadbirkorlik faoliyati yuritgani uchun bu shartnoma xoʻjalik shartnomalari turkumiga kiradi. Binobarin, unga nisbatan “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi qonun normalari ham tatbiq etiladi.

Yuqoridagi normadan koʻrinib turibdiki, yoʻlovchi deganda, tashuvchi xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs tushuniladi. Bagaj deganda esa transportda joʻnatish uchun hozirlangan nar-salar, yoʻlovchining oʻzi bilan birga boʻlgan (shaxsiy) yukini tushunamiz.

Tashuvchi – maʼlum haq evaziga yoʻlovchi va bagajni belgilangan manzilga eltuvchi shaxs. Tashuvchi shahar yoʻlovchilar transportida, temiryoʻl, havo, avtomobil, daryo transportida va boshqa transportda yoʻlovchilarni hamda ularning mol-mulkini tijorat asosida tashish boʻyicha xizmatlar koʻrsatuvchi va buning uchun maxsus ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega boʻlgan yuridik shaxsdir.

Tashish shartnomasining ikkinchi turi yuk tashish shartnomasidir. Yuk tashish shartnomasi boʻyicha yuk tashuvchi joʻnatuvchi tomonidan oʻziga ishonib topshirilgan yukni belgilangan manzilga yetkazib berish va uni olishga vakolat berilgan shaxsga (oluvchiga) topshirish, yuk joʻnatuvchi esa yukni tashib berganlik uchun belgilangan haqni toʻlash majburiyatini oladi.

Yuk tashish shartnomasida yuk tashuvchi sifatida faqat tegishli litsenziya olgan shaxslargina qatnasha oladilar. Masalan, “Avtomobil transporti toʻgʻrisida”gi qonunning 13-moddasi, Havo kodeksining 96-moddasiga koʻra, avtomobilda tashish, havo transportida tashish Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan maxsus qoida va tartiblarga muvofiq, ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi.

Yuk tashish shartnomasining huquqiy belgilari quyidagilarda koʻrinadi: konsensual, ikki taraflama va haq evaziga tuziladi. Yuk tashish shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Tashish shartnomasining har ikki turida ham tashish shartlari, shuningdek, taraflarning ularni tashish bo'yicha javobgarligi, agar FKda, transport ustavlarida va kodekslarda, boshqa qonunlarda va ularga muvofiq chiqarilgan qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

*Predmeti* – transport korxonasining ikkinchi taraf (mijoz)ga ko'rsatadigan transport xizmatidir.

FKning 710-moddasi talabiga ko'ra, yo'lovchi va bagaj tashish shartnomasi tuzilganligi tegishli chipta va bagaj pattasi bilan tasdiqlanadi. Yo'lovchiga berilgan chiptada shartnomaning asosiy shartlari: chipta bahosi, transportning jo'nash vaqti, chiptaning yaroqlilik muddati yoziladi. Havo transporti va qonunda belgilangan tarzda shaharlararo va xalqaro yo'nalishda qatnaydigan poezdlardan tashqari, boshqa transportlarga berilgan chiptada yo'lovchining ismi, familiyasi yozilmaydi. Familiyalari yozilgan chiptalarni birovga berish taqiqlanadi. Havo transportida yo'lovchi chiptani yo'qotgan taqdirda boshqa chipta berilmaydi.

Yo'lovchi va bagaj tashish FKning 714-moddasidan kelib chiqqan tartibda umumiy foydalanishdagi transportda amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportda tashish ommaviy shartnoma hisoblanib, unga asosan, bunday turdagi tashishga FKning 358-moddasi talablari qo'llanadi.

Yuk tashish shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari yuk tashilayotgan transportning turiga qarab ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunonchi, temiryo'l transporti bilan yuk tashilganda, tashuvchi – temir yo'l korxonasi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- yuk tashish majburiyatini bajarish;
- yuk tashish uchun yaroqli bo'lgan vagonlar, sisterna, konteynerlarni belgilangan muddatda yuk jo'natuvchi ixtiyoriga berish;
- vagonlar va yuklarning holatini ko'rib chiqish;
- yukning qabul qilinganligi to'g'risida kvitansiya yozib berish;
- jo'natish uchun qabul qilingan yuklarni zararlantirmay va yo'qotmay saqlash;
- yukni tayinlangan muddatida belgilangan manzilga yetkazib berish;
- yukning tayinlangan joyga yetkazib keltirilganligi to'g'risida yuk tashuvchini darhol xabardor qilish;

- yuk kimga berilishi tayinlangan bo'lsa, uni shu shaxsga topshirish.

*Yuk jo'natuvchi va oluvchilarning majburiyatlari*, asosan, quyidagilar bilan chegaralanadi:

- yuk tashish yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarish;

- yuklarni belgilangan muddatda jo'natish uchun transport tashkiloti tomonidan berilgan yuk tashish vositalarini, ya'ni vagon, konteyner, sisternalarni ko'zdan kechirib chiqish;

- yuk oluvchi o'ziga kelgan yukni vaqtida qabul qilib olish;

- tarif bo'yicha belgilangan kira haqini to'lash kabi.

Yuk tashishning keng tarqalgan turlaridan biri avtomobil transporti orqali yuk tashishdir. Avtomobil transporti bilan yuk tashish shartnomasi FKning ushbu shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalari, "Avtomobil transporti to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan namunaviy shartnomalar bilan tartibga solinadi. Bunday shartnomada yuk tashuvchining asosiy majburiyati shartnoma bo'yicha yukni tayinlangan manzilga belgilangan muddatda kechiktirmasdan to'la-to'kis yetkazib berishdir. Yuk oluvchining majburiyatlariga: kira haqini to'lash (agar yuk jo'natuvchi to'lamagan bo'lsa), yukni qabul qilish va o'z vaqtida tashib olish kabilar kiradi.

Yuk jo'natuvchining majburiyatlariga: yuk jo'natish rejasini bajarish, yukni o'z vaqtida tashuvchi (avtotransport tashkiloti)ga topshirish, kira haqini to'lash, yuk hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, shartnoma bilan belgilangan holda yukni o'z ishchi kuchi va texnik vositalari yordamida yuklash kabilar kiradi.

Yuk tashishning uchinchi turiga havo transporti bilan yuk tashish shartnomasi kiradi. Bu shartnoma FK va Havo kodeksi hamda ushbu munosabatlarni tartibga solishga doir chiqarilgan boshqa qonunchilik hujjatlari normalari bilan tartibga solinadi. Havo kodeksining 98-moddasiga asosan: "Havo transportida tashish shartnomasiga ko'ra, yuk tashuvchi o'ziga yuk jo'natuvchi ishonib topshirgan yuk yoki pochtani belgilangan manzilga yetkazib, ularni yukni yoki pochtani qabul qilib olishga vakolat berilgan shaxsga topshirish majburiyatini oladi, yuk jo'natuvchi esa yuk yoki pochta tashilgani uchun belgilangan tarif bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi".

Yuk tashish shartnomasi ikki xil shaklda tuzilishi mumkin:

1) shartnomaga ko'ra yuklarni muayyan muddatda tashish; bunda yuk miqdori, yo'nalishi, yuk tashish muddati, taraflarning majburiyatlari, hisob-kitob tartibi to'g'risidagi shartlar va shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik ko'rsatiladi;

2) bir yoki bir necha samolyotni yuk jo'natuvchiga berish sharti bilan tuzilishi mumkin. Bu shartnoma charter (fraxtlash) shartnomasi deb ataladi. Shartnoma shartlari FKning 712-moddasi hamda Havo kodeksining 99-moddasida normalangan. Havo kodeksiga asosan, charter (havo kemalarini kira qilish) shartnomasi bo'yicha bir tomon (kiraga beruvchi) ikkinchi tomon (kiraga oluvchi)ga haq evaziga bir yoki bir necha havo kemasini yo'lovchilar, qo'l yuki, yuk va pochta tashish yoxud boshqa maqsadlarda foydalanishga bir yoki bir necha parvoz uchun to'liq berib turish majburiyatini oladi.

Bu shartnoma bo'yicha havo transporti tashkilotining asosiy majburiyatlariga: yukni qabul qilish, tayinlangan manzilga yetkazib berish va yukni egasiga topshirish, qabul qilingan yukni zararsizlantirmasdan saqlashni ta'minlash, o'z vaqtida egasiga yetkazib berish, oluvchiga yukning kelganligini xabar qilish, yuk yo'qolganda esa uni qidirish choralarini ko'rish, kam chiqqanda, shikastlanganda va sifati pasaygan hollarda zararni qoplash kabilar kiradi.

Yuk jo'natuvchining asosiy majburiyatlari yukni aeroportga yetkazib berish va kira haqini to'lashdan iborat.

Oluvchining majburiyatlari yukni o'z vaqtida qabul qilib, tushirib olishdir.

Yuk tashish shartnomasining navbatdagi turi O'zbekiston sharoitida nihoyatda kam uchraydigan ichki suv transporti bilan yuk tashish shartnomasidir. Bu shartnoma yuk tashuvchi tomonidan yukxat shaklida tuziladi va unda shartnoma mazmuni ifodalanadi.

Taraflarning huquq va majburiyatlari shartnomada aniq belgilab qo'yiladi. Chunonchi, yuk tashuvchi yukni o'z vaqtida yetkazib berishga va yuk oluvchiga topshirishga, jo'natuvchi esa yuk tashuvchining xizmati uchun kira haqini to'lashga majbur bo'ladi.

Yuk tashish shartnomasining so'nggi turi dengiz transporti bilan yuk tashish shartnomasidir. Bu shartnoma O'zbekiston Respublikasi hududida yirik dengizlar bo'lmagani sababli ichki muomalada butunlay qo'llanilmaydi. Dengiz transporti bilan yuk

tashish shartnomasiga nisbatan qonunchiligimizning tatbiq qilinishi faqat xalqaro huquq normalarida nazarda tutilgan bo'lsagina amalga oshiriladi. Shunday bo'lsa-da, dengiz transporti bilan yuk tashish kabotaj va chet el mamlakatlariga qatnash yo'li bilan yuk tashishga bo'linadi. Kabotaj deganda, bir davlat chegarasidagi portlar orasida yuk tashish tushuniladi.

Dengiz transporti bilan yuk tashish konosament va charter shartnomalari bilan rasmiylashtiriladi. Agar shartnomada yuk tashuvchining majburiyati belgilansa-yu, ammo kemadan qanchalik joy berilishi sharti bo'lmasa, bunday majburiyat konosament shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Konosament tilxat vazifasini bajaradi va yuk topshirilgani to'g'risida yuridik dalil bo'lib sanaladi. Bundan tashqari, konosament, *birinchidan*, shartnoma tuzilganligi to'g'risidagi dalil; *ikkinchidan*, yukni qabul qilganlik to'g'risida kema kapitanining tilxati; *uchinchidan*, yukni tasarruf qilish huquqini beradigan hujjat va to'rtinchidan, yuk tashuvchi bilan yuk jo'natuvchi o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan hujjat hisoblanadi. Konosamentda yuk tashuvchi va yuk jo'natuvchi, yuk jo'natilgan va tayinlangan manzillar hamda yuk to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Dengiz yo'llarida yuk tashish charter (fraxtlash) shartnomasi bilan ham rasmiylashtirilishi mumkin. Yuk tashishning charter (fraxtlash) shartnomasi, asosan, dengiz kemasining bir yoki bir necha reysga qatnashi uchun tuzilsa, bunday shartnomaga reys charteri; agar kema ma'lum bir vaqt davomida kira qilishga berilsa, bunday shartnoma taym-charter deb ataladi.

Dengiz transporti bilan yuk tashish shartnomasiga asosan, yuk tashuvchining asosiy majburiyatlariga:

- yuk tashish vositalarini o'z vaqtida berish;
- yukni qabul qilib olgan kundan boshlab, toki tayinlangan manzilga olib borguncha saqlash;
- yukni oluvchiga topshirish kiradi.

Yuk jo'natuvchining asosiy majburiyatlari:

- yukni tashuvchiga topshirish;
- yukni qabul qilish;
- kira haqi (fraxt)ni to'lashdan iboratdir.

Charter shartnomasi tuzish tartibi, uning shakli va turlari transport ustavlari va kodekslarida belgilab qo'yiladi.

FKning 718-moddasiga ko'ra, tashishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli ravishda bajarmagan taqdirda, taraflar FKda, transport ustavlari va kodekslarida, shuningdek, taraflarning kelishuvida belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar. Bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning, asosan, mulkiy xarakterda bo'lishini nazarda tutish kerak.

Transport tashkilotlarining yo'lovchilar va yuk egalari bilan tashuvchining qonunda belgilangan javobgarligini cheklash yoki bartaraf etish haqidagi kelishuvi haqiqiy emas. Binobarin, ularga nisbatan FKning haqiqiy sanalmaydigan bitimlar haqidagi qoidalari qo'llaniladi.

Tashish shartnomalari bo'yicha mulkiy javobgarlik shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikdan kelib chiqib, FKning 333-moddasiga ko'ra javobgarlikka tortishning asosiy sharti aybdir. Unga binoan, qarzdor aybli bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, javob beradi. Ayni paytda majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

*1. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining tushunchasi, huquqiy belgilari, turlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi va bekor bo'lish asoslarini muhokama eting.*

*2. Haq evaziga xizmat ko'rsatish bo'yicha sud amaliyotida ayrim nizoli masalalar mavjud. Haq evaziga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq nizolarni hal qilishda FK normalarini qo'llashda nimaga e'tibor qaratish lozim? Bunday nizolar mohiyatini sud hujjatlari asosida tahlil qiling. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi shartlari bo'yicha yurist xulosasini tayyorlang.*

*3. Yo'lovchi tashish shartnomasi turlari: yuk tashish shartnomasi, charter (fraxtlash) shartnomasini tavsiflang.*

*4. Kichik guruhlarda mustaqil ravishda yuk tashish shartnomasini tuzing va o'zaro muhokama qiling.*

## 12-mavzu. QARZ SHARTNOMASI. KREDIT SHARTNOMASI

---

*Qarz shartnomasi. Qarz shartnomasining shakli. Tilxat. Aniq maqsadli qarz. Foizlar. Kredit shartnomasi. Tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit.*

**Qarz shartnomasi.** Qarz shartnomasining tushunchasi haqida gapirganda, avvalo, qonun hujjatlariga muvofiq nimalar qarzga berilishi mumkinligi xususida to'xtalib o'tish lozim. Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolargina shartnoma munosabatlarining obyekti bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligida qarz shartnomasining obyektlariga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Obyektning fuqarolik muomalasida bo'lishi;
2. Shartnoma predmeti pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar bo'lishi;
3. Qarz beruvchining obyektga nisbatan mulkdorlik yoki ashyoviy huquqining mavjud bo'lishi.

Obyektlarning muomalada bo'lishi deganda, fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin ravishda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkinligi tushuniladi.

Qarz shartnomasining predmeti bo'lib, nafaqat fuqarolik muomalasidagi obyektlar, shu bilan birga pul yoki turga xos alomati bilan belgilanadigan ashyolargina bo'lishi mumkin. Bu ikki talabga javob beradigan fuqarolik huquqlarining obyektlari qarz shartnomasining predmeti bo'lishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar qarz shartnomasining predmeti bo'lishi mumkin emas. Zero, bunday ashyolar faqat o'zigagina xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, ularning iste'mol qilinishi natijasida butkul yo'q bo'lishi oqibatida qayta tiklash mumkin bo'lmaydi. Bu esa qarz shartnomasining asosiy talabi – bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili,

sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berishni amalga oshirib bo'lmaydi. Xususiyl alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarning bunday xususiylatlari ularni qarz shartnomasining emas, balki ijara shartnomasining predmeti bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Qarz shartnomasining xususiylatlari haqida gapirganda, mazkur shartnomaning boshqa shartnomalardan farqli jihatlari xususida to'xtalib o'tish lozim. Qarz shartnomasi o'zining predmeti va maqsadiga ko'ra oldi-sotdi shartnomalaridan farq qiladi. Agar oldi-sotdi shartnomalarining maqsadi tovarga bo'lgan mulk huquqini boshqa shaxsga o'tkazish hisoblansa, qarz shartnomasining maqsadi, qaytarib berish sharti bilan pul va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarni berish hisoblanadi. Qarz shartnomasi tuzish orqali bir shaxs ikkinchi shaxsga muayyan summadagi pul yoki miqdordagi ashyoni topshiradi hamda bu orqali pul va ashyoga nisbatan mulk huquqini ma'lum vaqt oralig'ida ikkinchi shaxsda bo'lishi amalga oshiriladi. Qarz berish orqali mulkdorning ashyosi natura holida yo'q bo'lib ketsa-da, keyinchalik (shartnoma muddatida) xuddi shunday moddiy ne'mat mulkdor (kreditor)ga qaytariladi. Odatda, bu holatga nisbatan "persona non greet" – "tur nobud bo'lmaydi" qoidasi qo'llaniladi. Zero, qarz shartnomasining predmeti hisoblanadigan pul va ashyolar – turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar hisoblanadi. Shu munosabat bilan pulning yoki turga xos alomati bilan belgilanadigan ashyolarning nobud bo'lishi majburiyatni asl holida bajarish imkoniyatini hech qaysi holatda bekor qila olmaydi. Shu bilan birga, "tur nobud bo'lmaydi" qoidasi har doim pulli majburiyatlarga tatbiq etiladi.

Qarz shartnomasiga nisbatan "tur nobud bo'lmaydi" qoidasining qo'llanilishi, qarz shartnomasining ijara shartnomasidan farqli jihatlarni vujudga keltiradi. Ijara shartnomasining muhim jihati hisoblangan – ijaraga olingan narsaning normal eskirishi holatini hisobga olib qaytarilishi qarz shartnomasida boshqacha ko'rinishda amalda bo'ladi.

Qarz shartnomasining *predmeti* hisoblangan turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar qarz beruvchiga qaytarib berilayotganda, olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni qaytarish lozim. Bunda xil, sifat va miqdorning ayniyligi taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra, yoki odatdagi standartlarga ko'ra yoxud sud tomonidan aniqlanadi.

Qarz shartnomasi o'zining xususiyatlariga ko'ra, bir tomonlama, real va tekinga yoki haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Shartnoma asosida faqatgina qarz beruvchida huquqning mavjud bo'lishi bu shartnomaning bir tomonlama ekanligini anglatadi. Ya'ni shartnomaga muvofiq, qarz beruvchida huquq, qarz oluvchida majburiyat bo'ladi.

Qarz shartnomasining real shartnoma ekanligi FKning 732-moddasi ikkinchi qismi talablariga asoslanadi va qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Shartnoma asosida taraflar o'zaro kelishuvga erishishlari qarz shartnomasi bo'yicha hech qanday huquqiy oqibat tug'dirmaydi. Shu bilan birga, bunday kelishuv qarz shartnomasi taraflariga hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Qarz shartnomasining bir vaqtning o'zida ham tekinga va ham haq evaziga tuzilishi, shartnomada foizning belgilanishi yoki belgilanmasligi bilan bog'liqdir. Agar shartnomada olingan summa yoki tovar uchun muayyan foiz to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, qarz shartnomasi haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Shartnomada olingan pul yoki tovar uchun foiz to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, qarz shartnomasi tekinga tuzilgan shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Qarz shartnomasining fuqarolik muomalasi va iqtisodiyot uchun ahamiyati shundaki, bu shartnomani tuzish orqali bo'sh turgan pul mablag'lari va tovarlar harakatga keladi. Natijada fuqarolik muomalasida tovar va moliyaviy mablag'lar aylanmasi vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

*Qarz shartnomasining shakli.* FKning 733-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzni summasi eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganda esa summasidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi kerak.

Qarz shartnomasining shakliga nisbatan belgilangan mazkur talab FKning 108-moddasi qoidalaridan kelib chiqadi. Ushbu moddaga muvofiq, notarial tasdiqlanishi talab etiladigan bitimlardan tashqari, quyidagi bitimlar oddiy yozma shaklda tuziladi:

1) yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan bitimlari;

2) fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat’i nazar boshqa bitimlar.

Ta’kidlash joizki, bu ikki holatdan tashqari shartnoma summasidan qat’i nazar, taraflardan birining talabi bilan qarz shartnomasi yozma tuzilishi lozim. Masalan, qarzga berilayotgan pul summasining miqdori 15 ming so‘m bo‘lganda, taraflardan biri shartnomani yozma tuzishni talab qilsa, ikkinchi taraf shartnoma summasi eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan kam ekanini ko‘rsatib, shartnomani yozma tuzishdan bosh tortishga haqli bo‘lmaydi.

Eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan kam bo‘lgan summa qarzga berilganda, og‘zaki tuzilgan qarz shartnomasiga nisbatan FKning 106-moddasi talablari qo‘llaniladi. Mazkur moddaga muvofiq, qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo‘yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o‘zidayoq bajariladigan bitim og‘zaki tuzilishi mumkin. Qarz shartnomasi ham tuzilishi bilan ijro qilinishi lozim bo‘lgan shartnomalar toifasiga kiradi. Ya’ni shartnoma tuzilgan deb hisoblanishi uchun qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasida shartnoma yuzasidan muayyan harakat amalga oshirilishi, aniqrog‘i, pul summasi qarz oluvchiga topshirilishi lozim.

Garchi fuqarolik qonunchiligida qarz shartnomasi og‘zaki tuzilishi mumkinligi xususida aniq qoida belgilanmagan bo‘lsa-da, qarz shartnomasining og‘zaki tuzilishi haqiqiy hisoblanishi FKning 8-moddasidan kelib chiqadi. Ushbu moddaga binoan, fuqarolik huquq va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning, garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko‘ra, fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi.

FK qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilishi bilan birga og‘zaki shaklda tuzilishi mumkinligini ham nazarda tutadi. Garchi qarz shartnomasini og‘zaki tuzish mumkinligi FKda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, bu holat bitimlar to‘g‘risidagi umumiy qoidalardan kelib chiqadi. FKning 106-moddasiga mu-

vofiq, qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo'yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bitim og'zaki tuzilishi mumkin. Masalan, fuqaro B. fuqaro A.dan 20 ming so'm qarzga pul berib turishni so'radi. Bu holatda shartnomaning og'zaki tuzilishi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan talablarga muvofiq deb hisoblanadi.

Qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilganda, shartnoma, odatda, shartnomaga qo'yiladigan talablar asosida rasmiylashtiriladi. Taraflar o'rtasida tuzilayotgan qarz shartnomasida quyidagi holatlar mavjud bo'lishi lozim:

1. Shartnoma tuzayotgan taraflar nomi aniq ko'rsatilishi lozim. Bunda shartnoma tarafi hisoblanadigan fuqarolarning ism-sharifi, manzili shartnomada ifodalanishi zarur. Yuridik shaxslarga nisbatan esa yuridik shaxsning firma nomi, yuridik manzili ko'zda tutilishi kerak;

2. Shartnoma predmetini belgilash. Bu holatda qarzga nima berilayotgani aniq bo'lishi kerak. Ya'ni qarzga pul yoki turga xos alamatlari bilan belgilanayotgan ashyo berilishi nazarda tutiladi;

3. Qarzga berilgan pul summasining qaytarilish muddati, ya'ni qarz shartnomasining amal qilish davri;

4. Qarz oluvchining majburiyatlari va qarz beruvchining huquqlari ko'zda tutilishi lozim;

5. Agar qarz shartnomasi taraflari shartnomada foiz to'lashni nazarda tutgan bo'lsa, foiz miqdori va muddatlari ko'rsatilishi;

6. Shartnoma shartlari bajarilmaganda va lozim darajada bajarilmaganda belgilanadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik.

Odatda, tilxat, bir shaxsning ikkinchi shaxs oldidagi qandaydir majburiyatini yoki muayyan ashyo yoki buyumni olganligini yoxud topshirganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Masalan, shartnoma tuzishdan oldin zakalat olgan tomonning zakalatni tilxat bilan rasmiylashtirishi yoki ijrachidan ijara haqini olganligi xususidagi ijara beruvchining tilxati.

Qarz shartnomasida esa tilxat hamma vaqt pul berilganligi yoki ashyolar olinganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Odatda, qarz olinganligini tasdiqlovchi tilxat qarz oluvchi tomonidan yoziladi va imzolanaadi. Bunda qarz oluvchi o'zining ism-sharifi, manzili, kimdan, qancha summadagi pulni yoki qancha miqdordagi ashyoni olayotganligi, olingan pul yoki ashyoning

qaytarib berish muddati, agar foiz to'lash kelishilgan bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan foiz miqdori, qarz olingan sanani ko'rsatadi va imzo qo'yadi. Qarz tilxati har qanday erkin shaklda yozilish mumkin, faqatgina unda yuqorida sanab o'tilgan holatlarning barchasi ifodalanishi lozim. Aks holda, bunday tilxat haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan hujjat sifatida topshirish dalolatnomasi yoki qabul qilish bayonnomasini sanab o'tish mumkin. Topshirish shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomalarning ko'pchiligida muayyan majburiyat bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Masalan, FKning 486-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkning sotuvchi tomonidan topshirilishi va sotib oluvchi tomonidan qabul qilinishi taraflar imzolaydigan topshirish dalolatnomasi yoki topshirish to'g'risidagi boshqa hujjatga binoan amalga oshiriladi.

Qarz oluvchi qarz summasining qaytarib berilishini ta'minlash yuzasidan qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa, shuningdek, qarzning ta'minoti qarz beruvchi javobgar bo'lmagan vaziyatlarda yo'qotilsa yoki uning shartlari yomonlashsa, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini muddatidan oldin qaytarish va tegishli foizlarni to'lashni talab qilishga haqli.

Qarz shartnomasi qarz oluvchining mablag'lardan aniq maqsadda (aniq maqsadli qarz) foydalanishi sharti bilan tuzilgan bo'lsa, qarz oluvchi qarz beruvchiga qarz summasidan aniq maqsadda foydalanilishini nazorat qilish imkoniyatini ta'minlab berishi lozim. Qarz oluvchi qarz shartnomasining qarz summasidan aniq maqsadda foydalanish haqidagi shartlarini bajarmagan taqdirda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz beruvchi qarz oluvchidan qarz summasini muddatidan oldin qaytarish va tegishli foizlarni to'lashni talab qilishi mumkin.

**Kredit shartnomasi.** Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Odatda, kredit deganda, mulkdorning egaligida boʻlgan boʻsh turgan pul mablagʻlarini boshqa shaxslar tomonidan muayyan muddatga haq toʻlash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish bilan bogʻliq munosabatlar tushuniladi.


Kredit munosabatlari kredit beruvchi va kredit oluvchi oʻrtasida vujudga keladi. Kredit munosabatlari quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- olingan pul yoki tovarlarning qaytarilishi;
- muayyan muddatning belgilanishi;
- shartnomada belgilangan foizlarni toʻlash.

Qonun hujjatlariga muvofiq, kredit tashkilotlari boʻlmagan tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishiga yoʻl qoʻyilgan hollarda kredit shartnomasi toʻgʻrisidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariga nisbatan qoʻllanadi.

Kredit shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart. Yozma shaklga rioya qilmaslik kredit shartnomasining haqiqiy boʻlmashligiga olib keladi. Bunday shartnoma oʻz-oʻzidan haqiqiy boʻlmaydi.

Taʼkidlash lozimki, qarz va kredit shartnomalari oʻrtasidagi umumiylik bilan birga, ular oʻrtasidagi farqlar ham mavjud.



Kredit shartnomasi, qarz shartnomasi kabi real emas, konsensual shartnoma hisoblanadi.

Kredit shartnomalarining subyektlari bo'lib kredit beruvchi va kredit oluvchi hisoblanadi. Kredit beruvchi sifatida shartnomada bank va kredit muassasalari ishtirok etadi. Kredit oluvchi sifatida yuridik shaxslar va fuqarolar (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar) shartnomada qatnashishlari mumkin.

Hozirgi kunda kreditning bir necha turlari mavjud bo'lib, bular jumlasiga tijorat krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit va shu kabilar.

Tijorat krediti bajarilishi uchun pul summolari yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni ikkinchi tarafga mulk qilib topshirish talab qilinadigan shartnomalarda, agar qonun hujjatlarida boshqa hol belgilab qo'yilgan bo'lmasa, kredit berish, shu jumladan, bo'nak, oldindan haq to'lash, tovarlarga, ishlar yoki xizmatlarga haq to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash shaklida kredit berish (tijorat krediti) nazarda tutilishi mumkin.

Amaliyotda tijorat kreditining quyidagi usullari qo'llaniladi: veksel usuli; ochiq schyot orqali berish; to'lovni ma'lum belgilangan muddatda amalga oshirgan sharoitda chegirma berish; mavsumiy kredit.

Tarafalar bir tarafning kredit shartnomasi shartlari asosida turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolarni ikkinchi tarafga berish majburiyatini nazarda tutuvchi shartnomani tuzishlari mumkin. Ashyolarni kreditga berish to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnomaning berilayotgan ashyolarning miqdori, assortimenti, to'liqligi, sifati, idishi va (yoki) o'ralishi haqidagi shartlari tovarlarning oldi-sotdi shartnomasi to'g'risidagi qoidalarga muvofiq bajarilishi shart.

FKning 748-moddasi birinchi qismida kredit berishning o'ziga xos ko'rinishi tijorat krediti va muayyan vaziyatlarda oldindan haq to'lash usullarining kredit sifatida e'tirof etilishi sharti nazarda tutilgan. Unga ko'ra, ikki turdagi shartnomalar:

1) bajarilishi uchun pul summalarini mulk qilib topshirish talab etiladigan shartnomalar;

2) turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni ikkinchi tarafga mulk qilib topshirish talab qilinadigan shartno-

malarda quyidagi shakllarda pul summalarini berish tijorat krediti sifatida eʼtirof etiladi:

- kredit berish;
- boʻnak berish;
- oldindan haq toʻlash;
- tovarlar, ishlar yoki xizmatlarga haq toʻlashni kechiktirish;
- boʻlib-boʻlib haq toʻlash.

Biroq bu holatlar qonun hujjatlarida boshqa hol belgilab qoʻyilmagan boʻlsa, tijorat krediti sifatida baholanadi.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. *Qarz va kredit shartnomalarining tushunchasi va ularning oʻzaro nisbatini tahlil qiling.*

2. *Kredit turlari, ularning qoʻllanilish sohalari va oʻziga xos xususiyatlarini yoriting.*

### 13-mavzu. BANK XIZMATI SHARTNOMALARI. HISOB-KITOBLAR

---

*Bank. Omonat. Bank omonati. Bank omonati shartnomasi. Talab qilinguncha saqlanadigan omonat. Muddatli omonat. Bank hisobvarag'i shartnomasi. Kredit muassasasi. Foizlar. Litsenziya. Hisob-kitoblar. Bank amaliyoti. Naqd pulsiz operatsiyalar. Valyuta. Chet el valyutasi.*

**Bank omonati shartnomasi** bankning mijozlarga xizmat ko'rsatishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bu shartnoma orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'lari iqtisodiyotga va fuqarolik muomalasiga jalb qilinadi.

Bank omonati shartnomasi bo'yicha birinchi tarafdin (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Bank omonati shartnomasi o'zining huquqiy belgilariga ko'ra, bir taraflama shartnomalar turiga kiradi. Chunki shartnoma tuzilgach, omonatchida faqatgina omonat summasini foizlari bilan qaytarish huquqi mavjud bo'ladi.

Bank omonati shartnomasi omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Ushbu jihati bilan bank omonati shartnomasi real shartnomadir. Omonatga qo'yilgan pul summasi uchun bank foiz to'lash majburiyatini oladi va shu sababli bank omonati shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiradi.

Fuqaro omonatchi bo'lgan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma deb hisoblanadi. Chunki bank ommaviy oferta e'lon qilgach, shartnoma tuzish istagini bildirgan har bir fuqaro bilan shartnoma tuzishga majburdir.

Omonat saqlash shartnomasining subyektlari bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya berilgan banklar va omonatchi fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxs fuqarodan omonat qabul qilgan taqdirda, omonatchi darhol omonat summasini qaytarib berish, shuningdek, bu

summaga FKning 327-moddasida nazarda tutilgan foizlarni to'lashni hamda foiz summalaridan tashqari omonatchiga yetkazilgan hamma zararni qoplashni talab qilish huquqiga egadir. Agar bunday shaxs bank omonati shartnomasi shartlari asosida yuridik shaxsning pul mablag'larini qabul qilgan bo'lsa, FKning bitimlar haqiqiy bo'lmashligining asoslari va oqibatlariga doir tegishli qoidalarini qo'llanadi.

Bank omonati shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Agar omonat qo'yilganligi omonat daftarchasi, jamg'arma (depozit) sertifikat yoki bank tomonidan omonatchiga berilgan, qonunda, qonunga muvofiq belgilangan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatlarida bunday hujjatlar uchun nazarda tutilgan talablarga javob beradigan boshqa hujjat bilan tasdiqlangan bo'lsa, bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi. Bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik bunday shartnomaning haqiqiy bo'lmashligiga olib keladi. Bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Bank omonati shartnomasi omonatni talab qilinishi bilan oq berish (talab qilinguncha saqlanadigan omonat) yoki omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat) sharti bilan tuziladi. Bank omonati shartnomasida qaytarib berishning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlari asosida omonatlar qo'yish ham nazarda tutilishi mumkin. Bank omonati shartnomasi bo'yicha, omonatning turidan qat'i nazar, bank omonatchining talabi bilan omonat summasini yoki uning bir qismini berishi shart, yuridik shaxslar tomonidan qaytarib berishning shartnomada nazarda tutilgan boshqa shartlari asosida qo'yilgan omonatlar bundan mustasno. Bank omonati shartnomasining fuqaro omonatni talab qilishi bilan oq olish huquqidan, muddatli yoki boshqa omonatni esa xabardor etishning qonun hujjatlarida belgilangan muddati o'tganidan keyin olish huquqidan voz kechish haqidagi sharti o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Agar omonatchi muddatli yoki boshqa omonatni, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, u o'zining bu niyatidan bankni omonatni olishni

mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim.

Muddatli yoki boshqa omonat, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonat yuzasidan foizlar to'lanmaydi. Omonatchi muddatli omonat summasini muddat tugaganidan keyin yoki qaytarishning boshqa shartlari bilan qo'yilgan omonat summasini bank omonati shartnomasida nazarda tutilgan holatlar vujudga kelganidan keyin qaytarib berishni talab qilmagan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma omonatni talab qilib olguncha omonat saqlash shartlari asosida uzaytirilgan deb hisoblanadi.

Bank omonatchiga omonat summasi uchun bank omonati shartnomasida belgilanadigan miqdorda foizlar to'laydi. Bank omonati shartnomasida to'lanadigan foizlar miqdori haqida shart bo'lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan miqdorda foizlar to'lashi shart.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan foizlar miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bank foizlar miqdorini kamaytirgan taqdirda, foizlarning yangi miqdori foizlar kamaytirilganligi haqida omonatchilarga xabar berilganidan keyin qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llanadi. Agar bank omonati shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu xabarga qadar qo'yilgan omonatlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori tegishli xabar berilgan paytdan bir oy o'tganidan keyin qo'llanadi. Omonatni muayyan muddat o'tgach yoki shartnomada nazarda tutilgan vaziyatlar yuz berganidan keyin qaytarish sharti bilan qo'yilgan omonat yuzasidan bank omonati shartnomasida belgilangan foizlar miqdori, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bank tomonidan bir tomonlama kamaytirilishi mumkin emas.

Bank omonati summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisob varag'idan o'chirilgan kun-

dan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining hisobvaragʻi xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablagʻlaridan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi. Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, bank omonati summasiga foizlar har bir oy oʻtganidan keyin uning talabi bilan omonat summasidan alohida toʻlanadi. Bu muddatda talab qilib olinmagan foizlar esa foizlar yoziladigan omonat summasiga qoʻshib boriladi. Omonat qaytarilganida shu paytgacha yozilgan hamma foizlar toʻlanadi.

Bank qabul qilib olgan omonatlarning qaytarilishini taʼminlash uchun foydalanishi shart boʻlgan vositalar va usullar qonun bilan va bank omonati shartnomasi bilan belgilanadi. Bank omonatchining talabiga muvofiq, omonatning qaytarilishi taʼminlanganligi toʻgʻrisida axborot berishi lozim. Bank omonatning qaytarilishini taʼminlash boʻyicha majburiyatlarini bajarmagan, shuningdek, taʼminotni yoʻqotgan yoki uning shartlarini yomonlashtirgan taqdirda, omonatchi bankdan omonat summasini darhol qaytarib berishni, FKning 327-moddasiga muvofiq, unga foizlar toʻlashni hamda oʻziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Bank omonatchining omonatni yoki uning bir qismini qaytarish haqidagi talabini FKning 762-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda bajarmagan taqdirda, FKning 327-moddasiga muvofiq, bank omonatga foizlar toʻlashdan qatʼi nazar, keltirilgan zararni toʻlashi lozim.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, omonatga uchinchi shaxslardan omonatchining hisobvaragʻi toʻgʻrisidagi zarur maʼlumotlarni koʻrsatgan holda tushgan pul mablagʻlari kiritib qoʻyiladi. Bunda omonatchi bunday shaxslarga omonat boʻyicha hisobvara toʻgʻrisidagi zarur maʼlumotlarni berish bilan ulardan pul mablagʻlarini olishga rozi boʻlgan deb hisoblanadi.

Omonat bankka muayyan uchinchi shaxs foydasiga qoʻyilishi mumkin. Nomiga omonat qoʻyilayotgan fuqaroning ismini yoki yuridik shaxsning nomini koʻrsatish bank omonati toʻgʻrisidagi tegishli shartnomaning muhim shartidir. Shuningdek, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, nomiga omonat qoʻyilgan uchinchi shaxs pul oʻz hisobvaragʻiga kelib tushgan

paytdan boshlab omonatchi huquqlarini qo‘lga kiritadi. Nomiga omonat qo‘yilgan uchinchi shaxs undan voz kechgan hollarda uchinchi shaxs nomiga bank omonati shartnomasi tuzgan shaxs omonatni qaytarib berishni talab qilishga yoki uni o‘z nomiga o‘tkazishi mumkin.

Bank omonat daftarchasi taqdim etilganida omonatni beradi, unga foizlar to‘laydi hamda omonatchining omonat bo‘yicha hisobvaraqdagi pul mablag‘larini boshqa shaxslarga o‘tkazish haqidagi topshirig‘ini bajaradi.

**Bank hisobvarag‘i shartnomasi** bankning mijozlarga xizmat ko‘rsatishiga oid bo‘lgan shartnoma hisoblanadi. Bu shartnoma o‘zining huquqiy belgilari, taraflarning huquq va majburiyatlariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish va ish bajarishga oid shartnomalar guruhiga mansubdir.

Bank hisobvarag‘i shartnomasidan asosiy maqsad shartnomada “mijoz” deb nomlanuvchi subyektlarga naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish xizmatini ko‘rsatish hasoblanadi. Fkning 771-moddasiga muvofiq, bank hisobvarag‘i shartnomasi bo‘yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit muassasasi ikkinchi tarafning – mijozning (hisobvaraq egasining) hisobvarag‘iga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va kiritib qo‘yish, mijozning hisobvaraqdan tegishli summalarini o‘tkazish va to‘lash hamda hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi.

**Hisob-kitoblar.** Fuqarolik-huquqiy munosabatda asosiy o‘rinni mulk bilan bog‘liq munosabat tashkil qilganligi bois, unda muayyan haq to‘lash, mulkiy manfaat bilan bog‘liq munosabat bo‘lishi tabiiy. Bunda to‘lanadigan haq, odatda, hisob-kitoblar orqali ta‘minlanadi. Hisob-kitobga oid munosabat hayotimizga shunchalik kirib borganki, buni kundalik turmushimizda, turli xizmatlardan foydalanish jarayonida (masalan, uyali aloqa telefoni, kommunal to‘lovlar, tashish xizmatlari uchun to‘lovlar kabi) ko‘p bora duch kelayotganligimizda ko‘rish mumkin.

Hisob-kitobga oid huquqiy munosabatda bir taraf “haq to‘lovchi” olingan tovar, bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat va boshqalar (majburiyat) evaziga ikkinchi tarafga ma‘lum miqdordagi haq (pul)ni “haq oluvchi”ga to‘laydi. Hisob-kitob munosabatlarning maqsadi pulni qarzdor qo‘lidan kreditor qo‘liga o‘tkazishni nazarda tutadi. Hisob-kitob majburiyatlari, odatda, shart-

nomalar bilan bogʻliq boʻladi. Zero, hisob-kitob majburiyatlari olingan tovar, bajarilgan ish, koʻrsatilgan xizmat boʻyicha tuzilgan shartnomalar ijrosiga qaratiladi.

FK hisob-kitobga oid munosabatlarni tartibga solishda xalqaro bank qoidalari, shuningdek, bank amaliyotida qoʻllaniladigan ish muomalasi odatlarini eʼtiborga olgan. Bundan tashqari, hisob-kitobga oid munosabatlar boshqa qonun hujjatlari (masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2013-yil 26-apreldagi 9/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar toʻgʻrisida”gi nizom. 2013-yil 3-iyun. Roʻyxat raqami: 2465)<sup>1</sup> bilan ham tartibga solinishi mumkin. Bugungi kunda butun dunyoda boʻlgani kabi mamlakatimizda ham hisob-kitoblarning anʼanaviy naqd va naqdsiz shakli amal qiladi. Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida soʻm yozib qoʻyilgan qiymati boʻyicha qabul qilinishi shart boʻlgan qonuniy toʻlov vositasi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi hududida majburiyatlar boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirish chogʻida chet el valyutasidan, shuningdek, chet el valyutasidagi toʻlov hujjatlaridan foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan hollar, tartib va shartlar asosida yoʻl qoʻyiladi (FK, 245-modda).


Hisob-kitoblarni amalga oshirish shakli ushbu munosabat ishtirokchilarining huquqiy maqomiga hamda toʻlov amalga oshirilayotgan asosga bogʻliq. Hisob-kitoblarning naqd shakli fuqarolar oʻrtasida amalga oshirilsa (bunda toʻlovchi pulni naqd koʻrinishda toʻlovni qabul qiluvchining qoʻliga beradi) hamda naqdsiz hisob-kitob shaklida (tijorat banklari orqali), odatda, yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar oʻrtasidagi hisob-kitoblarda naqd yoki naqdsiz shaklini tanlash imkoniyati mavjud boʻladi va bu borada qonunchilikda cheklov mavjud emas. Biroq yuridik shaxslar oʻrtasidagi hisob-kitoblarda naqdsiz hisob-kitoblar keng qoʻllaniladi. Koʻrsatib oʻtilgan shaxslar oʻrtasidagi hisob-kitoblar, agar qonunda boshqacha tartib belgilab qoʻyilgan boʻlmasa, naqd pulda ham amalga oshirilishi mumkin (FK, 790-modda).

---

<sup>1</sup> // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2013-yil, 23-son, 309-modda.

Sotib oluvchi yetkazib beriladigan tovarlar haqini shartnomada nazarda tutilgan hisob-kitoblar tartibi va shakliga amal qilgan holda to'laydi. Agar taraflar kelishuvida hisob-kitoblar tartibi va shakli belgilanmagan bo'lsa, hisob-kitoblar to'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladi (FK, 449-modda).

Qonun hujjatlarida naqdsiz hisob-kitob shakliga doir qoidalar belgilab qo'yilgan. Hisob-kitoblarning shakli mijoz va unga xizmat ko'rsatuvchi bankning naqdsiz to'lovni bajarish (qabul qilishi)ga doir majburiyatining ko'rinishi hisoblanadi. FKda naqdsiz hisob-kitoblarning shakllari sifatida to'lov topshiriqnomalari, akkreditivlar, cheklar bilan hisob-kitob qilishga, inkasso bo'yicha hisob-kitob qilish (FK, 791-modda; "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizom (2013-yil 3-iyun, ro'yxat raqami: 2465)) ko'rsatib o'tilgan. FK va ushbu nizomda hisob-kitoblarning an'anaviy to'rt shakli ko'rsatilgan bo'lsa-da, amaliyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda hisob-kitob hujjati sifatida memorial order hamda to'lov talabnomasi ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, qonunga muvofiq chiqariladigan bank qoidalarida hamda bank amaliyotida qo'llanilayotgan ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda hisob-kitob qilishga ham yo'l qo'yiladi.



Ma'lumki, insoniyat tarixi davomida naqd pul turli ko'rinishlarda: tilla, kumush, tanga, keyinchalik esa qog'oz pullar shaklida namoyon bo'lgan va doimiy ravishda to'lov vositasi sifatida muomalada bo'lib kelgan. Garchi naqd pul muomalasi ijtimoiy hayotda tobora kamayib borayotgan bo'lsa-da, ushbu to'lov shakli hanuz o'z ahamiyatini butunlay yo'qotmagan.

Har qanday mamlakat iqtisodida pul muhim ahamiyat kasb etadi hamda ishlab chiqarish, taqsimot, muomala va iste'mol

jarayonlarini qamrab oladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun muayyan shart-sharoit yaratib beradi. Naqd pul bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar, odatda, fuqarolar o'rtasida, masalan, ish haqi, nafaqa, mukofot, banklar tomonidan beriladigan kredit, sug'urta to'lovi va boshqa to'lovlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng o'z milliy valyutamizni muomalaga kiritish muhim va murakkab vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu borada mamlakatimizda har tomonlama asoslangan, izchil va tizimli iqtisodiy siyosat amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risidagi"gi PF-870-son farmoni bilan 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida "So'm" qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, hamma jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha turdagi to'lovlarga, shuningdek, banklar tomonidan omonatlarga va hisobvaraqlariga qo'shib qo'yish uchun hech qanday cheklovlersiz qabul qilinishi majburiy etib belgilangan.

Iqtisodiyot nazariyasida "pul" va "valyuta" kategoriyalari mavjud. Bunda pul va valyuta garchi bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bo'lavermaydi.

Har bir mamlakatning o'ziga xos milliy valyutasi (masalan, AQSh dollari, Angliyada "funt sterling", Yaponiyada "yuan" kabi), ayrim davlatlarda esa umumiy pul birliklari (masalan, Yevropa Ittifoqida muomalada bo'ladigan "yevro" pul birligi) naqd puldagi to'lov vositasi sifatida muomalada bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir. Bir so'm yuz tiyindan iborat. So'm O'zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega.

Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta'minlanadi. Yo'q qilib yuborilgan, yo'qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo'qotgan banknotlar va tangalarning o'rnini Markaziy bank qoplamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalari, shuningdek, ularning dizaynini Oliy Majlis Senatining Kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Banknot va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'ri-sidagi axborotni, shuningdek, ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyligi hisoblanadi.

Chet el valyutasi muomalada bo'lgan hamda xorijiy davlatda qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknotlar, xazina biletleri va tangalar ko'rinishidagi chet el pul belgilari, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan hamda xuddi shu xorijiy davlatning pul belgilariga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pul belgilari, shuningdek, hisobvaraqlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi hamda xalqaro pul yoki hisob-kitob birliklaridagi mablag'lardir.

Fuqarolar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan hisob-kitoblar naqd pul bilan cheklanmagan miqdorda amalga oshirilishi mumkin. Bunda naqd pul bilan hisob-kitob mustaqil majburiyat sifatida qaralmaydi. Naqd pulni berish, odatda, qarzdor tomonidan tovarlar sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishga doir fuqarolik-huquqiy majburiyat predmeti bo'lgan tegishli pul majburiyatini bajarishga doir harakatini ifodalaydi. Shu boisdan naqd pul bilan hisob-kitob qilish ushbu munosabat doirasi bilan bog'liq bo'ladi.

Naqd pul bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun har qanday yuridik shaxsda kassa va belgilangan shakldagi kassa daftari yuritilishi lozim. Aholidan naqd pul mablag'larini tashkilotlar tomonidan qabul qilishda nazorat kassa mashinalaridan foydalanilishi shart.

Tashkilotlar kassalarida belgilangan miqdordan ortiqcha bo'lgan naqd pullar o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka belgilangan tartibda va muddatlarda berilishi shart. Naqd pullar miqdori xizmat ko'rsatuvchi bank bilan kelishilgan holda aniqlanadi. Bunda ushbu miqdorni aniqlashda ushbu tashkilot faoliyatini ta'minlash

zarurati, shuningdek, faoliyat xususiyatlari va tashkilotning ish rejimi, tushum qilingan naqd pullarni xizmat ko'rsatuvchi bankka berish tartibi va muddatini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Tashkilot kassasiga naqd pullarni qabul qilish bosh buxgalter yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlanadigan kirim kassa orderi orqali amalga oshiriladi. Naqd pullarni kassaga kirim qiluvchi shaxsga bosh buxgalter va g'aznachi imzosi hamda shtampi qo'yilgan chipta taqdim qilinadi.

Tashkilotlar kassasidan naqd pullarni berish chiqim kassa orderi yoki boshqa hujjat (masalan, to'lov hujjati) asosida amalga oshiriladi. Chiqim kassa orderi yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi. Mehnatga haq to'lash, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar va stipendiyalar to'lash har bir pul oluvchi uchun chiqim kassa orderi bo'lishini taqozo etmaydi. Ushbu harakatlar g'aznachi tomonidan to'lov hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi.

Demak, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning bankdagi hisobvaraqlaridagi pullar quyidagi yo'llar bilan naqd pulga aylanadi:

- ishchi va xizmatchilarga ish haqi berish;
- ko'rsatilgan xizmatlar, mehnat uchun to'lovlar;
- nafaqalar to'lash;
- har xil mukofotlar;
- aholidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar sotib olishda;

- davlat zayomlari va lotereya biletlari bo'yicha to'lovlar;
- aholi banklardan jamg'armalarini olganda;
- aholiga sug'urta to'lovlari to'langanda va hokazo.

Naqd pullar quyidagi yo'llar bilan naqd pulsiz shaklga o'tadi:

- uy-joy va kommunal xizmatlar uchun to'lovlar;
- aloqa tashkilotlariga to'lovlar;
- har xil soliqlar va paylar to'laganda;
- davlat zayomlari va lotereya biletlari sotib olinganidagi tushumlar orqali;

- yakka tartibdagi qurilish uchun olingan kreditlarni to'laganda;

- har xil bojlar va jarimalarni to'laganda;
- dam olish uylari va boshqa sog'lomlashtirish muassasalari yo'llanmalari uchun to'langanda va boshqalar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarda to'lov vositasi sifatida naqd pul bo'lmaydi. Ular bank muassasalari tomonidan bir shaxsning hisobvarag'idan ikkinchi shaxsning hisobvarag'iga hisob-kitoblar amalga oshirilayotgan banklarning Markaziy bankdagi korrespondent hisobvaraqlari orqali pul o'tkaziladi va pul natura shaklida ishtirok etmaydi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar natijasida pul muomalasidagi naqd pullar miqdori kamayadi, naqd pullarning banklarda to'planishi hisobiga mablag'larning markazlashtirishiga yordam beradi, umuman, pul muomalasini tashkil etish va tartibga solishni yengillashtiradi.

Naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblar bir-biri bilan bog'liqdir. Masalan, korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan xodimlarga haq to'lashda ularning bank hisobvaraqlardagi pullar naqd pul shaklida to'lanadi. Ikkinchi tomondan, aholiga naqd pulga xizmat ko'rsatuvchi chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda boshqa tashkilotlar o'zlariga kelib tushgan naqd pullarni banklardagi hisobvaraqlarga o'tkazadi, ulardan naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun foydalanadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

- 1. Bank hisobvarag'i shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilarini yoriting.*
- 2. Bank hisobvarag'i shartnomasini yuridik rasmiylashtirishga doir masalalarni tushuntirib bering.*
- 3. Hisob-kitoblarga oid munosabatlar boshqa huquq sohalarida, xususan, bank, moliya, soliq huquqida ham qo'llaniladi. Fuqarolik huquqida hisob-kitoblarga oid munosabatning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.*
- 4. Mijoz topshirig'ini bajarishga doir amaldagi qonunchilikda qanday tartib nazarda tutilgan? Hisob-kitob turlari qo'llanishi haqida ma'lumot bering.*

## 14-mavzu. TOPSHIRIQ SHARTNOMASI. VOSITACHILIK SHARTNOMASI. MOL-MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH. KOMPLEKS TADBIRKORLIK LITSENZIYASI (FRANSHIZING) SHARTNOMASI

---

*Topshiriq shartnomasi. Ishonchli vakil. Vositachilik shartnomasi. Mol-mulkni ishonchli boshqarish. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasi. Litsenziat. Litsenziar.*

FKning 817-moddasiga muvofiq, topshiriq shartnomasi bo'yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi)ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo'yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi.

**Topshiriq shartnomasi** konsensual, ikki taraflama va, odatda, tekin tuziladigan shartnoma hisoblanadi. FKning 818-moddasiga muvofiq, agar qonun hujjatlarida yoki topshiriq shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, ishonchli vakilga haq to'lanishi shart. Agar topshiriq shartnomasi ikkala taraf yoki ulardan birining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lsa, topshiriq beruvchi, agar shartnomada boshqa hol nazarda tutilgan bo'lmasa, ishonchli vakilga haq to'lashi shart. Vakil talab qilingan hamma harakatlarni tegishli darajada amalga oshirgan, biroq topshiriq u aybdor bo'lmagan holda bajarilmay qolgan taqdirda ham haq to'lanishi kerak.

Mazkur shartnomaning yana bir o'ziga xos xususiyati uning fidutsiar xarakterga egaligida, ya'ni shaxsiy ishonchga asoslanganligida namoyon bo'ladi. Shartnoma taraflarining nomlanishi ham aynan shundan dalolat beradi: topshiriq beruvchi va ishonchli vakil. Ular o'rtasidagi munosabatlarda fidutsiarlikning yo'qolishi taraflar tomonidan shartnoma bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. FKning 823-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, topshiriq beruvchi istagan vaqtda topshiriqni bekor qilishga, vakil esa topshiriqdan bosh tortishga haqli. Bu huquqdan voz kechish haqidagi kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxslar shartnomaning taraflari bo'lishi mumkin. Agar topshiriq shartnomasi tijorat vakilligiga oid munosabatlarni rasmiylashtirsa, vakil sifatida yakka tartibdagi tadbirkor yoki tijoratchi yuridik shaxslar harakat qilishi mumkin.

Muayyan bir yuridik harakatlar amalga oshirishga doir xizmatlar mazkur shartnomaning predmetini tashkil etadi. Ushbu yuridik xizmatning asosiy mohiyatini fuqarolik muomalasi qatnashchisining maxsus vakolat berilgan shaxslar orqali bitimda taraf sifatida ishtirok etish imkoniyatini qo'lg'a kiritish tashkil etadi. Qonunning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmasiga muvofiq yoki o'ta shaxsiy tusga ega bo'lganligi tufayli vakil orqali amalga oshirilmaydigan yuridik harakatlar (vasiyatnoma tuzilishi, nikoh qayd etilishi) ushbu shartnomaning predmeti bo'lmaydi.

FKning 817-moddasida o'ratilgan qoidaga muvofiq, topshiriq shartnomasi qat'iy ravishda yozma shaklda tuzilishi lozim. Shartnoma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi.

Topshiriq shartnomasi muddati vakil tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan topshiriqning xarakterini hisobga olib aniqlanadi. Topshiriq shartnomasi vakil topshiriq beruvchining nomidan ish olib borishga haqli bo'ladigan muddatni ko'rsatgan yoki bunday muddatni ko'rsatmagan holda tuzilishi mumkin.

Topshiriq beruvchi ishonchli vakilga muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun ishonchnoma berishi nazarda tutilgan. Bunday hollarda shartnoma muddati berilgan ishonchnoma muddatidan kam bo'lishi mumkin emas. Shartnoma muddati ishonchnomaning amal qilish muddati bilan bir xil yoxud undan ortiq bo'lishi lozim.

Topshiriq shartnomasi ikki taraflama shartnoma hisoblanishi tufayli topshiriq beruvchi va ishonchli vakil tegishli huquqlarga ega bo'ladi va ularga tegishli majburiyatlar yuklanadi.

Vakil o'ziga berilgan topshiriqni topshiriq beruvchining ko'rsatmalariga muvofiq bajarishi shart. Topshiriq beruvchining ko'rsatmalari topshiriqni ijro etish usullari va tartibiga hamda vakil tomonidan amalga oshiriladigan bitimning shartlari va

mazmuniga doir bo'lishi mumkin. Qonunning qat'iy talabiga muvofiq ushbu ko'rsatmalar *aniq, yo'l qo'yiladigan va bajariladigan bo'lishi* lozim (FK, 819-modda).

Qoidaga ko'ra, topshiriq beruvchining ko'rsatmalaridan chetga chiqishga yo'l qo'yilmaydi. Biroq amaliyotda vakil unga berilgan ko'rsatmalarga muvofiq topshiriqni ijro etish imkoniga ega bo'lmagan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda quyidagi shartlarga amal qilgan holda vakilning topshiriq beruvchining ko'rsatmalaridan chetga chiqishiga yo'l qo'yiladi:

- ishning holatlariga ko'ra, topshiriq beruvchining manfaatlari uchun zarur bo'lsa;

- topshiriq beruvchidan bu haqda oldindan so'ray olmagan yoxud o'z so'roviga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa.

Bunday hollarda vakil imkoni bo'lishi bilan yo'l qo'yilgan chetga chiqishlar haqida topshiriq beruvchini xabardor qilishi shart. Topshiriq beruvchining ko'rsatmalaridan chetga chiqqan holda bajarilgan topshiriq lozim darajada bajarilgan deb hisoblanishi uchun uni o'z vaqtida xabardor etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatilgan ikki shartlardan birining mavjud bo'lmasligi vakil tomonidan amalga oshirilgan bitimning salbiy oqibatlarini uning zimmasiga yuklanishiga sabab bo'ladi.

Agar vakil tijorat vakili sifatida ish olib borayotgan bo'lsa, topshiriq beruvchi vakilga o'zining ko'rsatmalaridan chetga chiqish borasida kengroq harakat qilish erkinligini taqdim etishi mumkin. Topshiriq beruvchi tijorat vakili sifatida ish olib boradigan vakilga topshiriq beruvchining manfaatlarini ko'zlab, oldindan so'rov yubormagan holda topshiriq beruvchining ko'rsatmalaridan chetga chiqish huquqini berishi mumkin. Bunday hollarda tijorat vakili, agar topshiriq shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yo'l qo'yilgan chetga chiqishlar haqida topshiriq beruvchiga oqilona muddatda xabar berishi shart.

Vakilning topshiriqni shaxsan o'zi bajarishi navbatdagi majburiyati hisoblanadi. Ushbu majburiyat shartnomaning shaxsiy ishonchga asoslanganligidan, unda vakilning shaxsiga nisbatan ishonch muhim ahamiyat kasb etishidan kelib chiqadi. Topshiriqni

bajarish jarayonida vakil qoʻshimcha faktik harakatlarni (mashinist, duradgor, haydovchi, kompyuterda matn teruvchi va boshq.) amalga oshirish uchun yordamchi jalb etishi mumkin va bu holat majburiyatni shaxsan bajarishi lozim degan qoidadan chetga chiqish hisoblanmaydi. Yordamchining harakatlari uchun vakil topshiriq beruvchi oldida oʻz harakatlari kabi javob beradi. Agar shartnomada nazarda tutilmagan boʻlsa, yordamchini topshiriqni bajarishga jalb etish uchun topshiriq beruvchining roziligi talab etilmaydi.

**Vositachilik shartnomasi** xizmat koʻrsatishga oid shartnomalar tizimiga mansub hisoblanadi va bunda vositachi komitent koʻrsatmalariga muvofiq oʻz nomidan, lekin komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimlarni tuzadi. Xizmat koʻrsatishning bu turida vositachi tomonidan uchinchi shaxs uchun huquqiy oqibat tugʻdiradigan yuridik harakat sodir etiladi. Vositachilik yordamida mol-mulkni pulli realizatsiya qilishga doir kelishuvlar amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, u savdo vositachiligi munosabatini rasmiylashtiradi.

FKning 832-moddasiga muvofiq, vositachilik shartnomasi boʻyicha bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirigʻi boʻyicha oʻz nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. Vositachilik shartnomasining mohiyati shundaki, bunda bir shaxs – vositachi ikkinchi shaxs – komitentga muayyan bitimlarni tuzish boʻyicha xizmat koʻrsatadi. Vositachilik shartnomasining *predmeti* – vositachi koʻrsatadigan xizmatdir. Masalan, vositachi komitentga tegishli buyumni sotib berish xizmatini koʻrsatishi shartnoma predmetini tashkil etadi.

Vositachilik shartnomasining mohiyatini aniqlashda uning turdosh shartnomalardan farqli jihatlarini koʻrib chiqish lozim. Maʼlumki, vositachilik shartnomasiga yaqin shartnomalar jumlasiga topshiriq shartnomasi, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomalari kiradi. Topshiriq shartnomasi ham vositachilik shartnomasi kabi oʻzida uchinchi shaxsning muayyan topshigʻirini bajarish xizmatini ifodalaydi. Albatta, bunda vositachi va vakil bajarilishi lozim boʻlgan yuridik xatti-harakat va bitim sohasi boʻyicha muayyan bilim va malakaga ega boʻlishi talab etiladi.

Vositachilik shartnomasi quyidagi holatlar bo'yicha topshiriq shartnomasidan farq qiladi:

Bajarilishi lozim bo'lgan ko'rsatmalar va ko'rsatiladigan xizmat mazmuni va mohiyatiga ko'ra, agar topshiriq shartnomasi bo'yicha vakil muayyan yuridik harakatlarni amalga oshirish topshirig'ini olsa, vositachi faqatgina bir yoki bir necha bitimni tuzish ko'rsatmasini oladi. Masalan, topshiriq shartnomasiga ko'ra, vakilga mol-mulkni boshqarish va u bilan bog'liq barcha yuridik harakatlar berilsa, vositachiga faqatgina mol-mulkni sotish shartnomasini tuzish ko'rsatmasi beriladi.

Vakil topshiriq shartnomasi bo'yicha barcha harakatlarni topshiriq beruvchi nomidan amalga oshirsa, vositachi bitimni o'z nomidan tuzadi. Bunda vakil amalga oshirgan harakatlar uchun huquq va majburiyatlar uning o'zi uchun emas, balki topshiriq beruvchi uchun vujudga keladi. Vositachilik shartnomasida vositachining uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim yuzasidan huquq va majburiyatlar komitenda vositachida vujudga keladi.

**Mol-mulkni ishonchli boshqarish.** Mol-mulkni ishonchli boshqarish ham bozor munosabatlari qonuniyatlaridan kelib chiqib, mamlakatimizda amal qila boshlagan yangi fuqarolik-huquqiy shartnomalardan biri hisoblanadi. Mazkur shartnomaning mohiyati, birinchi navbatda, bozor munosabatlari sharoitida vujudga kelgan mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va ularning mulkiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish bilan belgilanadi. Zero, mol-mulkni ishonchli boshqarish orqali mulkdor o'z mulkidan begonalashmagan ("uzoqlashmagan") holda mulkiy huquqlarini amalga oshiradi va bu orqali foyda ko'radi.

Mol-mulkni ishonchli boshqarishning yana bir o'ziga xos jihati bu munosabatlarning o'zaro ishonchga asoslanishi va bu orqali "bo'sh turgan" mol-mulklar fuqarolik-huquqiy muomalaga kiritilishi evaziga, bozor munosabatlaridagi iqtisodiy muomalada moddiy ne'matlar almashinuvi vujudga kelishini ko'rsatib o'tish lozim.

Anglo-amerika huquq tizimi uchun xos boʻlgan mazkur shartnoma “ishonchli mulk” deb atalishi bilan birga, yaʼni mol-mulkni ishonishga asoslangan – fidutsiar (fiduciary ownership) va trust (trust) nomlari bilan ham keng tarqalgan.

FKning 849-moddasiga muvofiq, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi boʻyicha bir taraf (boshqaruvning muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol-mulkini muayyan muddatga ishonchli boshqaruvga topshiradi, ikkinchi taraf esa ushbu mol-mulkni boshqaruvning muassisi yoki u koʻrsatgan shaxs (foyda oluvchi) manfaatlarini koʻzlab, boshqarish majburiyatini oladi. Mazkur shartnomaga muvofiq, ishonchli boshqaruvchi mol-mulkni boshqarish yuzasidan oʻziga xos vakolatlarga ega boʻladi va uni amalga oshirish yuzasidan uchinchi shaxslar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarga kirishadi. Bu holat ishonchli boshqaruvchi maqomining mulkiy muomala ishtirokchilariga yuridik xizmat koʻrsatuvchi boshqa shaxslar, vakil, vositachi va agent maqomi bilan oʻxshash ekanligini anglatadi. Biroq topshiriq, vositachilik va vakillik shartnomalari bilan oʻxshashlik jihatiga ega boʻlsa-da, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi vositachilik xizmatini koʻrsatish shartnomalari guruhiga kirmaydi, ushbu shartnoma xizmat koʻrsatish boʻyicha oʻziga xos majburiyatlarni ifodalovchi fuqarolik-huquqiy shartnomalarning mustaqil turi sifatida namoyon boʻladi.

**Franshizing shartnomasini taʼriflashda** “mutlaq huquqlar” iborasi alohida eʼtiborni talab etadi. Mutlaq huquq bu maʼnoda intellectual (aqliy) mulk obyekti egasiga tegishli huquqning eksklyuzivligini bildiradi. Franshizing shartnomasini tuzar ekan, mutlaq huquq egasi oʻziga tegishli obyektidan boshqa shaxsning ham foydalanishi va bundan foyda olishi uchun rozilik beradi. Ammo huquqlarning mutlaqligi litsenziatga nisbatan eksklyuzivlikni bildirmaydi. Tegishlicha litsenziar mutlaq huquq egasi hisoblanib, xuddi shu huquqlarni boshqa shaxslarga ham berishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy biznesda franshizing biznesning shunday modeli, unda bir taraf (franchayzer) boshqa tarafga (franchayziga) haq evaziga oʻz nomidan ishlash huquqini beradi va shu tariqa sotuv bozorini kengaytiradi. Oddiy qilib aytganda, bu – brend “ijarasi”dir. Yirik kompaniya tadbirkorga oʻz brendi ostida mahsulotni sotish yoki xizmat koʻrsatish huquqini beradi.

Rivojlanayotgan korxonalar uchun franchayzingning eng asosiy afzalligi – vaqt va kuchning tejalishidir. Ishbilarmon biznes-reja, yetkazib berishlar, sotuvlar va marketing tizimini ishlab oʻtir-maydi. Butun tizim yaxshi yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa, bozorga chi-qish bilan bogʻliq barcha xavf-xatar ancha kamayadi.

Bunda franchayzi franchayzer tomonidan belgilanadigan muay-yan qonunlar va qoidalar asosida ishlash majburiyatini oladi. Yangi biznes boshidanoq franchayzer nazorati ostida boʻladi, u franchayzi tomonidan qabul qilingan barcha standartlarga rioya etilishini diqqat bilan kuzatib boradi.

Bu qoidalarga rioya qilish evaziga franchayzi kompaniya no-midan foydalanish, uning mahsuloti va xizmatlarini taklif qilish, uning ishlab chiqarish va marketing texnologiyalaridan foyda-lanish, texnologik koʻmagiga erishish huquqini qoʻlga kiritadi. Franchayzer-kompaniya esa yangi sotuvlar bozori va qoʻshimcha daromadni qoʻlga kiritadi. Ushbu barcha huquq va imtiyozlarni qoʻlga kiritish uchun tadbirkor franchayzerga dastlabki badalni toʻlaydi, keyin savdo belgisidan foydalanganlik uchun, shuningdek, uning qoʻllab-quvvatlashi, oʻqitishi va konsalting uchun har oy badallar toʻlab boradi. Bundan tashqari, u biznesni barpo etish, zarur asbob-uskunalarini sotib olish hamda vakolatli davlat organlarining faoliyat yuritishga ruxsatnomasini olish uchun xarajatlarni oʻzi qoplaydi.

Biroq bu, franchayzi tovar belgisining toʻliq egasi yoki kom-paniyaning toʻliq huquqli hamkori, degani emas. U bor-yoʻgʻi brendni “ijara”ga oladi hamda “ijara haqi”ni oʻz vaqtida toʻlab turganda va kompaniya manfaatlariga muvofiq harakat qilganda, undan foydalanish huquqiga ega. Bu haqning miqdori alohida kelishib olinadi va shartnomada mustahkamlab qoʻyiladi.

Tashqi koʻrinishdan franchizing tuzilmasi nomi bir xil va bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan yoki bitta tovar belgisi ostida xizmatlar koʻrsatadigan filiallar yoki shoʻba korxonalar tarmo-gʻiga oʻxshab ketadi. Filiallar tarmogʻiga misol qilib “Xalq banki”, “Oʻzbektelekom” AK yoki aloqa operatorlarini aytish mumkin. Shoʻba korxonalariga esa “General Motors”, “Nokia-Siemens” kabi kompaniyalar misol boʻla oladi. Filiallar va shoʻba korxonalarda franchizingdan farq qilib, mutlaq huquq obykti egasi yuqorida tilga olingan biznes-tuzilmalarga nisbatan mulkiy

huquqlarga ega bo‘ladi. Tegishincha, bunday mulkiy huquqlar egasi uchun o‘zining bo‘linmasi yoki sho‘ba korxonasiga mutlaq huquqlar obyektini berish va ulardan to‘lov olish uchun alohida shartnoma tuzishdan ma‘no yo‘q. Franshizing shartnomasi esa mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida tuziladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

1. *Topshiriq shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va shartnoma shakli.*

2. *Topshiriq shartnomasida qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatlari.*

3. *Vositachilik shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilarini tahlil qiling hamda vositachilik shartnomasining turdosh shartnomalar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini yoriting.*

4. *Vositachilik shartnomasi taraflari, ularning huquq va majburiyatlari tizimidagi umumiy va maxsus qoidalarning o‘zaro nisbatini ochib bering.*

5. *Mol-mulkni ishonchli boshqarish tushunchasi va qo‘llanish sohalari bo‘yicha topshiriq, agentlik va vositachilik shartnomalari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsating.*

6. *Mol-mulkni ishonchli boshqarishning vujudga kelish asoslarini – fuqarolik huquqining alohida subinstitut sifatidagi mohiyatini yoriting.*

## 15-mavzu. OMONAT SAQLASH VA UNING ALOHIDA TURLARI

---

*Omonat. Omonat saqlash. Omonat saqlash shartnomasi. Professional omonat saqlovchi. Lombard. Bojxona ombori. Lombardda omonat saqlash. Boyliklarni bankda saqlash. Ashyolarni transport tashkilotlarining yukxonalarida saqlash. Ashyoni tashkilotlarning kiyimxonalarida saqlash. Ashyoni mehmonxonada saqlash. Nizoli ashyolarni saqlash (sekvestr). Tovar omborida omonat saqlash.*

Omonat saqlash ashyoning buzilishi yoki o'g'irlanishining oldini olish kabi maishiy ehtiyojlarni ta'minlash maqsadida, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida amalga oshiriladigan keng tarqalgan xizmat ko'rsatish turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Omonat saqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar ilgari huquqiy tartibga solingan. Masalan, qadimgi rim huquqida mulkni vaqtincha saqlashga berish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalardan iborat bo'lgan "depositum" instituti mavjud bo'lgan. Omonat saqlash shartnomasi bo'yicha omonat saqlovchi saqlashga berilgan ashyoga nisbatan egalik qilish huquqigagina ega bo'lgan, omonat narsasidan foydalanishga faqatgina shartnomada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollardagina yo'l qo'yilgan. Har qanday holda ham mulkning egasi saqlashga topshiruvchi bo'lib qolavergan.

Omonat saqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar FKning 51-bobi normalari asosida shartnoma bilan tartibga solinadi. Omonat saqlash shartnomasi bo'yicha bir taraf (omonat saqlovchi) unga ikkinchi taraf (yuk topshiruvchi) bergan ashyoni saqlash va bu ashyoni to'la holda qaytarish majburiyatini oladi. Omonat saqlashni o'z kasb faoliyatining maqsadlaridan biri sifatida amalga oshiradigan tashkilot (professional omonat saqlovchi) omonat saqlash shartnomasida saqlovchining yuk topshiruvchidan ashyoni shartnomada nazarda tutilgan muddatda saqlashga qabul qilish majburiyati ko'zda tutilishi mumkin (FK, 875-modda).

Omonat saqlash shartnomasini boshqa shartnomalardan ajratib turuvchi huquqiy belgilari quyidagilardir: *birinchidan*, umumiy qoidaga binoan omonat saqlash real shartnoma bo'lib hisoblanadi, ya'ni ashyoni omonat saqlash yuzasidan taraflar o'rtasidagi hu-

quq va majburiyatlar yuk topshiruvchi tomonidan ashyoning omonat saqlovchiga topshirilishi paytidan e'tiboran vujudga keladi. Shuningdek, omonat saqlashni o'z kasbiy faoliyatining maqsadlaridan biri sifatida amalga oshiradigan tashkilot (professional omonat saqlovchi) yoki yuridik shaxslar o'rtasida omonat saqlash shartnomasi tuzilganda, mazkur shartnoma konsensual shartnomalar guruhiga taalluqli bo'ladi, chunki bunday shartnoma bo'yicha omonat saqlashga topshiruvchining ashyoni omonat saqlashga qo'yish va ikkinchi taraf, ya'ni omonat saqlovchining ashyoni qabul qilish yuzasidan shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari shartnomaning barcha muhim shartlari to'g'risida o'zaro kelishilgan va shartnoma tegishli shaklda rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab vujudga keladi; *ikkinchidan*, omonat saqlash shartnomasi haq evaziga yoki tekinga tuzilishi mumkin, bu shartnoma bo'yicha omonat saqlovchi sifatida kim (professional omonat saqlovchi) ishtirok etayotgani bilan bog'liqdir. Omonat saqlash haq evaziga tuzilganda, FKning 885–886-moddalariga qo'llaniladi; *uchinchidan*, shartnoma munosabatlari tarkibiga ko'ra, shartnomaning bir tarafdama yoki ikki tarafdama bo'lishi yuzasidan olimlar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Tekinga tuzilgan va real omonat saqlash shartnomasi bir tarafdama hisoblanadi, chunki bunday shartnoma bo'yicha shartnoma narsasiga nisbatan yuk topshiruvchida huquqlar, omonat saqlovchida esa majburiyatlar yuzaga keladi. Haq evaziga omonat saqlash shartnomasida yuk topshiruvchi omonat saqlovchining xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatiga, omonat saqlovchi esa omonatni saqlaganlik uchun haq olish huquqiga ega bo'ladi. Bu holat omonat saqlash shartnomasini ikki tarafdama shartnomalar turkumiga kiritishni nazarda tutadi.

Omonat saqlash shartnomasining subyektlari sifatida ikki taraf – yuk topshiruvchi va omonatni saqlovchi ishtirok etadi. Umumiy qoidaga ko'ra, yuk topshiruvchi saqlashga taqdim etilgan mulkning egasigina emas, undan egalik qilish yoki foydalanish huquqiga ega har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin, masalan, ijaraga oluvchi, yuk tashuvchi, pudratchi va boshqalar. Biroq omonat saqlashning alohida turlarida (masalan, tashkilotning garderobiga ashyoni qoldirish) ashyoni saqlashga topshirishga faqatgina muayyan guruhdagi shaxslar haqli bo'lishi mumkin. Omonat saqlovchi – faoliyati bevosita fuqarolar va

yuridik shaxslar tomonidan topshiriladigan ashyolarni saqlash va ularni bus-butun holda yana o'z egalariga qaytarib berish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. Odatda, asosiy professional faoliyatining turi sifatida omonat saqlovchilar hamda boshqa tadbirkorlik subyektlari ham omonat saqlovchi sifatida ko'rilishi mumkin. Yuridik shaxslar o'zlarining ustav (nizom)larida nazarda tutilgan hollardagina omonat saqlash faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Masalan, bozorlarning asosiy faoliyat maqsadi iste'mol tovarlari keng assortimentining chakana va mayda ulgurji oldi-sotdisiga mo'ljallangan bo'lsa-da, o'z hududida tashkil etiladigan omborxonalarda har tomonlama foydali shartlarda omonat saqlovchi sifatida ishtirok etishi ham mumkin. Chunki bozorda sotiladigan tovarlar har doim ham mulk egasi tomonidan olib kirib, ish vaqti tugagandan so'ng olib chiqib ketilmaydi. Bunday hollarda bozor hududida tashkil etiladigan omborxonalar xizmatidan foydalaniladi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, banklarning asosiy vazifasi moliyaviy (qarz, kredit, to'lov) operatsiyalarini amalga oshirishdir. Biroq banklar, o'z navbatida, fuqarolarga tegishli bo'lgan qimmatbaho toshlar, nodir hujjatlar va turli boyliklarni saqlash kabi qo'shimcha xizmatni ham amalga oshiradilar<sup>2</sup>.

Omonat saqlash shartnomasining ayrim turlarini (masalan, lombardda saqlash, radioaktiv moddalar, alkogol mahsulotlarni saqlash) tuzish uchun qonunda belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo'lish lozim<sup>3</sup>.

Bugungi kunda professional omonat saqlovchilar ko'plab uchraydi. Jumladan, bojxona ombori, bozorlardagi omborxonalar faoliyatini ko'rsatib o'tish mumkin. Bojxona ombori – maxsus jihozlangan va belgilangan joy bo'lib, binolarning hududi va (yoki) ochiq maydonchalarni o'z ichiga oladi hamda tovarlarni vaqtincha saqlash va (yoki) bojxona ombori rejimlarida bojxona nazorati ostida saqlashga mo'ljallangan bo'ladi. Bojxona om-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh: Ilmiy sharhlar. T. 3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktria press, 2013. 35-b.

<sup>2</sup> Fuqarolik huquqi (II qism). – Toshkent: TDYI, 2008. 500-b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida"gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002-yil, 2-son, 14-modda.

borida O‘zbekiston Respublikasiga olib kelish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni (bojxona organlari tomonidan olib qo‘yilgan va bojxona organlari tomonidan ta‘sis etilgan bojxona omboriga joylashtirilgan tovarlar bundan mustasno) hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo‘lishi va sotilishi taqiqlangan tovarlarni saqlashga ruxsat berilmaydi. Bojxona ombori ochiq yoki yopiq turda bo‘lishi mumkin. Ochiq turdagi bojxona omboridan har qanday shaxslar foydalanishi mumkin. Yopiq turdagi bojxona omborida esa muayyan shaxslar, qoidaga ko‘ra, ombor egasining tovarlarini saqlashga yoki muayyan tovarlarni, shu jumladan, muomalada bo‘lishi cheklangan tovarlarni saqlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday shaxslar va tovarlar doirasi bojxona omborini ta‘sis etishda bojxona organi bilan kelishuv bo‘yicha bojxona ombori egasi tomonidan belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan bojxona omborlari ham faoliyat yuritishlari mumkin. Ya‘ni ochiq va yopiq turdagi bojxona omborlaridan saqlashning alohida shart-sharoitlarini talab etuvchi yoki boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tovarlarning ayrim turlarini saqlash uchun foydalaniladi. Qoidaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan ta‘sis etiladigan bojxona omborlari ochiq turdagi bojxona omborlari hisoblanadi. Bojxona ombori faoliyati litsenziyalanadigan faoliyat turi sanaladi.

Omonat saqlash shartnomasining *predmeti* omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga ko‘rsatiladigan xizmatlar majmuyi hisoblanadi. Mazkur xizmatlarning obyekt bo‘lib fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan, fuqarolar va yuridik shaxslarning iste‘mol maqsadlariga mo‘ljallangan ko‘char mol-mulklar bo‘lishi mumkin. Jisimiy xususiyatlari jihatidan omonat saqlovchining ixtiyoridagi binoga yoki hududga joylashtirilishi mumkin bo‘lgan buyumlargina omonat saqlash shartnomasining obyekt bo‘la oladi. Shu sababli ko‘chmas mol-mulk va hajmi ulkan obyektlar bo‘yicha omonat saqlash shartnomasi tuzilishi mumkin emas. Ya‘ni ko‘chmas mol-mulklar, masalan, yer uchastkalari, binolar, inshootlar, uy-joy va boshqa obyektlar qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari omonat saqlash shartnomasining obyekt bo‘lib hisoblanmaydi. Ko‘chmas mulklarni saqlash uchun qo‘riqchi tayinlanishi mumkin. Masalan, FKning 900-moddasiga ko‘ra,

ko'chmas mulklar sekvestr tartibida (nizoli ashyolarni saqlash) saqlashga topshirilishi mumkin.

Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, omonat saqlash shartnomasining shakli uni tuzish holatlari va turidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Agar omonat saqlash shartnomasi tomonlaridan biri yuridik shaxs bo'lsa yoki shartnoma obyektining qiymati eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, yozma ravishda tuzilishi kerak. Quyidagi hollarda omonat saqlash shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi: 1) agar ashyoning saqlashga qabul qilinganligi fakti omonat saqlovchi tomonidan yuk topshiruvchiga saqlash tilxati, pattasi, guvohnomasini, omonat saqlovchi imzolagan boshqa hujjatni berish yo'li bilan tasdiqlangan bo'lsa; 2) agar bunga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilgan yoki u saqlashning ushbu turi uchun odatdagi hol bo'lsa, ashyolar saqlash uchun qabul qilinganligini tasdiqlaydigan nomerli jeton (nomer) yoki boshqa belgi berilgan bo'lsa.

Masalan, fuqaro A. yozgi mavsumda qishki ustki kiyimlarni saqlovchi maxsus firmaga qimmatbaho paltoni saqlashni so'rab murojaat qildi. Paltoni qabul qilayotib, firma tomonidan hech qanday patta yoki boshqa turdagi hujjat berilmadi. A. tomonidan muayyan vaqt o'tganidan so'ng paltoni qaytarib olish uchun murojaat qilinganida, firma paltoni qaytarib berish majburiyatini isbotlovchi hech qanday hujjat yo'qligini bildirib, talabni rad etdi.

Omonat saqlash shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik saqlashga qabul qilingan ashyo bilan omonat saqlovchi qaytargan ashyoning aynan o'ziligini xususida nizo chiqqan taqdirda, taraflarni guvohlarning ko'rsatmalarini vaj qilib keltirish huquqidan mahrum etmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ashyo saqlash uchun favqulodda holatlarda (yong'in, tabiiy ofat, to'satdan kasal bo'lish, hujum xavfi va boshqalar) topshirilgan bo'lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilish talab etilmaydi.

Omonat saqlash shartnomasining muddati omonat saqlovchiga ashyoni saqlash majburiyati yuklangan vaqt davri bilan belgilanadi. Omonat saqlash shartnomasi muddatli yoki muddatsiz bo'lishi mumkin. Muddatli omonat saqlash shartnomasi ma'lum bir muddat uchun, muddatsiz shartnoma esa muddati ko'rsatilmagan holda yuk topshiruvchi tomonidan talab qilib olingunga qadar tuziladi. Biroq muddatli omonat saqlash shartnomasida ham

yuk topshiruvchi xohlagan vaqtda, hatto omonat saqlash shartnomasi muddati tugamagan bo'lsa ham, o'ziga tegishli bo'lgan ashyoni qaytarib olishi mumkin. Agar saqlash muddati ashyoni yuk topshirgan shaxs tomonidan talab qilib olish paytigacha belgilangan bo'lsa, omonat saqlovchi bunday vaziyatlarda ashyoni saqlashning odat bo'lgan muddati tugagach, ashyoning yuk topshirgan shaxs tomonidan qaytarib olinishini talab qilishga haqli. Buning uchun omonat saqlovchi yuk topshiruvchiga oqilona muddat beradi. Agar yuk topshiruvchi ashyoni qaytarib olishni rad qilgan yoki bosh tortganda, omonat saqlovchi yuk topshiruvchini yozma tarzda ogohlantirgan holda ashyoni sotish yoki uni auksionga qo'yishga haqli. Sotishdan tushgan pul mablag'i omonat saqlovchi tomonidan ashyoni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplagan holda yuk topshiruvchiga o'tkazib beriladi.

Masalan, fuqaro D. vokzaldagi yuk saqlash omboriga yuk topshirdi. Poyezd jo'nab ketishiga qadar hali ancha vaqt borligi tufayli D. taksida do'konga borib kelishga qaror qildi. Boshqaruvni yo'qotgan taksi haydovchisi avtohalokat sodir etdi va natijada D. bosh miya jarohatiga uchrab, kasalxonada olti oy mobaynida davolandi. Kasalxonadan chiqib, vokzalga borib, yuklarini qaytarib olish to'g'risida murojaat qilganida, uning yuklari sotib yuborilganligi ma'lum bo'ldi.

Yuk topshiruvchi shartnomada nazarda tutilgan saqlash muddati tamom bo'lgach, saqlash uchun topshirilgan ashyoni qaytarib olishi shart. Yuk topshiruvchi ashyoni olishdan bosh tortgan taqdirda, agar omonat saqlash shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonat saqlovchi ashyoni mustaqil sotishga, uning qiymati belgilangan eng kam ish haqining ellik baravariga teng summadan ortiq bo'lgan taqdirda esa FKning 379, 380 va 381-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sotishga haqli. Ashyoni sotishdan tushgan summa omonat saqlovchiga tegishli haq chegirib tashlangach, yuk topshiruvchiga beriladi.


Agar omonat saqlash shartnomasi konsensual bo'lsa, unda ashyoni saqlashga topshirishning aniq vaqtini belgilash zarur. Agar qayd qilingan shartnomada belgilangan muddatda omonat saqlovchi ashyoni qabul qilishni rad qilsa, shartnoma shartlari buziladi va uni javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. O'z navbatida, yuk topshiruvchi shartnomada kelishilgan tartibda

ashyoni omonat saqlovchiga topshirishi, aks holda, omonat saqlovchiga yetkazilgan zararni qoplashi lozim.

Omonat saqlovchi faqatgina qonunda yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda yuk topshiruvchidan ashyoni qaytarib olishini talab qilishi mumkin. Jumladan, agar saqlash uchun topshirilgan ashyolar, saqlash shartlariga rioya qilinganligiga qaramay, atrofdagilar yoki omonat saqlovchining yoxud uchinchi shaxslarning mulki uchun xavf tug'dirgan taqdirda, omonat saqlovchida bunday huquq vujudga keladi. Ayrim professional faoliyat sifatida omonat saqlashga nisbatan alohida tartib belgilanishi mumkin. Chunonchi, tez buziladigan tovarlar bojxona omborida bunday tovarlardan o'z vazifasiga ko'ra foydalanish imkonini beruvchi ularning sifati saqlanib qolishi muddati doirasida, biroq tanlangan bojxona rejimiga muvofiq belgilangan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatda saqlanishi mumkin. Qoida tariqasida, tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Tovarlar saqlashning cheklangan muddati bir yildan kam bo'lmashligi kerak (saqlash, iste'mol qilish va sotishga yaroqlilik muddatlari cheklangan tovarlar bundan mustasno). Saqlashning aniq muddatlari belgilangan me'yorlarda tovarlarni saqlashga joylashtiruvchi shaxs tomonidan ombor egasi bilan birgalikda aniqlanadi. Saqlash, iste'mol qilish va sotishga yaroqlilik muddatlari cheklangan tovarlar belgilangan muddat o'tishidan oltmish kun oldin boshqa bojxona rejimiga rasmiylashtirilishi va bojxona omboridan olib chiqib ketilishi lozim.

Haq evaziga tuziladigan omonat saqlash shartnomasining muhim elementi bu uning bahosidir. Shartnomaning bahosi taraflarning kelishuvi, qoida tariqasida u amaldagi tarif va stavkalar bilan belgilanadi. Agar yuk topshiruvchi ashyoni saqlash muddati o'tganidan keyin saqlovchidan olmasa, u keyingi saqlaganlik uchun mukofot puli to'lashi lozim. Ushbu qoida yuk topshiruvchiga saqlash muddati tugaguniga qadar ashyoni olish majburiyati yuklangan hollarda qo'llaniladi. Omonat saqlash shartnomasida ashyoni, agar uning xususiyatlari imkoni bo'lsa, topshirilgan vaqtdagi holatidan o'zgartirmay saqlash vazifasi – asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Omonat saqlashning ayrim turlari normativ xarakterdagi qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

**Omonat saqlashning alohida turlari.** Fuqarolik kodeksiga koʻra omonat saqlashning umumiy qoidalari bilan birgalikda omonat saqlashning alohida turlariga oid normalar belgilangan. Shunga koʻra, omonat saqlash shartnomasini oddiy omonat va alohida omonat turlariga boʻlish mumkin. Oddiy omonat saqlashda omonat saqlashning umumiy qoidalari (FK, 875–93-moddalar)ni qoʻllashning oʻzi kifoya qiladi.



Bundan tashqari, omonat saqlashning maxsus turi sifatida madaniy boyliklarni, muzeyga tegishli boʻlgan boyliklar va boshqalarni omonat saqlash oʻz xususiyatlariga ega. Bularni saqlashning har birida qoʻllaniladigan omonat saqlash xizmati faoliyati bir-biridan ajralib turadi.

Amaliyotda oddiy (tinch) va favqulodda holatlarda omonat saqlash shartnomalari tuzilishi mumkin.

Oddiy holatda omonat saqlash shartnomasi – tinchlik paytida, FKda oʻrnatilgan qoidalarga rioya qilingan holda tuziladi. Favqulodda holatlarda, yaʼni turli tabiiy ofatlar, harbiy holatlar, kutilmagan kasalliklarning tarqalishi natijasida tuziladigan omonat saqlash shartnomasini FK bilan oʻrnatilgan qoidalarning ayrim-

lariga rioya qilmasdan ham tuzishlari mumkin. Masalan, fuqaro mol-mulkini favqulodda holatlarda omonat saqlash shartnomasining yozma shakliga rioya etmasdan ham omonat saqlovchiga topshirishi mumkin.

Omonat saqlashning yana bir turi ashyoni egasizlantirib saqlashdir. Amaliyotda ashyolar egasizlantirib saqlanganida, saqlash uchun qabul qilingan ashyolar boshqa yuk topshiruvchilarning shunga o'xshash va shunday sifatli ashyolari bilan aralashtirib yuborilishi mumkin. Saqlash uchun topshirilgan bunday ashyolar, narsalar bir-birlariga aralashtirilishi, ya'ni egasizlantirilishi sababli omonat qo'ygan shaxs o'zi topshirgan buyumlarni qaytib olganida, o'z buyumlarini emas, balki jism va xil jihatidan o'sha buyumlarga to'g'ri keladigan boshqa narsalarni oladi. Bunday saqlashga egasizlantirib saqlash deb aytiladi.

**Lombardda omonat saqlash** professional omonat saqlashning bir turidir. "Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi (2003-yil 10-dekabr; ro'yxat raqami: 1291) nizomga muvofiq, lombard sifatida maxsus yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, faqatgina O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan tegishli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi subyekt bo'lishi mumkin. Lombard uchun garovga beriladigan qisqa muddatli qarz (kredit) berish va saqlash bo'yicha xizmatlar uchun olinadigan haq tadbirkorlik daromadining manbayi hisoblanganligi sababli lombardda omonat saqlash haq evaziga amalga oshiriladigan bitim hisoblanadi. Garov evaziga kredit berish lombard va mijoz o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi va garov shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Lombardda omonat saqlash shartnomasiga muvofiq, fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan iste'mol qilinmaydigan ashyolarni haq evaziga kelajakda ashyoni, mulkni egasiga qaytarish sharti yoki mulk egasi qaytarib olish sharti bilan topshiradi. Lombardda saqlanadigan obyekt sifatida shaxsiy iste'mol uchun mo'ljallangan (tovar bo'lmagan) ko'char ashyo bo'lishi mumkin. Ushbu shartnoma ommaviy shartnoma hisoblanadi, shuning uchun lombardlar mazkur xizmat ko'rsatilishi uchun murojaat qilgan har bir kishi bilan omonat saqlash shartnomasini tuzishi lozim.

**Boyliklarni bankda saqlash.** Omonat saqlashning yana bir alohida turi boyliklarni bankda omonat saqlashdir. Bank bank

operatsiyalaridan tashqari, mijozlar bilan turli bitimlarni tuzishi mumkin. Jumladan, bank qimmatli qog'ozlarni, qimmatbaho metallar va toshlarni, boshqa boyliklarni, shuningdek, hujjatlarni saqlash uchun qabul qilishi mumkin. Bunda tuzilayotgan omonat saqlash shartnomasining shartlari omonat saqlash to'g'risidagi umumiy qoidalarni inobatga olingan holda, taraflar tomonidan aniqlanadi. Shartnoma bank tomonidan yuk topshiruvchiga nomi ko'rsatilgan saqlov hujjatini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Yuk topshiruvchi saqlanayotgan boyliklarni berish uchun bankka ushbu hujjatni taqdim qilish kerak. Mazkur shartnoma ommaviy shartnoma belgilariga ega va haq evaziga amalga oshiriladigan shartnoma hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni saqlash shartnomasida nazarda tutilgan hollarda bank ularning to'liq saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu qog'ozlarga nisbatan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni ham vakillik asosida amalga oshirishi mumkin.

**Ashyolarni transport tashkilotlarining yukxonalarida saqlash** omonat saqlash shartnomasining bir turi bo'lib, FKning 897-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, transport tashkilotlarining ixtiyoridagi yukxonalar yo'lovchilar va boshqa fuqarolardan, ularda yo'l hujjatlari bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, ashyolarni saqlash uchun qabul qilishi shart. Ashyoni transport tashkilotlarining yukxonalarida saqlash shartnomasi ommaviy hisoblanadi.

Ashyo saqlash uchun yukxonaga qabul qilinganligini tasdiqlash yuzasidan (avtomat yukxonalardan tashqari) yuk topshiruvchiga patta yoki nomerli jeton beriladi.

Patta yoki jeton yo'qotilgan taqdirda yukxonaga topshirilgan ashyo yuk topshiruvchiga ushbu ashyo o'ziga qarashli ekanligining isbotini taqdim etgan taqdirda beriladi.

**Ashyoni tashkilotlarning kiyimxonalarida saqlash.** Agar tashkilotlarning kiyimxonalarida ashyolarni haq evaziga saqlash haqida ashyoni saqlashga topshirish vaqtida kelishib qo'yilgan yoki boshqa ochiq usulda shartlashilgan bo'lmasa, ularda ashyo saqlash bepul hisoblanadi (FK, 898-modda).

Bu usulda omonat saqlash uchun, asosan, ustki kiyimlar, bosh kiyimlar va boshqa ashyolar topshiriladi. Ashyo kiyimxonada saqlash uchun qabul qilib olinganligini tasdiqlash uchun saqlovchi

yuk topshiruvchiga nomerli jeton yoki ashyo saqlash uchun qabul qilib olinganligini tasdiqlovchi boshqa belgi beradi.

**Ashyoni mehmonxonada saqlash.** Mehmonxonada yashayotgan shaxs tomonidan olib kirilgan ashyolarning yoʻqolganligi, kam chiqqanligi yoki shikastlanganligi uchun omonat saqlovchi sifatida alohida kelishuv boʻlmagan taqdirda ham javob beradi, ashyo yengib boʻlmaydigan kuch, ashyoning oʻz xossalari oqibatida yoki mehmonxonada yashovchining oʻzi, uning hamrohlari yoki uning yoniga kelgan shaxslar aybi bilan yoʻqolgan, kam chiqqan yoki shikastlangan hollar bundan mustasno (FK, 899-modda).

Mehmonxonada xodimlariga ishonib topshirilgan ashyo yoki moʻljallangan joyga (mehmonxonada nomeri va boshqalarga) joylashtirilgan ashyo mehmonxonaga olib kirilgan ashyo deb hisoblanadi.

Pul, boshqa valyuta qimmatliklari, qimmatli qogʻozlar va boshqa qimmatbaho ashyolar saqlash uchun alohida omonat saqlash shartnomasi boʻyicha qabul qilib olingan boʻlsagina, mehmonxonada ularning yoʻqolganligi uchun javobgar boʻladi.

**Nizoli ashyolarni saqlash (sekvestr).** Omonat saqlashning yana bir turi sekvestr toʻgʻrisidagi shartnomadir. Sekvestr toʻgʻrisidagi shartnoma boʻyicha ashyoga egalik qilish xususida oralarida nizo chiqqan ikki yoki bir necha shaxs nizoli ashyoni uchinchi shaxsga beradilar. Uchinchi shaxs nizo hal boʻlgach, ashyoni sud qarori bilan yoki nizolashayotgan hamma shaxslarning kelishuviga muvofiq kimga tegishli boʻlsa, oʻsha shaxsga qaytarib berish majburiyatini oladi (shartnoma sekvestri).

Nizoli ashyo sudning qaroriga koʻra sekvestr tartibida saqlash uchun topshirilishi mumkin (sud sekvestri). Sud tomonidan tayinlangan shaxs ham, shuningdek, bahslashayotgan taraflarning oʻzaro kelishuviga muvofiq belgilanadigan shaxs ham sud sekvestri boʻyicha omonat saqlovchi boʻlishi mumkin. Har ikkala holda ham, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, omonat saqlovchining roziligi talab qilinadi (FK, 900-modda). Shartnomaga berilgan taʼrifga koʻra sekvestrning ikki turi mavjud: 1) shartnoma sekvestri; 2) sud sekvestri.

**Tovar omborida omonat saqlash.** Tovar ombori tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, oʻzining tijorat faoliyati yoʻnalishi

sifatida ashyolarni saqlash bo'yicha xizmatlar majmuyini ko'rsatuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan subyekt hisoblanadi. Tovarlarini omborda saqlash uchun topshiruvchi hamda tovar ombori xizmatini ko'rsatuvchi tashkilot o'rtasida fuqarolik huquqiy shartnoma asosida omonat saqlash amalga oshiriladi. *Tovar ombori* tadbirkorlik faoliyati sifatida tovarlarni saqlaydigan va saqlash bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatadigan tashkilotdir. Tovar ombori maxsus va umumiy foydalanishdagi tovar ombori sifatida faoliyat yuritadi. Agar qonun hujjatlariga muvofiq, tovar ombori tovarlarni saqlash uchun chegaralangan doiradagi shaxslardan qabul qilishi mumkin bo'lgan omborlar jumlasiga kiritilgan bo'lsa, u umumiy foydalanishdagi ombor deb hisoblanadi.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. *Omonat saqlashning umumiy qoidalarini amaliy misollar bilan tahlil qiling.*

2. *Omonat saqlashning alohida turlari bo'yicha saqlash tartibi va shartlarini tanqidiy tahlil qiling.*

3. *Aksariyat supermarketlarga kiraverishda xaridorlardan sumkalarni qoldirib kirishni talab qilishadi. Biroq saqlash kameralaridagi buyumlarning yo'qolganligi uchun ma'muriyat javob bermasligi ta'kidlanadi.*


*Ushbu holat qonuniymi? Javobingizni fuqarolik qonunligi normalari bilan asoslab bering.*

## 16-mavzu. SUG'URTA

*Sug'urta. Sug'urta shartnomasi. Sug'urta bozori professional ishtirokchilari. Tadbirkorlik xavfi. Sug'urta tavakkalchiligi. Sug'urta mukofoti. Sug'urta to'lovi. Sug'urta haqi. Sug'urta mablag'i.*

Sug'urtaning mohiyati shundan iboratki, sug'urta qiluvchilarning davriy badallari hisobidan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta qildiruvchining mulkiy talafotlarini kamaytirish yoxud boshqacha talafotlar (masalan, o'lim, sog'lig'i shikastlanishi va h.k.) oqibatlarini yumshatish hisoblanadi. Bunda bir subyekt ko'rgan zarar sug'urta vositasida boshqa yuzlab subyektlar badallari hisobidan qoplanadi. Biroq bu holat o'sha yuzlab subyektlar uchun og'ir yuk bo'lib tushmaydi, badal to'lovchilar va bu badaldan real foydalangan subyektlar o'rtasida ziddiyatlar, noroziliklar keltirib chiqarmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon iqtisodiy-huquqiy maydonda



Mamlakatimizdagi sugʻurta faoliyatini ijtimoiy sugʻurta va fuqarolik sugʻurta xizmatlariga ajratish mumkin. Ijtimoiy sugʻurta mehnat huquqi, moliya huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Sugʻurta munosabatlarini huquqiy tartibga solish tizimi ham ommaviy, ham fuqarolik huquqiy asoslarga ega. Sugʻurta faoliyatini litsenziyalash tartibi, sugʻurta faoliyati ustidan davlat nazorati, sugʻurta tashkilotlariga qoʻyildigan talablar ommaviy huquqiy normalar taʼsiri ostida boʻladi.

Sugʻurta faoliyati boʻyicha shartnomaviy munosabatlar Fuqarolik kodeksi, “Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Sugʻurta faoliyatini amalga oshirishning oʻziga xos xususiyatlari va sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining huquqiy maqomi 2002-yil 5-apreldagi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun asosida belgilanadi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotning muayyan sohalari boʻyicha majburiy sugʻurta amal qiladi. Jumladan, transport vositalari egalari fuqarolik huquqiy javobgarligining majburiy sugʻurtasi, ish beruvchining fuqarolik huquqiy javobgarligining majburiy sugʻurtasi, tashuvchining fuqarolik huquqiy javobgarligining majburiy sugʻurtasi.

Sugʻurta faoliyati professional ishtirokchilari sugʻurtalovchi, sugʻurta agenti, sugʻurta brokeri, qayta sugʻurta brokeri, sugʻurta agenti, adjaster, aktuar tashkilot, aktuariy, sugʻurta suyurveyeri, assistanslardir.

Sugʻurtalovchi – tegishli turdagi sugʻurtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega boʻlgan va sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurta toʻvoni (sugʻurta puli) toʻlovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti boʻlgan yuridik shaxs sugʻurtalovchi deb eʼtirof etiladi.

Sugʻurta brokeri – sugʻurta qildiruvchining nomidan va topshirigʻiga binoan, sugʻurta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sugʻurta brokeri hisoblanadi.

Qayta sugʻurta brokeri – oʻz nomidan va qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuv-

---

<sup>1</sup> // Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 4-5-son, 68-modda.

chi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan, qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta agenti – sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan, sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Adjaster – adjaster sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish, sug'urta hodisasi faktlari va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, sug'urta obyektining shikastlanish sabablari va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash, sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda – sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash, to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovi summasini aniqlash, sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish va shu kabi boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Aktuar tashkilot – sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmuyi bo'yicha zarar yetkazilishining takroriyliigi va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash; sug'urtalovchining zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish; sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash; sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish; sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash; sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash; sug'urtalovchining da-

romadlarini sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har xil turlari boʻyicha rejalashtirish; aktuar hisob-kitoblarini amalga oshirish boʻyicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish kabi xizmatlarni koʻrsatuvchi tashkilot.

Aktuariy – maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Sugʻurta syurveyeri – sugʻurta syurveyeri quyidagilar boʻyicha xizmatlar koʻrsatuvchi, oʻz shtatida tegishli mutaxassislariga ega boʻlgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega boʻlgan jismoniy shaxsdir.

Assistans – assistans sugʻurta qildiruvchilarga (sugʻurtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sugʻurtalovchilarga sugʻurta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar koʻrsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy koʻmak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi bilan insonlar ixtiyoriy tarzda mablagʻ toʻplab, turli tasodifiy voqealardan oʻzlarini himoya qilishga faol kirisha boshladilar. Shu maqsadlarda, sugʻurta sohasiga ixtisoslashgan va uni oʻzining tadbirkorlik – tijorat faoliyati shakli qilib olgan subyektlarga (sugʻurtalovchilarga, sugʻurta tashkilotlariga) oldindan muayyan miqdordagi badallar toʻlash yoʻli bilan himoyalash vazifasini sugʻurta tashkilotlari zimmasiga yuklaganlar.

Sugʻurta boʻyicha shartnomaviy munosabatlar FK, shuningdek, sugʻurta bozori subyektlari maqomi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun bilan belgilangan.

Shu bilan birga, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning ayrim turlarini sugʻurtalash maqsadida 2008-yil 21-aprelda “Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi, 2009-yil 16-aprelda “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligining majburiy sugʻurtasi toʻgʻrisida”gi, 2015-yil 26-mayda “Tashuvchining fuqarolik javobgarligining majburiy sugʻurtasi toʻgʻrisida”gi qonunlar qabul qilindi.

Sugʻurta shartnomasiga muvofiq, bir taraf (sugʻurta qildiruvchi) yuridik yoki jismoniy shaxslar toʻlaydigan sugʻurta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan

voqea (sugʻurta hodisasi) yuz berganda, ushbu shaxslarga sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta tovonini (sugʻurta pulini) toʻlaydi.

Sugʻurta shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanib, sugʻurta qildiruvchi sugʻurta mukofotini toʻlaydi, sugʻurtalovchi esa sugʻurta hodisasi roʻy berishi bilan sugʻurta pulini toʻlaydi.

Sugʻurta shartnomasi ikki taraflama shartnoma boʻlib, ikkala taraf oʻz zimmasiga ham huquq, ham majburiyat oladi. Sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi sugʻurta badalini talab qilib olish huquqiga ega boʻlsa, sugʻurta hodisasi roʻy berganida sugʻurta tovonini toʻlash majburiyatini oladi. Sugʻurta qildiruvchi esa sugʻurta badalini toʻlash majburiyatini olsa, sugʻurta hodisasi roʻy berganda, sugʻurta tovonini talab qilish huquqiga ega boʻladi.

Sugʻurta shartnomasi tuzilish paytiga va mazmuniga qarab real va konsensual shartnomalar toifasiga kiradi. Ixtiyoriy sugʻurta shartnomalari real shartnoma hisoblanadi. Chunki real shartnomalarda huquq va majburiyatlarning paydo boʻlishi taraflar oʻzaro kelishgan, shartnomani rasmiylashtirgan boʻlishidan tashqari shartnoma narsasi, ashyo yoki pulning topshirilishi talab qilinadi.

Sugʻurta shartnomasining elementlariga taraflar, predmet, muddat, shakli va mazmuni kiradi.

Xoʻjaliklarga, xususiy tashkilotlarga, fuqarolar va tadbirkorlarga qarashli mol-mulklar, mulkiy manfaatlar, tadbirkorlik xavfi, fuqaroning hayoti va sogʻligʻi sugʻurta shartnomasining obyektidir.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchidan boshqa shaxsning javobgarligi sugʻurtalangan hollarda, shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan boʻlsa, sugʻurta qildiruvchi bu shaxsni sugʻurta hodisasi yuz berguncha istalgan vaqtda, sugʻurtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, boshqa shaxsga almashtirishga haqli.

Shaxsiy sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan sugʻurtalangan shaxs sugʻurta qildiruvchi tomonidan shu sugʻurtalangan shaxs va sugʻurtalovchining roziligi bilangina boshqa shaxsga almashtirilishi mumkin (FK, 944-modda).

### **Nazorat uchun savollar:**

---

*1. Sug'urta huquqining asosiy tushunchalari, sug'urta tavakkalchiligi, sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovi, sug'urta haqi, sug'urta mablag'i va boshqalar.*

*2. Sug'urta huquqiy munosabatlari va ularning fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni.*

**17-mavzu. OMMAVIY TANLOV.  
MUKOFOTNI OSHKORA VA'DA QILISH.  
QIMOR VA GAROV O'YINLARI O'TKAZISH**

---

*Ommaviy tanlov. Mukofotni oshkora va'da qilish. Qimor va garov o'yinlari o'tkazish. Lotereyalar.*

**Ommaviy tanlov.** Ommaviy tanlov fuqarolik huquqida o'ziga xos munosabat bo'lib, bir tomonning xatti-harakati natijasida vujudga kelishi bilan belgilanadi. Ommaviy tanlov bir shaxsning muayyan ishni bajarish va natijaga erishish uchun nomuayyan doiradagi shaxslarga yoki muayyan shaxslar doirasiga qaratilgan va eng yaxshi natijaga erishgan shaxs uchun muayyan mukofot yoki rag'batlantirishni ko'zda tutadigan munosabat hisoblanadi.

Ishni eng yaxshi bajarganlik yoki boshqa natijalarga erishganlik uchun pul mukofoti to'lash yoki boshqa mukofot berish to'g'risida (mukofot to'lash to'g'risida) oshkora (ommaviy tanlov) e'lon qilgan shaxs tanlovni o'tkazish shartlariga muvofiq, uning g'olibi deb topilgan kimsaga shartlashilgan mukofotni to'lashi lozim (FK, 976-modda).

Ommaviy tanlov e'lon qilishdan kelib chiqadigan majburiyatlar ijodiy faoliyatlar, shuningdek, moddiy ishlab chiqarish sohasidagi muayyan vazifalarni to'la va yaxshiroq hal qilish masalasini o'z oldiga qo'yadi. Ommaviy tanlov e'lon qilish adabiyot, fan va san'at sohasida barkamol va yuksak g'oyaviy asarlar yaratish hamda texnika taraqqiyoti masalalarini hal qilishga qaratiladi.

FK bo'yicha ommaviy tanlovlarning o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon "ommaviy axborot vositalari"da bo'lishi lozimligi to'g'risidagi talabi ayrim shubhalar tug'diradi. FKning mazkur talabi, *birinchidan*, huquqni qo'llash amaliyotida matbuot so'zi bilan bog'liq bo'lgan nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi, *ikkinchidan*, ommaviy tanlovlarni e'lon qilishda fuqarolik jamiyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy informatsion va elektron texnologiyalarning (masalan, internet) qo'llanishini cheklaydi. Undan tashqari, ommaviy tanlovlarni e'lon qilishga o'xshash bo'lgan boshqa huquqiy konstruksiyalarni (savdo-larning e'lon qilinishi va ommaviy oferta) FK o'z ichiga qamrab olmaydi.

Ommaviy tanlovning subyektlari sifatida, bir tomondan, tanlovni uyushtiruvchilar va ikkinchi tomondan, ishtirokchilar sifatida turli yuridik va jismoniy shaxslar qatnashadi. Uning obyekti esa ishtirokchilar tomonidan bajarilgan va konkursga taqdim etilgan ishlar bo‘lib hisoblanadi.

**Mukofotni oshkora va‘da qilish.** O‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra, mukofotni oshkora va‘da qilish shartli xarakterga ega bo‘lib, bir tomonlama bitim hisoblanadi. Bunda bir tomondagina huquq va majburiyatlar bo‘ladi. Mukofot va‘da qilingan taqdirda va‘da qilgan shaxsda uni to‘lash majburiyati bo‘ladi. Va‘daga qiziqish bildirgan shaxsda esa na huquq, na majburiyat paydo bo‘ladi. Unda huquqlar tegishli e‘londa ko‘rsatilgan natijaga erishgan vaqtdan boshlab vujudga keladi. Shu paytdan boshlab va‘da qilgan mukofotni to‘lash majburiyati vujudga keladi, bunda e‘londa ko‘rsatilgan harakat bajarilgani haqida va‘da beruvchi xabardor qilishi kerak. Va‘da aynan nomuayyan shaxslar doirasiga qaratilgan bo‘lishi lozim, aks holda, munosabatlar kelishilgan hisoblanadi. Va‘da turli shaklda ifodalanishi mumkin (yozma, og‘zaki, matbuot, televidenie orqali), uy devorlari, daraxtlar va hokazolarga yopishtirilgan e‘lonlar FKning 981-moddasida ko‘rsatilgan majburiyatni vujudga keltirmaydi. Har qanday shaklda ham e‘lon nomuayyan shaxslar uchun qulay bo‘lishi va zarurat tug‘ilsa, uni bergan shaxsdan tasdiqlatib olish imkonini berishi kerak.

Bu majburiyatlarni yuzaga keltirish uchun mukofot to‘lash quyidagi belgilarga ega bo‘lishi kerak:

*birinchidan*, mukofotni va‘da qilish oshkora (ommaviy), ya‘ni nomuayyan shaxslar doirasiga murojaat qilingan bo‘lishi kerak. Agar mukofotni to‘lash aniq bir shaxs yoki shaxslarning bir doirasiga mo‘ljallangan bo‘lsa, bu munosabatlar shartnoma xarakteriga ega bo‘ladi;

*ikkinchidan*, va‘da qilingan mukofot mulkiy xarakterga, ya‘ni pul yoki boshqa tarzdagi mulkiy qiymatga ega bo‘lishi kerak. Masalan, qimmatbaho ashyo berish;



*uchinchidan*, mukofot ma'lum bir huquqqa mos harakatni amalga oshirganlik uchun belgilanadi. Belgilangan mukofotni olish uchun erishilishi lozim bo'lgan natija e'londa ko'rsatilishi shart. Masalan, yo'q narsani topish;



*to'rtinchidan*, mukofotni oshkora to'lash to'g'risidagi e'londa mukofot kim tomonidan va'da qilingani ko'rsatilishi kerak. Va'daga qiziqish bildirgan shaxs va'dani yozma ravishda tasdiqlashni talab qilishga haqli va agar haqiqatda mukofot to'g'risidagi e'lon unda ko'rsatilgan shaxs tomonidan qilinmagan bo'lib chiqsa, bunday talab qo'yilmaganligi oqibatlari xavfi uning zimmasida bo'ladi (FK, 981-modda ikkinchi qism).

Yuqoridagi belgilardan kelib chiqib, quyidagicha ta'rif keltirish mumkin: mukofotni oshkora va'da qilish deganda, shartlashilgan natijaga erishganlik uchun mulkiy xarakterda taqdirlash bilan va'da berish nazarda tutilgan, nomuayyan shaxslar doirasiga qaratilgan murojaat tushuniladi.

Mukofotni va'da qilgan shaxs uni to'lashi shart. Mukofotning summasi yoki mulkiy qiymatga ega ashyo e'londa ko'rsatilgan yoxud mukofot miqdori ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin. Agar mukofotni oshkora va'da qilishda uning miqdori ko'rsatilmagan bo'lsa, u mukofotni va'da qilgan shaxs bilan kelishuvga ko'ra aniqlanadi, nizo kelib chiqqan taqdirda esa sud tartibida aniqlanadi (FK, 981-modda uchinchi qism).

E'londa ko'rsatilgan harakat bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. Bu harakat belgilangan muddatda bajarilsa, uni bajargan shaxs mukofotni talab qila oladi. Ayrim hollarda bu ish bir-biridan mustaqil ravishda bir necha shaxs tomonidan bajarilishi mumkin. Bunday holatda FKning 981-moddasi beshinchi qismiga muvofiq tegishli harakatni birinchi bo'lib sodir etgan shaxs mukofotni olish huquqiga ega bo'ladi. Agar e'londa ko'rsatilgan harakatni qaysi biri birinchi bo'lib sodir etganini aniqlashning imkoni bo'lmasa, shuningdek, harakat ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan bir vaqtning o'zida sodir etilgan bo'lsa, mukofot ular o'rtasida bab-baravar yoki ularning o'zaro kelishuvida nazarda tutilgan miqdorda taqsimlanadi.

E'londa ma'lum muddatning ko'rsatilgan bo'lishi mukofotni olish uchun tegishli harakatni shu muddatda qilish lozimligi va bu muddat da'vo mukofot va'da qilgan shaxs u bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Muddat mukofotni oshkora va'da qilishning zaruriy xarakterdagi belgisi emas. Lekin u ko'rsatilgan bo'lsa, shu muddat davomida qilingan harakat mukofot olishga asos bo'lishi mumkin.

**Qimor va garov o'yinlari o'tkazish.** FKning 56-bobida qimor va garov o'yinlar o'tkazishning huquqiy oqibatlarini belgilab qo'yilgan. FKning 983-moddasida ko'rsatilishicha, fuqarolar va yuridik shaxslarning tavakkalchilikka asoslangan qimor va garov o'yinlar (qimor va bas boylash) uyushtirish va ularda ishtirok etish bilan bog'liq talablari sudga himoya qilinmaydi deb ko'rsatiladi. Ma'lumki, qimor o'yinlari ikki va undan ortiq shaxsning mulkiy manfaat ko'rish maqsadida tavakkal qilgan holda ma'lum turdagi o'yin shartlari asosida xatti-harakatlarini amalga oshirish tushuniladi. Bunda o'yinda ishtirok etuvchi bir yoki bir nechta taraf hisobiga boshqa taraf, ya'ni yutgan taraf – mulkiy manfaat ko'radi (masalan, karta, oshiq kabi o'yinlar).

Bas boylashishda ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida ma'lum bir fakt, muayyan voqelik va hodisaning ro'y berishi yoki ro'y bermasligi, ma'lum bir subyekt tomonidan biron narsaga erishish yoki erishmasligi xususida bas boylanadi. Bunda taraflarning qarama-qarshi fikrlari farq qiladigan, bas boylashishda kimning fikri to'g'ri bo'lsa, o'sha g'olib chiqadi va mulkka erishadi. Ba'zi xusuiyati bilan u sharti kechiktirilgan bitimlarga o'xshaydi. Bas predmeti bo'yicha taxmin qilinayotgan narsaga erishish taraflarning erki-irodasiga bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Masalan, ikki futbol ishqibozi tomoni bas boylashishida ro'y beradigan hodisa taraflarning erk-irodasiga bog'liq bo'lmaydi.

Agarda futbol ishqibozlari o'rtasida o'yinchining ma'lum o'yinda gol urishi yoki gol urolmasligi to'g'risida bas boylash qimor va bas bog'lash to'g'risidagi o'yinlardan farq qilib, ko'ngilochar o'yinlar hisoblanadi. Ko'ngilochar o'yinlarda yutish va yutqazish mavjud bo'lsa ham mulkiy manfaat mavjud bo'lmaydi. Qimor o'yinlariga ruju qo'yish, uni doimiy kasb qilish axloq nuqtayi nazaridan salbiy baholanadi. Qimor o'yinlari qonunlar bilan taqiqlanadi. Qimor o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan talablar, ya'ni yutuqni bermaslik, yutqazganlikni tan olmaslik sud orqali himoya qilinmaydi. Agarda qimor va garov o'yinlari aldoy, zo'ravonlik, tahdid qilish ta'sirida yoxud o'z vakilining

qimor yoki garov o'yinlari tashkilotchisi bilan g'arazli keli-shuvi tufayli ishtirok etgan shaxslarning talablari (aldash orqali yutish, qimor o'ynashga majbur etish va shu kabi holatlarda) agar talab qiluvchi shaxsning huquq va manfaatlariga putur yetkazadigan bo'lsa, sudda himoya qilinishi mumkin. Bunda FKning 122, 123-moddalarida ko'rsatilgan oqibatlar vujudga keladi.

FKning 984-moddasida davlat tomonidan lotereyalar o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab qo'yilgan. Lotereyalar tashkilotchisi – davlat, vakolatli davlat organidan ruxsatnoma (litsenziya) olgan shaxslar va lotereyalar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar shartnomaga asoslanadi. Bunday shartnoma lotereya bileti berish orqali rasmiylashtiriladi va ishtirokchi lotereya bileti qiymatini to'lagan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

Bunday shartnoma real shartnoma hisoblanadi. Ushbu shartnomani tuzish to'g'risidagi taklif lotereyalar o'tkazish muddati va yutuqni aniqlash tartibi hamda uning miqdori haqidagi shartlarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Taklifda bunday shartlar tashkilotchisi shartnoma bo'yicha ularni belgilangan muddatda o'tkazishdan bosh tortgan taqdirda, lotereyalar ishtirokchilari ularning tashkilotchisidan lotereyalarni qoldirish yoki ularning muddatini boshqa vaqtga ko'chirish tufayli yetkazilgan zarar-ning o'rnini qoplashni talab qilishga haqli.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

*1. Ommaviy tanlov turli sohalarda tashkil etilishi kuzatiladi. Ushbu tanlovning asosiy shartlari va tanlov tashkilotchisining huquq va majburiyatlarini tushuntiring.*

*2. Ommaviy tanlov natijasi qanday hollarda bekor qilinishi mumkin?*

*3. Mukofot oshkora va'da qilinganda, vaziyat jiddiy o'zgarishi munosabatga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

*4. Mukofotni oshkora va'da qilindan so'ng va'da bekor qilinishi holatlarini izohlang.*

*5. Qimor va garov o'yinlari tushunchasi va oqibatlarini izohlang.*

*6. Qimor va garov o'yinlarini o'tkazish tartibi va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*

**18-mavzu. ZARAR YETKAZISHDAN KELIB  
CHIQAIDIGAN MAJBURIYATLAR.  
MA'NAVIY ZARARNI QOPLASH.  
ASOSSIZ BOYLIK ORTTIRISHDAN KELIB  
CHIQAIDIGAN MAJBURIYATLAR**

---

*Majburiyat. Majburiyatlarni vujudga keltiruvchi asoslar. Zarar. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar. Delikt majburiyatlar. Ma'naviy zarar. Asossiz boylik orttirish. Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.*

**Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat** tushunchasiga fuqarolik qonunchiligida ta'rif berilmagan. Biroq mazkur tushuncha bevosita g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozimligi haqida FKning 985-moddasida o'z ifodasini topgan. Mazkur normadan zarar yetkazgan shaxsning yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyati hamda jabrlanuvchining yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqi mavjudligini anglash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, majburiyatning an'anaviy tuzilishi (konstruksiyasi) – kreditor va qarzdor munosabatlari mavjudligini bildiradi. Mazkur holatda zarar yetkazuvchi – qarzdor hisoblansa, jabrlanuvchi (mulkiga, hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetgan shaxs) – kreditor hisoblanadi. Shu bilan birga, zarar yetkazilganda jabrlanuvchining talab qilishi huquqi zarar yetkazuvchi uchun majburiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs)ning hayoti va sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan shaxs yetkazilgan zarar to'liq qoplash majburiyatini oladi, jabrlanuvchi esa o'ziga yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, kishilarning bir-biri bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatlarida ba'zan ularning moddiy yoki nomoddiy manfaatlariga zarar yetish oqibatlari kelib chiqadi. Bu zararlar turli tasodiflar, ehtiyotsizlik, qasd orqali, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladi. Shunday holatda yetkazilgan zarar kim tomonidan

toʻlanishi (zarar yetkazilgan shaxs yoki jabrlangan shaxs yoxud uchinchi shaxslar tomonidan) masalasi yuzaga keladi. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat instituti asosiy oʻringa ega boʻladi. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bu turi *delikt majburiyatlar* deb ham ataladi.

Delikt majburiyatlarining huquqiy tabiatini aniqlashda majburiyatning mazkur turini fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi bilan oʻzaro nisbatini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Yuridik adabiyotlarda “zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat” va “zarar yetkazganlik uchun javobgarlik tushunchalari” ayniy tushunchalar sifatida qoʻllaniladi hamda “javobgarlik” tushunchasi bu holatda asosiy oʻrinni egallaydi. Mazkur holat FKning 57-bobida ham oʻz ifodasini topgan boʻlib, ushbu bob “zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar” deb nomlansa, bobning birinchi moddasi (FK, 985-modda) zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslariga bagʻishlanadi. Shu bilan birga, keyingi normalarda ham, asosan, “majburiyat” tushunchasi emas, “javobgarlik” tushunchasi qoʻllaniladi. Bu esa ushbu tushunchalar oʻrtasida qarama-qarshilik mavjud emasligini, ularning uzviy bogʻliqligini anglatadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik deganda, mulkiy tUSDagi sanksiyalarni huquqbuzarga nisbatan tatbiq etish tushuniladi. Fuqarolik huquqining umumiy asoslariga muvofiq, fuqarolik-huquqiy javobgarlik mulkiy tusga ega boʻlib, shartnomaviy majburiyatlarda ham, shartnomadan tashqari vujudga keladigan majburiyatlarda ham tatbiq etiladi. Biroq shartnomaviy majburiyatlarda javobgarlik ikkilamchi tusga ega boʻladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik shartnomaviy majburiyatlarni “kuzatib boradi” va majburiyat buzilgandagina qoʻllaniladi. Agar majburiyat lozim darajada bajarilsa, javobgarlik masalasi vujudga kelmaydi.

Zarar yetkazishdan vujudga keladigan majburiyatlarda esa javobgarlik huquqbuzarlik fakti asosida vujudga keladi. Yaʼni zarar yetkazishdan vujudga keladigan majburiyat vujudga kelishi bilan u oʻz mazmunida javobgarlikni, huquqbuzarga sanksiya qoʻllash imkoniyati mavjudligini ifodalaydi. Albatta, bu vaziyatda javobgarlik boshqa bir majburiyatni toʻldirmaydi, “kuzatmaydi” (shartnomali majburiyatlardagi kabi), u zarar yetkazishdan

kelib chiqadigan majburiyatlardagi huquqbuzar majburiyatining mazmunini tashkil etadi.

Yetkazilgan zarar uchun huquqbuzar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda, yetkazilgan zarar qoplash shaklidagi javobgarlikka tortiladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning quyidagi o'ziga xos belgilari mavjud:

a) bu majburiyatlarning ta'sir doirasi zararni qoplash moddiy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qamrab oladi;

b) ular mutlaq xarakterga ega bo'lgan mulkiy huquqlar (mulk huquqi, umrbod egalik qilish huquqi, xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi kabi) yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlar buzilishi natijasida kelib chiqadi;

d) garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan shaxs tomonidan buzilgan bo'lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli shartnomasiz xarakterga ega bo'ladi.

e) bu majburiyatlar zarar kim tomonidan kimga yetkazilgani, zarar qay ko'rinishda yetkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'i nazar, to'liq qoplanishini nazarda tutadi;

f) qonunda nazarda tutilgan hollarda zararni to'lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin.

**Ma'naviy zararni qoplash.** Ma'naviy zarar deganda, jabrlanuvchiga qarshi sodir etilgan huquqbuzarlik harakati (harakatsizlik) oqibatida u boshidan kechirgan (o'tkazgan) ma'naviy va jismoniy (kamsitilishi, jismoniy og'riq, xo'rlanish, noqulaylik kabi) azoblar tushuniladi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 7-son qarori).

Jismoniy og'riq – bu tibbiy yuridik kategoriya hisoblanadi. Jismoniy uqabatlar, jismoniy og'riq, azoblanish, qiynalish ko'rinishlarida namoyon bo'lib, jabrlanuvchiga zarar yetkazish oqibatlari natijasi hisoblanadi.

Ma'naviy azoblar esa kishining ichki ruhiy-psixik dunyosiga taalluqli qiynoqlar hisoblanadi. Yuqorida jismoniy og'riqlar tibbiy-yuridik kategoriya ekanligi ta'kidlangan edi. Hozirgi zamon fani uning xarakter va darajasini aniqlashning obyektiv vositalariga ega. Ma'naviy azoblar esa ruhiy-yuridik kategoriya bo'lib, insonni faqat mutaxassis baholay oladigan "hayajon", "alam", "xo'rlik", "uyat" kabi subyektiv hissiy holati tarkibiy qismlariga asoslanadi.

Ma'naviy zarar mavjud deb hisoblash uchun uning tarkibiy qismlaridan biri – yo jismoniy og'riq yoki ruhiy iztiroblar bo'lishi kifoya. Agar ularning har ikkalasi bir vaqtda mavjud bo'lsa, ma'naviy zarar darajasi yuqori ekanligidan dalolat va javobgarlik darajasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq ularning faqat birining mavjudligi javobgarlikni qo'llamaslikka asos bo'lmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra, ma'naviy zarar zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lsagina u tomonidan qoplanadi. Ma'naviy zararni qo'llashda ayb umumhuquqiy mezon vazifasini o'taydi. Biroq huquqbuzarlik xarakteriga qarab boshqa huquq tarmoqlari, ya'ni jinoyat-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, mehnat huquqiy, fuqarolik huquqiy uslubiy mezonlaridan ham foydalanish mumkin.

Ma'naviy zarar, agar zarar fuqaroning hayoti va sog'lig'iga oshiqcha xavf manbayidan yetkazilgan bo'lsa, uni yetkazuvchining aybidan qat'i nazar qoplanadi. Fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga oshiqcha xavf manbalarining o'zaro ta'siri natijasida zarar yetkazilgan bo'lsa, zarar ularning har birining ayb darajasini hisobga olgan holda, FKning 985-moddasi qoidalari bo'yicha qoplanadi. Oshiqcha xavf manba egalari har birining aybi mavjud bo'lgan taqdirda ularning har biri ayb darajasiga mutanosib ravishda jabrlanuvchi (jabrlanuvchilar) chekkan jismoniy va ruhiy azob-uqubatlar darajasiga qarab qoplanadi. Agar sog'lig'i shikastlangan oshiqcha xavf manba egasi ushbu avtohalokatda aybdor bo'lsa, unga ma'naviy zarar qoplanmaydi. Avtotransport vositalari o'zaro to'qnashganda, uchinchi shaxslar emas, faqat manba egalari sog'lig'iga shikast etsa, biroq bunda har ikkalasining aybi bo'lmasa, ularning hech biri ma'naviy zarar qoplanishini talab qilishga haqli emas.

Odatda, zarar oshiqcha xavf manbayi tomonidan uchinchi shaxslarga yetkaziladi (masalan, avtomobil bilan piyoda yo'lovchini urib ketish). Bunda sog'liqqa shikast yetkazish oqibatida

jismoniy azoblarni jabrlanuvchi boshidan kechirishi tabiiy. Ma'naviy zarar oshirilgan xavf manba egasi (avtomobil mulkdori yoki ijarachisi) tomonidan aybidan qat'i nazar qoplanadi.

Zarar fuqaroga uni qonunga xilof tarzda hukm qilish, qonunga xilof tarzda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olinishi yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat olishni qonunga xilof tarzda qo'llash, qonunga xilof tarzda ma'muriy qamoq jazosini qo'llash va qonunga xilof tarzda ushlab turish natijasida yetkazilgan bo'lsa, ularni qo'llagan organlar va mansabdor shaxslar aybidan qat'i nazar, ma'naviy zarar undirilishi lozim (FK, 991-modda). Yuqorida ko'rsatilgan zarar yetkazish harakatlari qat'iy belgilab qo'yilgan va u kengaytirilgan holda talqin etilishi mumkin emas. Yuqoridagi harakatlar g'ayriqonuniy tarzda sodir etilganda, jabrlanuvchining ruhiy azoblari chuqur va og'ir xarakter kasb etishi tabiiy. Bunda nafaqat uning huquqlari cheklanadi va boshqalar, jamoatchilik ko'z o'ngida u muayyan muddat, ya'ni haq joyiga qaror topguncha huquqbuzar va hatto jinoyatchi qiyofasida gavdalanadi. Jabrlanuvchi boshdan kechirgan og'ir ichki kechinmalar yumshatilishi, ruhan sog'lomlashishi amalga oshirilishi lozim. Ma'naviy zararni qoplash shunga qaratiladi.


Surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan ma'naviy zarar, zarar yetkazuvchining aybi mavjud bo'lgan taqdirda FKning 985-moddasiga asosan qoplanadi.

Ma'naviy zarar or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro'e'tiborini haqoratlovchi, badnom qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish sababli yetkazilgan bo'lsa, ushbu ma'naviy zarar zarar yetkazuvchining aybidan qat'i nazar undiriladi (sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si tushunchasi va huquqiy himoya qilish xususiyatlari FKning 100-moddasida belgilangan). Bunda badnom qiluvchi ma'lumotlarning xarakteri, tarqatish usuli va doirasi jabrlanuvchi og'ir ruhiy iztiroblariga sabab bo'ladi va jismoniy yoki ruhiy kasallikni keltirib chiqarishi mumkin.

**Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar.** Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik huquq va manfaatlarini himoya qilishga, mulk huquqi, mulkiy huquqlar tiklanishiga qaratilgan. Ushbu majburiyatlar

buzilgan huquqlar tiklanishiga xizmat qiladi. Mazkur holat ikkita omil bilan belgilanadi. Birinchidan, ushbu majburiyat fuqarolik huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan turli yuridik faktlar natijasida vujudga keladi. Ikkinchidan, majburiyatlar tizimida mustaqil o'ringa ega bo'lgan holda aksessor majburiyat bo'lib hisoblanmaydi hamda ashyoviy huquqiy, majburiyat huquqiy talablar vositasida himoya qilinadigan subyektiv fuqarolik huquqlarini himoya qilishdagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

FKning 1023-moddasi asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyatini nazarda tutadi va unga ko'ra qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo'lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolingan mol-mulkni (asossiz orttirilgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart. Qonun talabidan ko'rinib turibdiki,



Ammo ba'zi hollarda mulkning yanglishmasdan, atayin qasd-dan asossiz olinish hollari ro'y berishi mumkin. G'ayriqonuniy yoki davlat manfaatlariga zid qilingan xatti-harakatlar tufayli o'zgaralar hisobiga asossiz boylik orttirgan shaxs asossiz olingan mulkni qonunda nazarda tutilgan hollardan boshqa holatlarda davlat daromadiga o'tkazishi lozim, ya'ni haqiqiy bo'lmagan bitimlar tuzish yo'li bilan olingan asossiz boyliklar to'g'ridan to'g'ri davlat daromadiga o'tkaziladi.

Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlar boshqa fuqarolik-huquqiy majburiyatlar singari mulkiy xusu-

siyatga ega. Uning asosida moddiy ne'matlar harakatlanishiga doir mulkiy munosabatlar yotadi. Asossiz boylik orttirish natijasida qarzdor va kreditor o'rtasida moddiy ne'matlarning bir shaxsning vakolatlari doirasidan boshqa shaxsning vakolati doirasiga o'tishiga doir nisbiy huquqiy munosabat vujudga keladi. Ushbu majburiyat shartnomadan tashqari vujudga keladi. Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar turli yuridik faktlar asosida vujudga kelishiga qaramay, ushbu majburiyatlar shartnomadan tashqari tuzilgan bitimlar doirasiga kirib, subyektlarning mulk huquqi va boshqa huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil institut ko'rinishida bo'ladi.

Ushbu majburiyatning nomlanishi go'yoki majburiyat hech qanday huquqiy asosga ega bo'lmasdan vujudga keladigandek bo'lib ko'rinadi. Aslida esa, albatta, bunday emas. Aslida esa bu o'rinda boylik orttirish, tejash natijasida boshqa shaxsga tegishli bo'lgan (mulkiy) huquqlar, pul mablag'lari boshqa shaxsning tasarrufiga asosga ega bo'lmagan holda o'tib qoladi.

Yuqorida asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar yuridik faktlar asosida vujudga kelishi ta'kidlangan edi. Bu o'rinda yuridik faktlar turli ko'rinishda: hodisalar va harakatlar; huquqiy harakat va huquqbuzarliklar kabi. Istisno holat sifatida faqat shartnoma singari yuridik fakt ko'rilishi mumkin. Zero, asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar shartnomadan tashqari majburiyat sanaladi.

Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar yengib bo'lmas kuch, shu jumladan, inson nazorat qila olmaydigan tabiiy ofatlar, vaziyatning tasodifiy kechishi, asossiz boylik orttirgan shaxsning yoki boshqa shaxslarning huquqqa xilof harakatlari natijasida vujudga kelishi mumkin.

Amaliyotda shunday holatlar ham bo'lishi mumkinki, asossiz orttirilgan yoki tejalgan boylik dastlab huquqiy asoslangan bo'ladi va keyinchalik ushbu asos barham topadi. Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar umumiy qoida bo'yicha ushbu asos bekor bo'lganda vujudga keladi. Buning aksi ham kuzatilishi mumkin: olingan yoki tejalgan boylik dastlab huquqiy asosga ega bo'lmaydi, biroq keyinchalik bunday asos vujudga keladi. Bunday holatda esa ushbu vaqtdan boshlab olingan yoki tejalgan boylik asosli bo'lib qoladi.

Asossiz orttirilgan boylikdan kelib chiquvchi majburiyatlarning tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

a) bir shaxs boshqa shaxsning hisobidan mol-mulkka ega bo'ladi;

b) mol-mulk asossiz ravishda qonunda, boshqa huquqiy hujjatlarda, shartnomada ko'zda tutilmagan yo'llar bilan qo'lga kiritiladi yoki tejab qolinadi;

d) odatda, asossiz ravishda boylik orttirish xatoliklar, yangilishlar natijasida ro'y beradi.

Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlarga misollar keltirib o'tamiz.

Masalan, to'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi universitet talabasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligi (g'aznachilik boshqarmasi) hisobvarag'iga universitetning shaxsiy hisobvarag'ini ko'rsatmagan holda pul mablag'larini o'tkazadi. Natijada o'tkazilgan pul mablag'i Moliya vazirligi g'aznachiligida (g'aznachilik boshqarmasida) qolib ketadi. Buning oqibatida talaba kreditor sifatida, g'aznachilik esa qarzdor sifatida ko'riladi. Yana boshqa bir vaziyatda talabaning otasi o'g'li Babadjanov Islom uchun pul mablag'larini o'tkazish uchun bankka topshiriq beradi. Bank ushbu topshiriqni bajarayotganda, to'lov maqsadini ko'rsatganda boshqa kursda o'quvchi Bobojonov Islomning nomi ko'rinadi. Natijada Bobojonov Islomning asossiz boylik orttirishi ro'y beradi.

Xalqaro telefon tarmog'idan foydalanganlik uchun abonentning manzili va raqamini ko'rsatgan holda, to'lovni amalga oshirish haqida xabarnoma xatolik natijasida boshqa xonadonga taqdim qilinadi. Xabarnoma kimga berilganiga e'tibor qaratmagan holda, fuqaro telefon o'chirib qo'yilmasligi uchun darhol to'lovni amalga oshirib yuboradi. Natijada telefon xizmati haqini to'lagan fuqaro va aslida to'lashi lozim bo'lgan fuqaro o'rtasida asossiz boylik orttirish oqibatida majburiyat vujudga keladi.

Fuqaro A. fuqaro B.ga bir yil muddatga qarzga pul beradi. Qarzdor o'z vaqtida pulni qaytarmaydi. Ushbu mablag'larni qaytarish haqidagi da'voni shartnomaviy da'vo sifatida ko'rsatish mumkin. Biroq muddati o'tib ketganidan so'ng ushbu da'voni shartnomadan tashqari majburiyat, ya'ni asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyat sifatida baholash mumkin.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan misollar asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar turli xil asoslar, yaʼni hodisalar, qonuniy va noqonuniy harakatlar va h.k. natijasida vujudga kelishi mumkinligini koʻrsatadi. Taʼkidlash lozimki, bir shaxsning boshqa shaxs hisobidan mol-mulkka egalik qilishi natijasida mulk hajmining oshishiga va ikkinchi tarafning mulki kamayishiga olib keladi. Qoʻlga kiritilgan mulk, uning miqdorining koʻpayishi, qoʻlga kirituvchining qoʻshimcha xarajatsiz uning qiymati oshishiga, masalan, bir shaxs boshqa shaxsning iltimosiga koʻra, ishonib topshirgan qarzini boshqa shaxsga topshirsa; tashkilot uning nomiga olingan tovarlarga qaytadan pul toʻlasa va hokazo.

Mulkni tejash deganda, shaxs oʻz mablagʻlarini sarf qilishi lozimligi, lekin sarf qilmaganligi yoki boshqa shaxsning xarajatlari qoplanmaganligi, yoki boshqa shaxsga mukofot toʻlanmasligi tushuniladi. Masalan, shirkatning toʻlov shartnomasiga koʻra, bank adashib boshqa shirkat hisobidan mablagʻni chiqarib tashlasa, bitta shirkatning mablagʻi oshishi, boshqasinikining kamayishiga olib keladi. Agar shaxs mulkdoming roziligisiz unga mukofot toʻlamasdan mulkdan foydalansa, mukofot toʻlanmasligi evaziga tejash kelib chiqadi. Asossiz boyishning eng koʻp tarqalgan turi qoʻlga kirituvchining oʻziga tegishli boʻlmagan mulkka ega boʻlishi tushuniladi. Bu shaklning asosiy turi jabrlanuvchining qoʻlga kirituvchiga mulkiy foydaning berilishidir. Chunki taqdim etish asosida yotuvchi bitim yoki boshqa huquqiy asos boʻlmagan yoki eʼtirof etilmagan. Rivojlangan tovar muomalasi sharoitida mualliflik, patent va boshqa huquqlarga daxl qilishlar kuzatilmoqda. Bunday xatoliklarga yoʻl qoʻyilganda, noqonuniy foydalanuvchida ixtirolardan foydalanish, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, oʻzganing xizmat va tijorat siri, mualliflik va mutlaq huquqlarga mukofot toʻlamaslik uchun litsenziya toʻlovlarni amalga oshirmaganligi natijasida asossiz tejash paydo boʻlish holatlari ham uchraydi.

### *Nazorat uchun savollar:*

---

*1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar va boshqa fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni tavsiflang.*

2. *Haqiqiy zarar va boy berilgan foydani aniqlash mezonlarini tushuntiring.*

3. *Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun javobgarlik muammolari haqida fikr bildiring.*

4. *Ma'naviy zarar miqdorini aniqlash tartibini tushuntiring.*

5. *Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar boshqa fuqarolik-huquqiy majburiyatlardan nimasi bilan farq qiladi?*

6. *Huquqni boshqa shaxsga asossiz berish oqibatlari haqida fikringizni bayon qiling.*

## 19-mavzu. INTELLEKTUAL MULK

---

*Intellektual faoliyat natijalari. Intellektual mulk. G'oya. Fan, adabiyot va san'at asarlari. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari. Seleksiya yutuqlari. Oshkor etilmagan axborot. Ishlab chiqarish sirlari (nou-xau). Firma nomlari. Tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari). Tovar chiqarilgan joy nomi. Mulk huquqi va mutlaq huquqlar. Litsenziya. Yaratilganlik fakti. Muallif-ijodkor. Huquqiy muhofaza belgilari.*

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida o'ziga xos obyekti bo'lib hisoblanadi. «Intellekt» lotincha so'z bo'lib, «aql» ma'nosini anglatadi. Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari – ashyolar, qimmatli qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi:

a) ko'p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi. Obyektiv shaklda ifodalangan g'oya, bilim moddiy eltuvchida, moddiy ifodada, masalan, chizma, maket, apparat, qurilmada mujassamlashgan bo'lishi mumkin, biroq bunda g'oya, bilim birlamchi, uning moddiy mujassami har doim ikkilamchi bo'ladi;

b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

d) bunday obyektlardan bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin;

e) intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FK, 164-modda) qo'llanilmaydi. Binobarin, ko'pchilik hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni hisobga olmaganda) intellektual mulk huquqi amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi;

f) qonunlarda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk huquqi sohibining intellektual mulkning muayyan obyektiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma'lum shartlar asosida (muallifning shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi;

g) intellektual mulk huquqi obyektlari g'oya ko'rinishida bo'lgan hollarda ularni ashyolar singari egallash mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalana olish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nis-

batan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsion da'voni qo'lash (FK, 228-modda) imkoniyati amalda mavjud emas;

h) intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'laniladi;

i) intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtda, ma'lum hudud bilan ham chegaralangan bo'ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlardagina amal qiladi;

j) ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflari shaxsiy huquqlari mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar ushbu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim bo'ladi.

Intellektual mulk obyektlari bu obyektlarning qanday faoliyat mahsuli ekanligi, ularning huquqiy rejimi va shu kabi xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

**Intellektual faoliyat natijalari.** Intellektual faoliyat o'z xarakteriga ko'ra, inson faoliyatining eng oliy ko'rinishi – ijodiy faoliyat hisoblanadi. Inson ijodiy faoliyati bu faoliyatni amalga oshirish usul-vositalari, faoliyat mahsullari xususiyatlariga ko'ra inson ongli faoliyatining boshqa ko'rinishi odatdagi, kundalik faoliyatidan farq qiladi.

Odatdagi, kundalik faoliyat doimiy, takrorlanib turuvchi faoliyat bo'lib, bunda faoliyat o'zi ham, undan vujudga keladigan natijalar ham ilgaridan ma'lum bo'ladi. Shu sababli ham odatdagi, kundalik faoliyat reproduktiv faoliyat hisoblanib, bunda tayyor o'y-fikrlar formal mantiq yoki boshqa qonun-qoidalar asosida qaytadan, takroriy hosil bo'ladi. Ijodiy faoliyat (aqliy, tafakkur) intellektual faoliyat bo'lib, uning natijasida fan, texnika, adabiyot yoki san'at sohasida yangi, ijodiy mustaqil mahsul yaratiladi.

*Intellektual faoliyat natijalariga quyidagilar kiradi:*

- fan, adabiyot va san'at asarlari;

- ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoki eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;

- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlari, ishlar va xizmatlarning xususiy unsurlarini aks ettiruvchi vositalarga nisbatan bo'lgan huquqlarga ham mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llaniladi.

Ma'lumki, fuqarolik muomalasida turli-tuman subyektlar ishtirok etadi, ayni vaqtda, muomalada xilma-xil mahsulot va xizmatlar harakatda bo'ladi. Mana shunday sharoitda subyektlar, ular ishlab chiqargan tovarlar va ko'rsatadigan xizmatlar alohida farqlash belgilariga ega bo'lishi shart, aks holda, turli anglashilmovchilik, qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Ana shunday farqlash belgilari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o'zlarini, uning ishlab chiqargan tovarlari, bajaradigan ishlari va ko'rsatadigan xizmatlarining xususiy alomatlarini (individual belgilarini) aks ettiruvchi vositalar hisoblanadi. Bunday alohida farqlash belgilarining quyidagi turlari mavjud:

- firma nomlari;
- tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
- tovar chiqarilgan joy nomi.

Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivojlanib borayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatning yangi mahsullari vujudga kelmoqda. Masalan, topogral va integral mikro-sxemalar. Garchi ular mavjud qonunlarda nazarda tutilmagan bo'lsa ham ularga nisbatan FKning 1031-moddasi uchinchi qismida belgilangan qoidalar mazmunidan kelib chiqib, intellektual mulk haqidagi qoidalar qo'llaniladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ular ishlab chiqarayotgan tovarlar, ko'rsatadigan xizmatlarining yangi farqlash belgilari vujudga kelishi mumkin va bunday holda ham ularga nisbatan FKning IV bo'limiga tegishli qoidalar qo'llaniladi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda, bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibi huquqlarining qonuniy jihatdan qo'riqlashini vujudga keltirish asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyekti o'z-o'zidan huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi, balki bu obyektga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo'lgan shaxslar (muallifning shaxsiy

huquqlari, mutlaq huquqlar sohibining huquqlari, litsenziya asosida foydalanuvchining huquqlari, avvaldan foydalanuvchining huquqlari va shu kabilar) huquqlari huquqiy jihatdan muhofaza ostiga olinadi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish:

- ularning yaratilganlik fakti asosida;

- FKda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Intellektual obyektlarning quyidagi turlari bo'yicha ularni huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilishi (vujudga kelish) fakti asosida sodir bo'ladi:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;

- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

- ijrolar, ijrolarni sahnalashtirish, eshittirish va ko'rsatuvlar;

- topologik va integral sxemalar.

Bunda obyekt ijodkor tomonidan og'zaki, yozma, tasvir shaklida yoki boshqalar tomonidan idrok etish (qabul qilish) uchun imkon beradigan boshqa obyektiv shaklda mujassam etilishi bilan yaratilgan hisoblanadi. Binobarin, shu vaqtdan boshlab unga nisbatan boshqa shaxslarda subyektiv huquqlar vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi. Bunday holda obyektдан uchinchi shaxslarning foydalangan bo'lishi, obyekt ro'yxatdan o'tkazilishi yoki boshqa rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmaydi. Hatto obyekt keyinchalik ro'yxatdan o'tkazilishi lozimligi haqidagi qoida mavjud bo'lsa ham (masalan, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari uchun davlat ro'yxati mavjud) bu holat ularning huquqiy muhofaza qilish holatiga ta'sir etmaydi. Bunda intellektual mulk obyektlari O'zbekiston Respublikasi hududida yoki xorijiy davlat hududida yaratilganligi fakti ahamiyatga ega emas.

Intellektual mulk quyidagi obyektlarining huquqiy muhofazasi davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i berilishi asosida vujudga keladi:

- ixtiro, sanoat namunasiga nisbatan – patent beriladi;

- foydali modelga nisbatan – guvohnoma beriladi ("Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar to'g'risida"gi qonundan);

- seleksiya yutuqlariga nisbatan – patent beriladi;

- tovar (xizmat ko'rsatish) belgisiga nisbatan u davlat ro'yxatidan o'tkazilib, guvohnoma beriladi;

- firma nomi davlat ro'yxatidan o'tkazilib (reyestrda kiritilib), bu haqda dalolatnoma beriladi;

- tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilib, undan foydalanish huquqi to'g'risida guvohnoma beriladi.

Adabiyotlarda qayd etilganidek, mutlaq huquqlar deyilganda, bunday huquq egalarning turli harakatlar sodir etish (ijodiy faoliyat mahsulidan foydalanish, uni tasarruf etish kabi) bo'yicha haqdorligi, vakolatligi va ayni vaqtning o'zida boshqa har qanday shaxslarga bunday yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishning taqiqlanishini ta'minlovchi subyektiv mutlaq huquq tushuniladi. Mutlaq huquqlar huquqiy mexanizmi odatdagidek egallab turishi mumkin bo'lmagan, bir vaqtning o'zida nomuayyan doiradagi shaxslar foydalana olishi mumkin bo'lgan obyektlarga nisbatan huquq sohibi mulkiy huquqlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim vositadir, biroq mulk huquqi va mutlaq huquqlar aslo ayniy tushunchalar emas.

Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda, har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi. Ushbu mutlaq huquqlar o'z xarakteri va mazmuniga ko'ra mulkiy huquq hisoblanadi. Intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra foydalanish deyilganda, huquq sohibining o'z erki, irodasi bilan, hech qanday majburlashsiz, tazyiqlarsiz foydalanish tushuniladi.

Muallif intellektual faoliyat natijalarini yaratish va ulardan foydalanish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha kelgusida asar, ixtiro yoki boshqa intellektual faoliyat natijasini yaratishga va o'zining ish beruvchisi bo'lmagan buyurtmachiga bu natijadan foydalanish uchun mutlaq huquqlar berish majburiyatini o'z zimmasiga olishi mumkin. Har bir ijodkor shaxs o'z intellektual faoliyatini o'z xohishiga ko'ra, o'z tashabbusi, o'z mablag'lari asosida, ish beruvchisi bilan tuzilgan mehnat bitimi (kontrakt) asosida yoki ish beruvchisi bo'lmagan boshqa shaxs buyurtmasi bo'yicha shartnoma asosida tashkil etishi mumkin.

Muallif-ijodkorning o'z tashabbusi va o'z mablag'lari asosida yaratilgan ijodiy faoliyat natijasiga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mutlaq huquqlar faqat uning o'zigagina tegishli bo'ladi. U ijodiy faoliyat mahsuli bo'lgan obyektga nisbatan mutlaq huquqlarni o'z xohishiga ko'ra erkin ravishda tasarruf etadi.

Muallif-ijodkor boshqa bir shaxs (ish beruvchi) bilan mehnat munosabatida bo'lgan holda, mehnat bitimida shart qilib qo'yilgan ijodiy faoliyatni amalga oshirish, ish (topshiriq) bajarish asosida vujudga kelgan ijodiy faoliyat mahsuliga nisbatan mutlaq huquqlarga ushbu FKning 1062, 1087-moddalari va boshqa qonun hujjatlarida (masalan, «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi, «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasidagi kabi) belgilab qo'yilgan qoidalar va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi normalari qo'llaniladi.

Intellektual mulk huquqi obyektiga nisbatan mutlaq huquq bilan ushbu obyektning moddiylashgan ifodasiga, moddiy eltuvchisiga nisbatan mulk huquqini farqlamoq lozim. FKda belgilangan qoidaga ko'ra, intellektual faoliyat natijasi (asar, ixtiro va shu kabi)ga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vosita (masalan, tovar belgisi)ga nisbatan mutlaq huquq bunday natija yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vosita ifodalangan moddiy obyektga nisbatan mulk huquqidan qat'i nazar, unga bog'liq bo'lmagan holda, unda mustaqil ravishda mavjud bo'ladi. Masalan, asarning mingab nusxada kitob shaklida nashr etilishi, ixtiro asosida mahsulotlar (masalan, qurilma, uskuna, dori-darmon va hokazo) ishlab chiqilishi mumkin. Bunda, albatta, nashr etilgan asarning kitob shaklidagi nusxalarini sotib olgan shaxsda, ixtiro asosida chiqarilgan mahsulotni sotib olgan shaxslarda o'sha kitobga nisbatan, o'sha mahsulotga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi, biroq asarga nisbatan yoki ixtiroga nisbatan mutlaq huquq vujudga kelmaydi. Intellektual mulk obyektlari turli moddiy vositalarda ifodalanishi, cheksiz nusxalarda mavjud bo'lishi va fuqarolik muomalasida harakat qilishi mumkin, bunday moddiy vositalar ashyolar tarzida ko'rilishi mumkin, biroq bunday ashyolarga nisbatan mulk huquqi uning kelib chiqish, yaratilishi asosi – g'oyaviy (ideya) negizi bo'lgan intellektual mulk huquqi obyektiga bo'lgan mutlaq huquqlarga aslo ta'sir qilmaydi.

Ma'lumki, intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlarning amal qilishi abadiy muddatsiz bo'lmay, ma'lum muddat, vaqt bilan chegaralangan bo'ladi. Biroq bu muddat barcha obyektlar uchun bir xilda bo'lmay, turli obyektlarga nisbatan muddatning boshlanish, amal qilish, bekor bo'lish, ba'zi hollarda esa uzaytirish tartibi bo'yicha turlicha namoyon bo'ladi. Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqning amal qilish muddati bevosita FKda yoki boshqa amaldagi qonunlarda nazarda tutilishi mumkin. Intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan mutlaq huquqning amal qilish muddati davomida huquq egasining bu mutlaq huquqlardan kelib chiquvchi subyektiv huquqlari huquqiy muhofaza ostida bo'ladi va qo'riqlanadi, bu huquqlarga hamma rioya qilishi shart, basharti ular kimdir tomonidan buzilsa, buzilgan huquq huquq egasining talabi bilan sud orqali himoya qilinadi, zarur hollarda bu huquqlar amalga oshirilishi qonuniy tartibda davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi.

Mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar muallifning butun hayoti davomida va vafotidan keyin u vafot etgan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlab 50 yil davomida amal qiladi. Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mutlaq huquqlar uchun bunday 50 yil muddatning boshlanishi eng uzoq yashagan hammuallif vafotidan keyin boshlanadi. Yashirin taxallus ostida yoki imzosiz chop etilgan asarga bo'lgan mutlaq huquq asar chop etilgan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlab 50 yil davomida amal qiladi. Agar asar muallif vafotidan keyin 50 yil ichida birinchi marta chop etilsa, mutlaq huquq asar chop etilgan yildan keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran 50 yil davomida amal qiladi (FKning 1065-moddasi).

### *Nazorat uchun savollar:*

---

1. *Intellektual mulk obyektlarining o'ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?*

2. *Intellektual mulk huquqiga nisbatan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar haqida ma'lumot bering.*

3. *Mualliflik huquqi mohiyatan asarning mazmunini emas, balki uning shaklini himoya qilishga mo'ljallangan. Ushbu fikrni qanday izohlaysiz?*

4. *Mualliflik huquqi obyektlarini tavsiflang.*

## 20-mavzu. VORISLIK HUQUQI

---

*Meros. Vorislik huquqi. Vasiyat bo'yicha vorislik. Qonun bo'yicha vorislik. Vorislik navbatlari. Meros tarkibi. Merosxo'rlar. Noloyiq merosxo'rlar. Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik. Meros transmissiyasi. Merosni egallash.*

Fuqarolik huquqida vorislik huquqi alohida mustaqil huquq instituti hisoblanib, vafot etgan shaxsning mol-mulki, mulkka bo'lgan huquqi, talab qilish huquqi, shuningdek, o'zgaralar oldidagi majburiyatlari va qarzlarning vasiyat bo'yicha yoki qonun bo'yicha vorislik asosida uning vorislariga o'tishini nazarda tutadi.

**Meros huquqi** – bu fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarini bevosita qabul qilib olish yoki qabul qilishni rad etish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

Fuqarolik qonunchiligida meros instituti vorislikning umumiy qoidalari, vasiyat bo'yicha vorislik, qonun bo'yicha vorislik hamda merosni egallashga doir normalar yig'indisidan iboratdir.

Vorislik ikki asosda, vasiyat va qonun bo'yicha vujudga keladi. Mulkdor o'zi hayotligidayoq o'ziga tegishli mulk(lar)ning taqdirini belgilagan holda, mol-mulkini ishonchli qo'llarga topshirish maqsadida vasiyatnoma qoldirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, keyinchalik ushbu mol-mulkning ko'payishiga, rivojlantirishiga olib kelishi mumkin. Yoki aksincha, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkning taqdirini belgilamasdan vafot etgan taqdirda, unga tegishli mol-mulk qonun bo'yicha vorislik asosida uning oila a'zolariga yoki qarindosh-urug'lariga o'tadi. Qonun bo'yicha vorislik munosabati bilan meros qoldiruvchining huquq va majburiyatlari o'tish tartibi va shartlari qonunda belgilab qo'yilgan bo'ladi. Meros mulk qonunda belgilangan tartibda va miqdorda merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanadi. Ushbu darsligimizning keyingi paragraflarida vorislik asoslariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

*Merosning ochilish vaqti* – bu fuqaroning vafot etgan kuni (zarurat boʻlganda payti ham), shuningdek, u vafot etgan deb eʼlon qilinganda esa sudning qarorida koʻrsatilgan muddat, agar qarorda bunday muddat koʻrsatilmagan boʻlsa, qarorning kuchga kirgan sanasi meros ochilgan kun hisoblanadi.

Qonun vorislik huquqiy munosabatlarining kelib chiqishini uning ochilishi bilan bogʻlaydi. Merosning ochilish vaqti merosni egallash, taqdim qilish huquqi boʻyicha vorislik, meros tranmissiyasi hamda biridan keyin boshqasi meros olishga haqli shaxslarning bir vaqtda vafot etganligi toʻgʻrisidagi qoidalarining qoʻllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aytaylik, qonun boʻyicha vorislikda otadan oldin oʻgʻil vafot etsa, taqdim qilish huquqi boʻyicha vorislik qoidalari; aksincha, oʻgʻil otadan keyin, lekin merosni egallamasdan vafot etsa, meros transmissiyasi qoidalari qoʻllanilgan holda vorislik masalasi hal qilinadi. Agarda ota va oʻgʻil bir kalendar sutka ichida vafot etsa, biridan keyin boshqasi meros olishga haqli shaxslarning bir vaqtda vafot etganligi toʻgʻrisidagi qoidalar qoʻllanilib, ota va bola oʻrtasida vorislik huquqiy munosabatlar vujudga kelmaydi.

Shuningdek, vorislik huquqiy munosabatlarga tatbiq etilishi lozim boʻlgan qonun hujjatlarini toʻgʻri aniqlashda ham merosning ochilish vaqtini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki meros munosabatlarini tatbiq qilish lozim boʻlgan qonunlar FKning 4-moddasiga asosan, merosning ochilish payti bilan belgilanadi.

Merosning ochilish joyi – meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi, ushbu joy nomaʼlum boʻlsa yoxud chet el davlati hududi hisoblansa, meros qoldiruvchiga tegishli boʻlgan koʻchmas mulk yoki uning asosiy qismi turgan joy, shuningdek, meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi nomaʼlum boʻlsa hamda koʻchmas mulki ham boʻlmagan taqdirda esa koʻchar mulkning asosiy qismi turgan joy hisoblanadi. Demak, meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi nomaʼlum boʻlib hamda mulki bir necha joyda joylashgan taqdirda, meros ochilgan joy boʻlib, uning asosiy qismi turgan joy sanaladi. Agar merosning ochilish joyini aniqlash uchun yetarli hujjatlar boʻlmagan taqdirda, meros ochilgan joy fakti sudning qaroriga asosan aniqlanadi.

**Meros ochilgan joyni belgilashning ahamiyati  
quyidagilarda ko‘rinadi:**



- merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar meros ochilgan joydagi notarial idora tomonidan beriladi;
- meros ochilgan joydagi notarius qonun hujjatlariga muvofiq meros qoldiruvchining kreditorlaridan da‘volarni qabul qiladi;
- meros ochilgan joydagi notarius meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi.

FKning 1113-moddasiga asosan, meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan va uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan huquq va majburiyatlari meros tarkibini tashkil qiladi. Shuningdek, FKning 1120-moddasiga asosan, mol-mulk ham meros obyekti bo‘la oladi, chunki fuqaro o‘ziga tegishli mol-mulkni vasiyat qilib qoldirishi mumkinligi ushbu normada nazarda tutilgan. Demak, yuqoridagi normalardan kelib chiqib quyidagilar: mol-mulk (avtotransport vositasi), mulkiy kompleks (korxonalar), mulk huquqi (uy-joyga nisbatan mulk huquqi), talab qilish huquqi (omonatni talab qilish huquqi), boshqa ashyoviy huquqlar (meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish va foydalanish huquqi), ijara huquqi (fermer xo‘jaligi faoliyati uchun ajratilgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi, agar shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, uy-joyni ijaraga olgan fuqaro vafot etsa, ijara shartnomasi asosida unga tegishli huquq va majburiyatlar uning vorislariga o‘tadi), mulk bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar (intellektual mulk huquqiga bo‘lgan mutlaq huquqlar, muallifning mulkiy huquqlari), shuningdek, majburiyatlar va boshqalar meros obyektlari tarkibini tashkil etadi.

Meros qoldiruvchiga tegishli har qanday huquq va majburiyatlar ham meros tariqasida o‘tavermaydi. Marhumning shaxsi bilan bog‘liq quyidagi huquq va majburiyatlar meros mulk tarkibiga kirmaydi va meros huquqining obyekti bo‘la olmaydi:

- yuridik shaxs hisoblangan har qanday tijorat tashkilotlari, kooperativ va boshqa jamoat tashkilotlariga va birlashmalariga boʻlgan aʼzolik huquqi hamda ular faoliyatida ishtirok etish huquqlari, yaʼni bu tashkilotlarda mulkdan foydalanish huquqi ularda aʼzo boʻlib turish huquqidan kelib chiqadi, shu tufayli bu huquqni na qonun va na vasiyat boʻyicha meros qilib qoldirib boʻladi. Bu tashkilotlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha hol koʻrsatilgan boʻlsa, meros huquqi tatbiq qilinishi mumkin;

- majburiyatlarni yoki shartnomalarni bajarish jarayonida meros qoldiruvchining hayoti va sogʻligʻiga yetkazilgan zararni qoplash uchun toʻlanadigan tovonni (FK, 1005-modda) undirish huquqi ham meros qoldiruvchining shaxsi bilan bogʻliq boʻlgani sababli meros obyekti boʻla olmaydi. Ammo meros qoldiruvchi hayotligida unga yetkazilgan zarar (mulkiy zarar)ni qoplash hisobidan olishi lozim boʻlgan, lekin vafoti munosabati bilan ololmay qolgan summa meros tarkibiga kiradi va u umumiy tartibda vorislarga oʻtadi;

- aliment majburiyati tufayli vujudga kelgan huquq va majburiyatlar, chunonchi, voyaga yetmagan yosh bolalariga taʼminot berish majburiyati, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga taʼminot majburiyati, boshqalarga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan yetkazilgan zararni toʻlash majburiyati va boshqa shaxsiy huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kirmaydi;

- mehnat va ijtimoiy taʼminot toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari asosida pensiya, nafaqa va boshqa toʻlovlar olish huquqi, bular quyidagilar:

a) ijtimoiy taʼminot yoʻli bilan nogironlarga tekinga berilgan yengil avtomashinalarning aynan oʻziga boʻlgan huquq meros obyekti boʻlmaydi va meros mulk sifatida merosxoʻrlarga oʻtmaydi; imtiyozli huquqdan foydalanib, qiymatining bir qismi toʻlab olingan yengil avtomobil tasarrufida boʻlgan shaxs vafot etganda, ijtimoiy taʼminot organlari tomonidan bu mulk sotilib, meros qoldiruvchiga tegishli summasi uning merosxoʻrlariga beriladi; merosxoʻr tegishli summani toʻlab, bu mulkni oʻziga qoldirishi ham mumkin;

b) mehnat qonunlari asosida vaqtincha mehnat qobiliyatini yoʻqotgani uchun nafaqa olish huquqi yoki nogironlik uchun

pensiya olish huquqi, homiladorlik va qaramog'ida bo'lgan yosh bolalari uchun olinadigan boshqa har qanday nafaqalarga bo'lgan huquq, agar u meros qoldiruvchining shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, meros tarkibiga kirmaydi;

- mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar, ya'ni sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'siga putur yetkazilgan holda shaxs aybdordan zararni hamda ma'naviy zararni undirish huquqiga ega bo'ladi, ushbu zarar hamda ma'naviy zararni undirish talabi vorislarga o'tmaydi. Lekin meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy boyliklar merosxo'rlar tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin. Misol uchun, FKning 20-moddasida ismni himoya qilish qoidalari belgilangan bo'lib, unga muvofiq vorislar marhumning ismi yoki sha'ni bilan bog'liq huquqlarini amalga oshirib, raddiya berish talablarini qo'yishlari mumkin, ammo zararni qoplash talabini qo'ya olmaydi.

Qolaversa, qonun va shartnomaga muvofiq, shaxsning vafot etishi bilan bekor bo'ladigan huquq va majburiyatlari meros tarkibiga kirmaydi. Aytaylik, transport vositasini ijaraga olgan fuqaro ijara shartnomasi amal qilib turgan davrda vafot etsa, uning ijara oluvchi sifatidagi transport vositasidan foydalanish huquqi vorislarga o'tmaydi. Lekin transportdan foydalanganlik uchun to'lamagan ijara to'lovlari meros tarkibiga kiradi.

Meros huquqining subyektlari meros qoldiruvchi hamda merosxo'rlardan iborat bo'lib, meros qoldiruvchi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

*Merosxo'r* – bu meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar hamda meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin uch yuz kun ichida tirik tug'ilgan bolalari vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin. Marhumning vafotidan so'ng uch yuz kun ichida tirik tug'ilgan bola Oila kodesining 60-moddasiga asosan, nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi. Qonun bo'yicha marhumning oila a'zolari, qarindoshlari hamda qarindoshlik aloqasidan qat'i nazar, mehnatga qobiliyatsiz boqimlari merosxo'r bo'lishi mumkin. Vasiyat bo'yicha esa har qanday shaxs qarindoshlik aloqasi va darajasidan qat'i nazar, merosxo'r bo'lishi mumkin. Shuningdek, yuridik shaxs, davlat hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishi mumkin. Bunda asosiy shart ular meros ochilgan paytda tuzilgan bo'lishi lozim.

Qonun bo'yicha vorislikda farzandlikka oluvchilar ham, farzandlikka olinganlar ham farzandlar va ota-onalar kabi bir xil huquqlarga ega bo'ladilar. Oila kodeksining 165-moddasiga ko'ra, farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchilarning o'z bolalariga tenglashtiriladi. Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-ona qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar. Bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka voris bo'lish huquqiga ega emaslar, shuningdek, meros qoldiruvchiga ta'minlab turish yuzasidan qonunga ko'ra zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va voyaga yetgan bolalar (farzandlikka olinganlar) qonun bo'yicha merosxo'r bo'lish huquqiga ega emaslar.

Noloyiq merosxo'r tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, qonunda belgilangan holatlarda merosxo'r noloyiq merosxo'r deb topilishi natijasida, shuningdek, vasiyatnomada ko'rsatilgan holatlarda merosxo'rlar merosdan chetlatilishi natijasida merosxo'r meros olish huquqidan mahrum bo'ladi. FKning 1119-moddasida noloyiq merosxo'r (lar)ning merosdan chetlatilish asoslari keltirilgan. Unga asosan, meros qoldiruvchini yoki ehtimol tutilgan merosxo'rlardan birortasini qasddan o'ldirgan yoki ularning hayotiga suiqasd qilgan shaxslar vasiyat bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar. Vasiyat qiluvchi o'z hayotiga suiqasd qilinganidan keyin vasiyatnoma bergan shaxslar bundan mustasno. Meros qoldiruvchi o'zining oxirgi xohish-irodasini amalga oshirishiga qasddan to'sqinlik qilgan va shu orqali o'zlarining yoki o'zlariga yaqin shaxslarning vorislikka chaqirilishiga yoxud merosning o'zlariga yoki o'zlariga yaqin shaxslarga tegishli ulushi ko'paytirilishiga imkon yaratgan shaxslar vasiyatnoma bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar.

Noloyiq merosxo'rlarni vorislikdan chetlatish uchun asos bo'ladigan holatlar bunday chetlatish keltirib chiqaradigan vorislik bilan bog'liq mulkiy oqibatlarga daxldor shaxsning da'vosi

bo'yicha sud tomonidan belgilanadi. Yuqorida sanab o'tilgan qoidalar har qanday merosxo'rlarga, shu jumladan, majburiy hissa olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlarga ham tatbiq etiladi. Shuningdek, FKning 1120-moddasiga muvofiq, vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha merosxo'rlardan bittasini, bir nechasini yoki hammasini izoh bermagan holda merosdan mahrum qilishi mumkin. Lekin ushbu qoida merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vasiyat bu mulk huquqini vujudga keltiruvchi usullardan biri hisoblanadi. Mulkdor o'z mol-mulkinging yuridik taqdirini belgilashga faqat o'zi haqlidir. Chunki mulkdor mulk huquqining uchala elementi (mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish)ning ham sohibi hisoblanadi. Mulkdor voris(lar)ni o'zi tanlashi, shuningdek, lozim bo'lsa u(lar)ni merosdan mahrum etish vakolatiga egadir. Bu o'rinda mulkdor voris sifatida o'zi istagan fuqaroni, yuridik shaxsni tanlashi yoxud mol-mulkini davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Vasiyat bo'yicha vorislik meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnoma yozib qoldirish orqali o'ziga tegishli mol-mulk va boshqa huquq va majburiyatlarning taqdirini belgilashidir. Vasiyatnoma so'zi ikki ma'noda tatbiq etiladi: *birinchidan*, vasiyatnoma – bu vasiyat qoldiruvchining erki ifodalangan hujjatning o'zi sifatida tatbiq qilinsa, *ikkinchidan*, vasiyatnoma – vasiyat qoldiruvchining erkini ifoda etuvchi hujjat hisoblanadi. Bu ma'noda vasiyatnoma bir taraflama bitim bo'lib, uni tuzish uchun qonun hujjatlariga asosan bir tarafning, ya'ni vasiyat qoldiruvchining xohishi yetarli bo'ladi. Boshqa bir shaxsning qarshi erkini ifoda qilish talab qilinmaydi. Shuning uchun vasiyatnomaning haqiqiyliги hech vaqt vorislarning roziligiga bog'liq emas.

Meros qoldiruvchi vasiyatnomada FKning 1120-moddasiga asosan, o'zining qonun bilan man etilmagan har qanday mol-mulkini va mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlarining barchasini yoki uning muayyan bir qismini, shu jumladan, merosxo'r bir yoki bir necha shaxs foydasiga biron-bir majburiyatni meros hisobidan bajarishni yoxud biron-bir harakatni sodir etish yoki sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklashi mumkin, shuningdek, vasiyatnomada qonun bo'yicha merosxo'rlardan birini

yoki bir nechtasini merosdan chetlatishdan iborat xohish-irodasini ifodalashga haqli.

Vasiyatnomada mol-mulkning bir qismi vasiyat qilingan taqdirda, uning qolgan qismi qonun bo'yicha vorislarga o'tadi. Bunday holda vasiyat qoldiruvchi uy-ro'zg'or buyumlari va jihozlari haqida alohida ularning vasiyat bo'yicha kimga o'tishini ko'rsatishi shart. Vasiyat bo'yicha meros qoldiruvchining faqatgina mulkiy huquqlari o'tadi, mulkiy majburiyatlar esa FKning 1155-moddasi tartibida meros qiymati hisobidan hamma talablardan oldin imtiyozli ravishda qoldirilishi lozim.

Meros qoldiruvchi o'zining qarzlarini to'lashdan ayrim vorislarni qisman yoki to'liq ozod qilishga haqli emas. Bunday vasiyatnomada ko'rsatilgan farmoyish haqiqiy hisoblanmaydi. Chunki merosxo'rlarning har biri o'ziga tekkan mol-mulkning qiymati doirasida sherik (solidar) qarzdorlar sifatida javobgardirlar.

Vasiyatnomaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) yozma hujjat shaklda tuzilishi shart, og'zaki yoki audio yoxud video yozuv ko'rinishida vasiyat qoldirish uning haqiqiy emasligiga olib keladi;
- 2) hujjat, albatta, vasiyat qoldiruvchi tomonidan shaxsan tuzilib imzolangan bo'lishi kerak;
- 3) vasiyatnoma vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- 4) vasiyatnoma bir taraflama bitim bo'lib, faqat meros qoldiruvchining erki-irodasi bilan tuziladi. Lekin vasiyatnoma bo'yicha huquqiy oqibat ikki tarafning – vasiyat qoldiruvchi va merosxo'rlarning o'zaro xohish-irodasi amalga oshirilgan taqdirdagina vujudga keladi;
- 5) vasiyatnoma, albatta, notarius yoki boshqa qonun bilan huquq berilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlanishi shart;
- 6) vasiyatnomani xohlagan paytda va izoh bermay o'zgartirish, bekor qilish mumkin;
- 7) vasiyatnoma faqat meros ochilgandan keyingina amal qila boshlaydi.

Vasiyat bo'yicha vorislikda vasiyat qoldiruvchi shaxsan o'zi, o'z erki bilan merosxo'rga o'zining xususiy mol-mulkiga nisbatan huquqlarni vasiyatnoma yozish orqali belgilab beradi. Shuningdek, biron-bir vorisni hech qanday izohlarsiz merosdan mahrum qilishga haqli.

Vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi, unda uning yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilishi lozim. Sababi amaliyotda shunday hodisalar uchraydiki, vasiyat qoldiruvchi bir mol-mulkga nisbatan bir necha marotaba o'zining vasiyatnomasini tuzib qoldiradi. Uning qaysi biri haqiqiy ekanligini aniqlash uchun vasiyatnomaning tuzish vaqti asos qilib olinadi. Keyingi tuzilgan vasiyatnoma avvalgi vasiyatnomaning bekor bo'lishi uchun asos bo'ladi. Shuningdek, vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi lozim. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan, notarius yoki qonunga muvofiq vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo'lganida vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmasligining sabablari ko'rsatilgan holda vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin. Notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa shaxs; vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo'lsa, o'sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek, vasiyat qiluvchining qonun bo'yicha merosxo'rlari; to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar; savodsizlar va vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar; yolg'on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolashlari mumkin emas.

Quyidagi vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi: notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar va notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoxud uning so'zlaridan notarius tomonidan yozib olinib, qonunda belgilangan tartibda notarial tasdiqlanadi. Vasiyatnoma istalgan notarial idora notariusi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Bunda notariuslar tomonidan vasiyatnoma tasdiqlangandan keyin vasiyat qiluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, vasiyatno-

mani tasdiqlash sanasi va reyestr raqami to'g'risidagi ma'lumotlar vasiyat qiluvchining doimiy propiska qilingan joydagi meros rasmiylashtiriladigan davlat notarial idorasiga o'n kun muddatda yuborilishi lozim. Vasiyatnoma matni vasiyat qiluvchi tomonidan yozilib, notariusga shaxsan taqdim etilgan yoki uning so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan bo'lishi lozim. Vasiyatnoma yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi, familiyasi, ismi va otasining ismi to'liq yozilishi shart. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan, notarius hozir bo'lganida vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmaganligi sabablari ko'rsatilgan holda, vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin. Bunda notarius vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaroga meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuni, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga daxldor ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emasligini tushuntiradi va bu haqda vasiyatnoma matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi.

Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar notarial idoralarda tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda, qonunda nazarda tutilgan tartibda belgilangan mansabdor shaxslar tomonidan vasiyatnomaning tasdiqlanishiga yo'l qo'yiladi. Bunday vasiyatnomalar notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi. Qonunda vasiyatnomalarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning aniq ro'yxati berilgan. Shu bilan birga, qanday holatlarda uni amalga oshirishga ruxsat berilishi ham aniq belgilangan. Bu qoidani keng talqin etishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda nazarda tutilgan mansabdor shaxslardan boshqa hech kim vasiyatnomani guvohlantirishga haqli emas. Vasiyatnomani tasdiqlash huquqi berilgan mansabdor shaxsning shaxsan o'zi vasiyat qoldiruvchining shaxsini aniqlashi, uning muomala layoqatiga ega ekanligini, vasiyatnoma haqiqatan ham vasiyat qoldiruvchining o'z qo'li bilan yozilib, imzo qilinganligini aniqlab, shunga ishonch hosil qilishi shart, shundan keyingina vasiyatnomani tasdiqlashi mumkin. Mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatno-

malardan bitta nusxasi vasiyat qiluvchi doimiy yashaydigan joydagi davlat notarial idorasiga saqlash uchun kechiktirilmay yuborilishi shart. Davlat notarial idorasining notariusi saqlash uchun kelib tushgan vasiyatnomani tekshirib, uning shakl va tartib jihatidan qonunga muvofiq tuzilganligini aniqlaydi, nomuvofiqligi aniqlanganda, bu haqda vasiyat qiluvchiga va vasiyatnomani tasdiqlagan mansabdor shaxsga xabar qilishi kerak. Amaliyotda bunday vasiyatnomalar vasiyat qiluvchi tomonidan bevosita vafoti oldidan tuzilgan bo'ladi. Nizo chiqqanda ularning haqiqiyliги faqat meros ochilgandan keyin sud tomonidan hal qilinadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

---

- 1. Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik hamda meros transmissiyasi bo'yicha vorislikning o'zaro farqli jihatlarini izohlang.*
- 2. Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari qay tartibda merosga chaqiriladi?*
- 3. Qonun bo'yicha nabira, jiyan, amakivachcha, tog'avachchalar nechinchi navbatda vorislikka chaqiriladi?*

# FUQAROLIK HUQUQI

(yuridik texnikumlar uchun darslik)

Mas'ul muharrir: H. Saloyeva  
Muharrir: F. Muhammadiyeva  
Musahhih: S. Tosheva  
Texnik muharrir: U. Sapayev

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Tahririy-nashriyot bo'limida nashrga tayyorlandi.  
100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy.



Bosishga 2021 \_\_ - \_\_\_\_\_ ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ . Ofset qog'ozi. Times New Roman  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 12. Nashr tabog'i \_\_\_\_\_.  
Adadi 1145 nusxa. Buyurtma raqami 196.

“Azmir Nashr Print” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
100200, Toshkent shahri, A. Rahmat ko'chasi, 10-uy.